

Ashurov Nazar Raxmatullayevich

TEXNOLOGIYA TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI

DARSLIK



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE
TECHNOLOGY AND SCIENCE INSTITUTI**

Ashurov Nazar Raxmatullayevich

**TEXNOLOGIYA TA'LIMI NAZARIYASI VA
METODIKASI**

*(Texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi
fani misolida)*

DARSLIK

Tashkent:2026

Tuzuvchi:

Ashurov N.R. International school of finance technology and science institutining dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Sarsenboyeva R. International school of finance technology and science” institutining dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Xolmatov P. Q. Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv texnologiyalar universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining v/b professori .pedagika fanlar nomzod

UO'K: 378.147 KBK: 74.58-388 A 84 Ashurov.N.R. Texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi [Matn]: Darslik / N.R. Ashurov..Tashkent: «ZUXRO BARAkA BZNES» nashriyoti, 2026.-213 b.

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining № 6263-096a-2f84-90c2-0445-1501-4436. Hujjat yaratilgan sana: 2026-06-15. Ekspertiza xulosasi: Mazkur o‘quv adabiyoti nashr qilishga tavsiya etildi

ANNOTATSIYA. Mazkur darslik boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, texnologiya ta’limining nazariy asoslari va uni o‘qitish metodikasini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Darslikda texnologiya ta’limining maqsadi va vazifalari, mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari hamda boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, darsni rejalashtirish, tashkil etish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Darslikda innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish va ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari haqida atroflicha ma’lumot berilgan. Har bir mavzudan so‘ng mustahkamlash uchun nazarot va muhokama savollar, amaliy mashg‘ulot namunalari ham keltirilgan.

KIRISH

Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha dunyoda raqobatdosh bo‘lsin, kerak bo‘lsa, boshqalardan bir pog‘ona ustun tursin.

Sh.M.Mirziyoev

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar shaxsini shakllantirish, ularda mehnatsevarlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan "Texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi" fanini chuqur o'rganish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslik boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni texnologiya ta'limining nazariy asoslari, mazmuni va o'qitish metodikasi bilan tanishtirishga qaratilgan. Unda texnologiya ta'limining maqsad va vazifalari, tamoyillari, shakl va metodlari, darsni tashkil etish usullari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritilgan.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, turli materiallar bilan ishlash, oddiy texnologiya jarayonlarini bajarish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va mahsulot yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur fan o'quvchilarning estetik didi, texnik tafakkuri va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Darslik mazmuni zamonaviy ta'lim standartlari va kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, topshiriqlar va mustaqil ta'lim uchun materiallarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu darslik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni dars jarayonini samarali tashkil etish va innovatsion yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashga xizmat qiladi.

I-MODUL.TEXNALOGIYA TA'LIM NAZARIYASI

1-MAVZU. Texnologiya o'qitish metodikasi faning nazariy va amaliy asoslari.

Reja:

1. Fanning maqsad va vazifalari. Texnologiya ta'limining jamiyatdagi o'rni.
2. Fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.
3. Texnologiya o'qitish metodikasi fanining predmeti va obyekti.
4. Didaktik tamoyillar va ularning texnologiya ta'limidagi ahamiyati. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari.
5. O'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish nazariyasi.
6. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari. O'quv ustaxonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari.
7. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *texnologiya ta'limi, texnologiya o'qitish metodikasi, ta'lim jarayoni, didaktika, didaktik tamoyillar, ta'lim qonuniyatlari, pedagogik jarayon, metod, usul, ta'lim shakllari, ta'lim vositalari, loyihaviy faoliyat, amaliy mashg'ulot, o'quv ustaxonasi, texnika xavfsizligi, kasbga yo'naltirish, texnologik kompetensiya, bilim, ko'nikma va malaka, nazariya va amaliyot uyg'unligi, ijodkorlik va mustaqil fikrlash.*

“Texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi” fanining asosiy maqsadi — bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik tafakkur, kasbiy mahorat va metodik kompetensiyalar bilan qurollantirishdan iborat. Fan talabalarda texnologiya ta'limining nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirish, dars jarayonini ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarning texnologik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali usullarni qo'llash qobiliyatini shakllantiradi. Mazkur fan o'qituvchini ijodkor, tashabbuskor va innovatsion yondashuvga ega mutaxassis sifatida tayyorlashni ko'zda tutadi.

Mazkur fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- texnologiya ta'limining ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari va qonuniyatlarini o'rgatish.
- texnologiya darslarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini o'zlashtirishga yo'naltirish.
- o'quvchilarda texnologik tafakkur, ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini o'rgatish.
- amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarini tashkil etish metodikasini egallashga ko'maklashish.
- ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning mezon va usullarini o'rgatish.
- mehnat madaniyati, texnika xavfsizligi va kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish metodikasini shakllantirish.

Texnologiya ta'limi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. U yosh avlodni mehnatga, kasb-hunarga va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga ongli ravishda tayyorlaydi. Texnologiya ta'limi orqali o'quvchilarda nafaqat amaliy ko'nikmalar, balki texnik tafakkur, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi.

Avvalo, texnologiya ta'limi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Chunki u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va innovatsion sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlashning dastlabki bosqichini tashkil etadi.

O'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat va kasbiy madaniyatni shakllantirish orqali jamiyatda samarali mehnat resurslari yaratiladi. Shuningdek, texnologiya ta'limi yoshlarni kasb tanlashga yo'naltiradi. O'quvchilar turli sohalar bilan tanishish jarayonida o'z qiziqish va qobiliyatlarini anglaydi, kelajakdagi kasbiy faoliyatini ongli ravishda tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida texnologiya ta'limi innovatsion fikrlaydigan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtira oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa

jamiyatning ilmiy-texnik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya ta'limi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida, yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda texnologiya fanining o'rni yanada ortib bormoqda. Texnologiya fani o'quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham qurollantiradi. Shu sababli u umumta'lim fanlari tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lib, boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Texnologiya fanining fanlar tizimidagi o'rni integrativ xususiyatga ega bo'lgan fan hisoblanadi. U ko'plab umumta'lim fanlari bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Texnologiya fani aniq fanlar bilan bog'liqligi, avvalo, matematika va fizika fanlari bilan chambarchas bog'liq. Matematika orqali o'quvchilar o'lchash, hisoblash, chizma tuzish, nisbat va proporsiyalarni aniqlash kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Fizika esa materiallarning xossalari, mexanik harakat, energiya turlari, elektr toki kabi tushunchalarni anglashga yordam beradi. Bu bilimlar texnologiya darslarida amaliy jarayonlarni to'g'ri bajarishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy fanlar bilan aloqasi kimyo va biologiya fanlari bilan ham texnologiya fani uzviy bog'langan. Masalan, materiallarga ishlov berishda ularning kimyoviy va fizik xossalarini bilish muhimdir. Qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi texnologiya mashg'ulotlarida esa biologik jarayonlar haqidagi bilimlar zarur bo'ladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liqligi tarix, iqtisodiyot va mehnat ta'limi madaniyati bilan ham bog'liq. Ishlab chiqarish taraqqiyoti, hunarmandchilik rivoji, milliy qadriyatlar va an'analar texnologiya fanining mazmunida o'z aksini topadi. Bu esa o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, mehnatga hurmat va kasbga mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi Zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiya fani axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda o'qitiladi. Kompyuter dasturlari orqali loyihalash, modellashtirish, grafik chizmalar yaratish texnologiya

fanining samaradorligini oshiradi. Bu esa o'quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. Shu jihatdan texnologiya fani fanlar tizimida bog'lovchi, integratsiyalovchi fan sifatida muhim o'rin egallaydi.

Texnologiya fanining amaliy ahamiyati eng muhim jihati — uning amaliy yo'nalganligidadir. U o'quvchilarning kundalik hayotda zarur bo'ladigan ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Mehnat ko'nikmalarini shakllantirish - texnologiya darslarida o'quvchilar turli asbob-uskunalar bilan ishlashni, materiallarga ishlov berishni, buyumlar yasashni o'rganadilar. Bu jarayonda ularda aniqlik, sabr-toqat, mas'uliyat va mehnat madaniyati shakllanadi.

Kasbga yo'naltirishdagi o'rni - texnologiya fani o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlar orqali ular turli kasblar haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladilar. Bu esa kelajakda ongli ravishda kasb tanlashlariga zamin yaratadi.

Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirish - texnologiya fani o'quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Loyihaviy ishlar, mustaqil topshiriqlar va modellash jarayonlari o'quvchilarning yangicha fikrlash, muammolarni hal etish va yangilik yaratish qobiliyatini kuchaytiradi.

Hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish - texnologiya ta'limi o'quvchilarga kundalik hayotda zarur bo'ladigan amaliy bilimlarni beradi. Masalan, oddiy ta'mirlash ishlari, maishiy texnika vositalaridan foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kabi ko'nikmalar hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish - texnologiya fanida mahsulot tannarxini hisoblash, tejamkorlik, resurslardan oqilona foydalanish masalalari o'rgatiladi. Bu esa o'quvchilarda iqtisodiy fikrlash va tadbirkorlik qobiliyatini shakllantiradi.

Zamonaviy jamiyatda texnologiya fanining dolzarbligi - raqamli iqtisodiyot va innovatsion taraqqiyot sharoitida texnologiya fanining ahamiyati yanada ortmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan tizimlarga asoslanadi.

Bunday sharoitda texnik tafakkurga ega, amaliy ko'nikmalari rivojlangan yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Texnologiya fani o'quvchilarda nafaqat amaliy malaka, balki mas'uliyat, intizom va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Texnologiya fani umumta'lim fanlari tizimida integrativ va amaliy yo'nalishga ega bo'lgan muhim fan hisoblanadi. U boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan holda o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi.

Shuningdek, texnologiya fani yosh avlodni mehnatga, kasb-hunarga va mustaqil hayotga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Jamiyatning iqtisodiy va texnik rivojlanishi ko'p jihatdan texnologik savodxon, ijodkor va tashabbuskor yoshlarning shakllanishiga bog'liqdir. Shu sababli texnologiya fanining ta'lim tizimidagi o'rni va amaliy ahamiyati beqiyosdir.

Texnologiya fanining obyekti — umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalarida olib boriladigan texnologiya ta'limi jarayonidir.

Bu fan o'quvchilarga texnologiya fanini o'qitish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik jarayonni, dars mashg'ulotlarini tashkil etish, amaliy ishlarni bajarish, tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish kabi jarayonlarni o'rganadi.

Obyekt sifatida quyidagilar qaraladi:

- texnologiya darslari jarayoni;
- o'quvchilarning o'quv-amaliy faoliyati;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik munosabat;
- texnologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni.

Texnologiya fanining predmeti — texnologiya ta'limini o'qitishning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari hamda ularni samarali qo'llash qonuniyatlaridir.

Boshqacha aytganda, fan texnologiya darslarini qanday tashkil etish, qanday metod va usullardan foydalanish, o'quvchilarda qanday

kompetensiyalarni shakllantirish kerakligi kabi masalalarni ilmiy asosda o'rganadi.

Predmet doirasiga quyidagilar kiradi:

- texnologiya ta'limining maqsad va vazifalarini belgilash;
- o'quv materialining mazmunini tanlash va tizimlashtirish;
- darslarni rejalashtirish va tashkil etish metodikasi;
- o'qitishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish;
- amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish usullari;
- baholash mezonlari va nazorat turlari;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash masalalari.

Ushbu fan bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilim berish bilan birga, amaliy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Didaktik tamoyillar — ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan asosiy qoidalar va yo'nalishlardir. Ular o'quv materialini tanlash, darsni tashkil qilish, o'qitish usullarini belgilash va natijani baholashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limida ushbu tamoyillar o'quvchining yoshi, psixologiyasi va amaliy faoliyatiga mos ravishda qo'llanilishi zarur. O'quv materiallari ilmiy jihatdan to'g'ri va asoslangan bo'lishi kerak. Texnologiya darslarida o'quvchilarga materiallar (qog'oz, karton, rangli qag'oz, plastilin, qaychi, chizg'ich, rangli qalamlar, mato, yog'och va h.k.) haqida oddiy, lekin ilmiy asoslangan tushunchalar beriladi va o'quvchilarda to'g'ri texnik tafakkur va dunyoqarash shakllanadi.

Tushunarlilik va moslik tamoyili - material o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'proq amaliy, ko'rgazmali va o'yin elementlari asosidagi mashg'ulotlar samarali va murakkab texnologik jarayonlar sodda, oson o'zlashtiriladi.

Ko'rgazmalilik tamoyili - darsda namuna, rasm, sxema, tayyor buyumlardan foydalanish muhim. Masalan, applikatsiya yoki oddiy maket yasash jarayoni bosqichma-bosqich ko'rsatib beradi, o'quvchi ko'rib, ushlab, bajarib o'rganadi; bilish jarayoni faollashadi.

Faollik va mustaqillik tamoyili - o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'ladi. Texnologiya ta'limida o'quvchilar mustaqil ravishda buyum yasaydilar, reja tuzadilar va natijani baholaydilar. Shu bilan birga ijodkorlik, mustaqil fikrlash va mehnat ko'nikmalari rivojlanadi.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili - berilgan bilim albatta amaliy faoliyat bilan mustahkamlanadi. Masalan, qog'oz turlari haqidagi ma'lumotdan so'ng, o'quvchilar turli qog'ozlardan buyum tayyorlaydilar, bilim mustahkamlanadi va hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili - bilimlar oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga qarab bosqichma-bosqich beriladi, o'quvchilarda mustahkam va yaxlit bilim tizimi shakllanadi.

Texnologiya fanida didaktik tamoyillarning o'rni boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi nafaqat qo'l mehnati darsi, balki bolaning:

- mayda motorikasini;
- mantiqiy va texnik fikrlashini;
- estetik didini;
- mehnatsevarlik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Didaktik tamoyillarga tayangan holda tashkil etilgan texnologiya darsi: a) samarali, b) qiziqarli, v) tarbiyaviy ahamiyatga ega, g) o'quvchiga yo'naltirilgan bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda didaktik tamoyillar ta'lim jarayonining asosiy poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya ta'limida ushbu tamoyillar bolaning amaliy faoliyati, ijodiy qobiliyati va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Tamoyillarga rioya qilish orqali dars sifati va samaradorligi oshadi.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlari — o'qitish va o'rganish jarayonida doimiy ravishda namoyon bo'ladigan, o'zaro bog'liq va takrorlanuvchi holatlardir. Ular darsni to'g'ri tashkil etish, samaradorlikka erishish va o'quvchilarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Texnologiya darslarida bu qonuniyatlar ayniqsa amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Asosiy qonuniyatlar quyidagicha:

Ta'lim, tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi - har qanday texnologiya darsi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi.

U mehnatsevarlik, mas'uliyat, tejamkorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va dars ko'p qirrali pedagogik jarayonga aylanadi.

Nazariya va amaliyot birligi qonuniyati - texnologiya ta'limida bilim amaliy ish bilan mustahkamlanadi. Masalan, material turlari haqidagi ma'lumotdan so'ng o'quvchi shu material bilan buyum yasaydi.

Onglilik va faollik qonuniyati - o'quvchi ish jarayonini tushunib, ongli ravishda bajarishi kerak. Faqat namuna ko'chirish emas, balki nima uchun va qanday qilib bajarayotganini anglashi muhim. hamda mustaqil fikrlash va ijodkorlik rivojlanadi.

Ko'rgazmalilik va sezgi orqali bilish qonuniyati - boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'rish, ushlab va bajarish orqali tezroq o'rganadilar. Shuning uchun texnologiya darslarida namunalar, sxemalar, tayyor mahsulotlar qo'llaniladi va bilish jarayoni tabiiy va samarali kechadi.

Tizimlilik va izchillik qonuniyati - bilim va ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi oddiy operatsiyalar, murakkab ishlar, ijodiy loyihalar shu bilan o'quvchilarda mustahkam malaka hosil bo'ladi.

Maqsadga yo'naltirilganlik qonuniyati - har bir texnologiya darsi aniq maqsadga ega bo'lishi kerak: yangi ko'nikma hosil qilish, malaka mustahkamlash yoki ijodiy ish bajarish va dars rejali natijador bo'ladi.

Individual xususiyatlarni hisobga olish qonuniyati - o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va ishlash sur'ati turlicha bo'ladi. Texnologiya darslarida bunga mos topshiriqlar berish samarali hisoblanadi.

Har bir o'quvchi o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. y texnologiya darslarida qonuniyatlarning amaliy ahamiyati. Ushbu qonuniyatlarga tayangan holda tashkil etilgan dars:

- samarali va qiziqarli bo'ladi;
- amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi;
- ijodkorlikni rivojlantiradi;
- mehnat madaniyatini tarbiyalaydi.

Texnologiya darslarida ta'lim jarayonining qonuniyatlari o'qitish samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ularni

to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalar, balki mustaqil fikrlash, mas'uliyat va ijodiy yondashuv shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda "Texnologiya" fani o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat ta'lim standartlarida ham texnologiya fanining amaliy yo'naltirilganligi alohida ta'kidlangan.

O'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish nazariyasi— bu o'quvchining:

- mehnat qurollari va materiallardan to'g'ri foydalanishi;
- texnologik jarayonlarni tushunishi;
- buyumlarni yaratish, qayta ishlash va bezash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi;
- mustaqil va ijodiy fikrlay olishi kabi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir. Ushbu kompetensiya faqat amaliy ish emas, balki tahlil qilish, rejalashtirish va natijani baholash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'limda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish quyidagi pedagogik nazariyalarga tayanadi:

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv - o'quvchi bilimni tayyor holda emas, balki amaliy faoliyat jarayonida egallaydi. Bu g'oya Lev Vygotskyning ijtimoiy-faoliyat nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchining "yaqin rivojlanish zonasi"da ish olib borishni nazarda tutadi.[6]

Kompetensiyaviy yondashuv - bu yondashuv ta'lim natijasini bilim hajmi bilan emas, balki uni qo'llay olish qobiliyati bilan belgilaydi, o'quvchi muammoni ko'ra olishi, o'quvchi yechim topishi, o'quvchi natijani amalda qo'llay olishi kerak ***Konstruktivizm nazariyasi*** - o'quvchi bilimni o'z tajribasi asosida "quradi". Texnologiya darslarida bu — model yasash, qo'l mehnati, tajriba orqali o'rganishda namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologik kompetensiya turlari

Amaliyot kompetensiyasi – materiallar bilan ishlash (qog'oz, karton, mato, tabiiy materiallar).

Loyihalash kompetensiyasi – sodda buyumlarni rejalashtirish va yaratish.

Axborot-texnologik kompetensiya – sodda raqamli vositalardan foydalanish.

Kommunikativ kompetensiya – guruhda ishlash, fikr almashish.

Ekologik kompetensiya – tabiiy resurslarga ehtiyotkor munosabat.

Shakllantirish bosqichlari:

1-bosqich: Qiziqish uyg‘otish (namoyishlar, savol – javob, hayotiy misollar).

2-bosqich: Amaliy faoliyat (qadamma-qadam ko‘rsatma, mustaqil ish, guruhli faoliyat).

3-bosqich: Tahlil va baholash (o‘z-o‘zini baholash, tayyor mahsulotni muhokama qilish, xatolar ustida ishlash).

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslari o‘quvchilarni hayotga tayyorlashning muhim bosqichidir. Texnologik kompetensiyalarni shakllantirish nazariyasi faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va ijodiy yondashuvlarga asoslanadi. Bu jarayon o‘quvchining mustaqil fikrlash, amaliy ishlash va ijodiy yondashuv qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish masalasiga bag‘ishlanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko‘nikmalar bilan ham qurollantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya fani o‘quvchilarni mehnat jarayoni bilan tanishtiradi, ularda yaratuvchanlik, mustaqillik va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Amaliy mashg‘ulot — bu o‘quvchilarning bevosita faoliyatiga asoslangan, muayyan mahsulot yaratish yoki texnologik jarayonni bajarishga qaratilgan ta’lim shaklidir.

Uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- nazariy bilimlarni mustahkamlaydi
- qo‘l mehnati ko‘nikmalarini rivojlantiradi
- mustaqil fikrlashni shakllantiradi
- mehnat madaniyatini tarbiyalaydi
- jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi

Faoliyatga asoslangan ta'lim g'oyalari Lev Vygotsky tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, bilim amaliyot jarayonida samarali o'zlashtirilishi ta'kidlangan.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

ilmiylik tamoyili - mazmun davlat ta'lim standartlariga mos bo'lishi kerak;

izchillik va tizimlilik - topshiriqlar osondan murakkabga qarab tashkil etiladi;

faollik va mustaqillik - o'quvchi darsning faol ishtirokchisi bo'lishi shart;

ko'rgazmalilik - namuna, model, rasm va video materiallardan foydalanish;

xavfsizlik - asbob-uskunalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish;

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchta bosqichdan iborat.

Birinchi tayyorgarlik bosqich (dars maqsadini belgilash, kerakli jihoz va materiallarni tayyorlash, ish joyini tashkil etish, xavfsizlik yo'riqnomasini tushuntirish). Bu bosqich dars samaradorligini ta'minlaydi.

Ikkinchi asosiy bosqich (namuna asosida ish boshlaydi, texnologik jarayonni bosqichma-bosqich bajaradi, o'qituvchidan maslahat oladi, mustaqil qaror qabul qiladi) Bu bosqichda o'quvchilar guruhli, juftlik va yakka tartibdagi ish shakllari qo'llanilishi mumkin.

Uchinchi yakunlovchi bosqich (tayyor mahsulotni taqdim qilish, ishlarni tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, xulosa chiqarish). Bu bosqichda refleksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotni bajarishda quyidagi shaklda bo'ladi:

- **frontal ish** – barcha o'quvchilar bir xil topshiriqni bajaradi;
- **guruhli ish** – hamkorlikda ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi;
- **ijodiy loyiha ishi** – mustaqil fikrlash va yaratuvchanlikni rivojlantiradi;
- **modellashtirish** – buyum yoki inshoot modelini yasash.

Samaradorlikni oshirish omillarida, hayotiy va qiziqarli topshiriqlar berish, milliy an'analar bilan bog'lash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, rag'batlantirish usullarini qo'llash bo'ladi. Individual yondashuvda o'qituvchining metodik mahorati mashg'ulot samaradorligini belgilaydi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni samarali shakllantiradi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarni mehnatsevar, ijodkor va mustaqil shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Amaliy faoliyatga asoslangan ta'lim zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va u kelajak avlodni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari ko'p hollarda o'quv ustaxonasida tashkil etiladi. Ustaxonada turli asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanilgani sababli xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Xavfsizlik qoidalariga amal qilish — texnologik madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'quv ustaxonasida quyidagi umumiy talablarga amal qilinadi:

1. Dars boshlanishidan oldin xavfsizlik yo'riqnomasi bilan tanishtirish.
2. O'qituvchi ruxsatisiz asboblarga tegmaslik.
3. Ish joyini tartibli saqlash.
4. Ortiqcha harakat va shovqin qilmaslik.
5. Asboblarni faqat belgilangan maqsadda ishlatish.

Asbob-uskunalar bilan ishlash qoidalari:

Qo'l asboblari (qaychi, bolg'a, otvertka va boshqalar):

- asbobni ishlatishdan oldin uning sozligini tekshirish;
- qaychini yugurib yoki o'ynab yurib ishlatmaslik;
- o'tkir asboblarni boshqalarga tutqich qismi bilan uzatish;
- bolg'a bilan ishlaganda barmoqlarni ehtiyot qilish.

Tikonchilik asboblari (igna, tikish mashinasi):

- ignani ishdan keyin maxsus qutiga solish;
- sinib ketgan ignani darhol o'qituvchiga xabar qilish;

- tikish mashinasida ishlaganda barmoqlarni ehtiyot qilish.

Elektr jihozlari bilan ishlash qoidalari;

-elektr jihozlarini faqat o'qituvchi nazoratida ishlatish;

- nam qo'l bilan elektr asboblari tegmaslik;

- simlar shikastlanmagan bo'lishi kerak;

-darsdan so'ng jihozlarni o'chirish.

Sanitariya-gigiena talablari quyidagicha:

1. Ishdan oldin va keyin qo'llarni yuvish.

2. Ish joyini toza saqlash.

3. Chang va chiqindilarni o'z vaqtida tozalash.

4. Shaxsiy.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish jarayonida baholash muhim didaktik bosqich hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchining bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari va shakllangan malakalari aniqlanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida baholash kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu talablar baholash tushunchasi va maqsadidan kelib chiqib, o'quvchining o'quv faoliyati natijalarini aniqlash va tahlil qilish jarayonidir.

Baholashning asosiy maqsadlari bilim darajasini aniqlash, amaliy ko'nikmalarni baholash, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, o'quvchini rag'batlantirish va o'qitish sifatini oshirishdan iborat.

O'quvchining nazariy bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- mavzuni tushunishi;
- asosiy tushunchalarni izohlay olishi;
- qoidalarni ayta olishi;
- texnologik jarayonni tushuntirib berishi.

Ko'nikmani baholash mezonlari

Ko'nikma — bu amaliy harakatni to'g'ri bajara olish qobiliyati.

Mezonlar:

- asboblardan to'g'ri foydalanish;
- ishni belgilangan tartibda bajarish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- ish vaqtidan samarali foydalanish.

Malakani baholash mezonlari

Malaka — avtomatlashgan va mustahkamlangan amaliy harakatdir.

Mezonlar:

- Mustaqil ishlay olish;
- Sifatli mahsulot yaratish;
- Ijodiy yondashuv;
- Xatolarni mustaqil to'g'rilay olish

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri baholash ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlaydi. Baholash faqat nazorat emas, balki rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi vosita hamdir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan baholash o'quvchining amaliy faoliyatga tayyorgarligini belgilaydi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Texnologiya o'qitish metodikasi fanining asosiy maqsadi nima?
2. Texnologiya ta'limining jamiyatdagi o'rni.
3. Boshlang'ich ta'limda texnologiya darslari qaysi yosh davrida o'tiladi?
4. Texnologiya o'qitish metodikasining nazariy asoslariga nimalar kiradi?.
5. O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish texnologiya darslarining qaysi vazifasiga kiradi?.
6. Boshlang'ich ta'limda texnologiya darslari qaysi yosh davrida o'tiladi?
7. Texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv nimani anglatadi.
8. O'qituvchi texnologiya darsida metodlarni tanlashda nimalarga e'tibor beradi?
9. Texnologiya darslarida o'quvchi faoliyatini baholashning samarali usuli qaysi?
10. Texnologiya fanining boshqa fanlardan asosiy farqi nimada?

2-MAVZU.BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNALOGIYA TA'LIMNING MAZMUNI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida texnologiya fanining o'rni va ahamiyati.
2. Texnologiya ta'limining normativ-huquqiy asoslari.
3. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni.
4. Texnologiya darslarini tashkil etish metodikasi.

5. Mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni.
6. Texnologiya ta’limining tarbiyaviy ahamiyati.
7. Zamonaviy yo‘nalishlar va rivojlanish istiqbollari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar; *amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish, texnik tafakkurni shakllantirish, milliy hunarmandchilik, kashtachilik, qog‘ozdan milliy naqshlar , yakka tartibda ishlash, juftlikda ishlash, guruhli ishlash, frontal ishlash davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, dasturlar, modernizatsiya, jamoada hamkorlik qilish , STEM.*

Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar qabul qilinayotgan qarorlar boshlang‘ich ta’lim mazmunini zamon talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan. Texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va mehnatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Texnologiya fani — o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantiradi, ijodiy fikrlashni, texnik tafakkurni shakllantirish, milliy hunarmandchilik an‘analariga qiziqish uyg‘otish va jamoada ishlash mas’uliyat hissini tarbiyalaydi.


I. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fani quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:



1.1. <i>Amaliy yo‘naltirilganligi</i> - texnologiya darslarida nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu esa o‘quvchilarda “qo‘l mehnati orqali o‘rganish” tamoyilini shakllantiradi

1.2. Boshqa fanlar bilan integratsiyasi - matematika (o'lchash, hisoblash). Ona tili (yo'riqnomalarni o'qish va tushunish). Tabiatshunoslik (tabiiy materiallardan foydalanish) kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi.

1.3. Shaxsiy sifatlarni rivojlantirish - texnologiya darslari orqali o'quvchilarda, sabr-toqat, e'tiborlilik, tozalik, tejamkorlik, mas'uliyat, kabi ijobiy sifatlar shakllanadi



II. Texnologiya fanining ahamiyati

2.1. Mehnat tarbiyasi - texnologiya fani bolada mehnatga muhabbat uyg'otadi. Mehnat qilish, yaratgan buyumidan zavqlanish hissi uning ichki motivatsiyasini oshiradi

2.2. Ijodkorlikni rivojlantirish - qo'l mehnati bilan bog'liq ishlar bolaning fantaziyasini boyitadi. Oddiy materialdan yangi buyum yaratish jarayoni ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

2.3. Kasbga yo'naltirish - boshlang'ich bosqichdayoq texnologiya fanining o'qitilishi kelgusida o'quvchining kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda texnik va amaliy sohalarga qiziqish shakllanadi.

2.4. Zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish - hozirgi ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Texnologiya fani: muammoni hal qilish, loyiha asosida ishlash, tanqidiy fikrlash, jamoada hamkorlik qilish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi

Texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik elementlarini o'rgatish orqali o'quvchilarda milliy g'urur va an'analarga hurmat shakllanadi. Masalan: kashtachilik, qog'ozdan milliy naqshlar yasash, milliy o'yinchoqlar tayyorlash, Bu jarayon milliy madaniyatni asrash va davom

ettirishga xizmat qiladi. Texnologiya fani boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim fanlardan biri hisoblanadi. U bolaning nafaqat amaliy ko'nikmalarini, balki shaxsiy sifatlari, ijodkorligi va mehnatga munosabatini shakllantiradi.

Shuning uchun texnologiya fanini samarali tashkil etish, zamonaviy metodlardan foydalanish va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida texnologiya ta'limi davlat ta'lim siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning mazmuni, maqsadi va vazifalari amaldagi qonunlar, davlat ta'lim standartlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi. Bu hujjatlar texnologiya fanining umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'rnini, o'qitish tamoyillarini va kutilgan natijalarni aniq belgilab beradi.

Ta'lim sohasining huquqiy poydevori — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyada har bir fuqaroning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Bu norma texnologiya ta'limini ham qamrab oladi va davlat tomonidan uning uzluksizligi hamda sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Texnologiya ta'limining asosiy huquqiy manbalaridan biri — Ta'lim to'g'risidagi Qonun hisoblanadi. Ushbu qonunda:

- ta'lim turlari va bosqichlari
- davlat ta'lim standartlari
- o'quv rejalari va dasturlar
- pedagog xodimlarning huquq va majburiyatlari belgilangan.

Qonunda ta'limning amaliy yo'naltirilganligi, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi ta'kidlangan bo'lib, bu texnologiya fanining mazmuniga to'liq mos keladi.

Texnologiya fanini o'qitish mazmuni va hajmi Davlat ta'lim standartlari orqali tartibga solinadi. DTSda:

- fanning maqsad va vazifalari
- o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar
- baholash mezonlari aniq belgilab qo'yilgan.

Bu standartlar texnologiya ta'limining yagona talablar asosida tashkil etilishini ta'minlaydi.

Texnologiya fani bo'yicha o'quv dasturlari va taqvim-mavzu rejalari vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturlari texnologiya fanining mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilashga xizmat qiladi.

Texnologiya ta'limi mamlakatning kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining bir qismi hisoblanadi. Bu borada Kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda:

- uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish
- amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash
- ta'lim mazmunini mehnat bozori talablariga moslashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar texnologiya ta'limini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda.

Ular:

- ta'lim mazmunini yangilash
- moddiy-texnika bazasini mustahkamlash
- zamonaviy o'quv laboratoriyalarini joriy etish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Texnologiya ta'limi mustahkam normativ-huquqiy bazaga ega. Uning mazmuni va tashkil etilishi Konstitutsiya, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Davlat ta'lim standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bu huquqiy asoslar texnologiya fanini zamonaviy talablar asosida o'qitish, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, ularda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu fan boshlag'ich ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning mazmuni davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida belgilanadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi quyidagi mazmuniy yo'nalishlarni qamrab oladi:

a) Qog‘oz va karton bilan ishlash (qog‘ozni buklash, qirqish, yopish, applikatsiyalar tayyorlash, oddiy maket va modellar yasash) bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mayda motorikasini va diqqatini rivojlantiradi.

b) Tabiiy materiallar bilan ishlash (barg, shoxcha, urug‘, tosh kabi materiallardan kompozitsiyalar tayyorlash, tabiat ne‘matlaridan tejamkor foydalanish) bu yo‘nalish tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi.

v) Mato va iplar bilan ishlash (oddiy tikish ishlari, ip bilan bezaklar tayyorlash, qo‘l mehnati orqali buyumlar yaratish) Bu jarayon o‘quvchilarda sabr-toqat va aniqlikni tarbiyalaydi.

g) Oddiy texnik modellashtirish (qog‘oz va boshqa materiallardan oddiy konstruksiyalar yasash, konstruktorlar bilan ishlash, oddiy mexanizmlar haqida tushuncha berish) bu yo‘nalish texnik tafakkurni rivojlantiradi.

e) Texnologiya darslarida o‘quvchilar (qaychi, igna va boshqa asboblardan to‘g‘ri foydalanish, ish joyini to‘g‘ri tashkil etish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish) kabi muhim bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limining mazmuni quyidagi xususiyatlarga ega:

- amaliy yo‘naltirilganlik;
- yosh xususiyatlariga moslik;
- ijodkorlikka asoslanganlik;
- boshqa fanlar bilan integratsiya.

Masalan, o‘lchash va hisoblash jarayonida matematika bilan, tabiiy materiallardan foydalanishda tabiatshunoslik bilan bog‘liqlik ta’minlanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Texnologiya fani orqali o‘quvchilarda:

- muammoni hal qilish;
- ijodiy fikrlash;
- loyiha asosida ishlash;
- jamoada hamkorlik qilish kabi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni o‘quvchilarni amaliy mehnat faoliyatiga tayyorlash, ularning ijodkorlik qobiliyatini

rivojlantirish va shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu fan o‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi va uning kelgusidagi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Texnologiya darslarini tashkil etish metodikasi darslarini samarali tashkil etish o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va mehnatga ongli munosabat tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya darslarining maqsadi o‘quvchilarda amaliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda, ijodkorlik va texnik tafakkurni rivojlantirish va mehnat madaniyatini tarbiyalash lozim.

Texnologiya darsining vazifalari, asbob-uskunalaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta’minlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishdir.

Texnologiya darsini tashkil etishda quyidagi to‘rt bosqichdan iborat:

Birinchi tayyorgarlik bosqichida, dars mavzusini aniq belgilash, kerakli material va asboblarni tayyorlash, ko‘rgazmali qurollarni ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqich kirish qismida, dars maqsadini bayon qilish, xavfsizlik qoidalarini tushuntirish va mavzuga qiziqtiruvchi savol yoki muammo qo‘yish.

Uchinchi bosqich asosiy qismi, ish jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirish, namuna ko‘rsatish, o‘quvchilarning mustaqil amaliy faoliyati

To‘rtinchi bosqich yakunlovchi qismi, tayyor ishlarni tahlil qilish, xatolarni muhokama qilish, baholash va rag‘batlantirish.

Texnologiya darslarida qo‘llaniladigan metodlar	
1. Tushuntirish va namoyish metodi (o‘qituvchi ish jarayonini ko‘rsatadi va izohlaydi).	3. Amaliy metod (o‘quvchilar mustaqil ravishda buyum yaratadilar) 4. Muammoli ta’lim metodi (o‘quvchilarga muammoli vaziyat berilib, uni hal qilish taklif etiladi).

2. Loyiha metodi (o‘quvchilar ma’lum bir loyiha asosida ish olib boradilar).	5. Interaktiv metodlar (guruhlarda ishlash,aqliy hujum, bahs-munozara)
--	---

Darsni tashkil etish shakllari (yakka tartibda ishlash, juftlikda ishlash, guruhli ishlash, frontal ishlash) bu shakllar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va dars mavzusiga qarab tanlanadi. Texnologiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarda amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va mehnatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qiladi. Samarali metod va shakllardan foydalanish orqali darsning natijadorligini oshirish mumk

Texnologiya ta’limining tarbiyaviy ahamiyati faqat bilim va ko‘nikmalar berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchining shaxsiy sifatlari va ijtimoiy tafakkurini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslari orqali o‘quvchilar mehnatsevarlik, mas’uliyat va ijodiy fikrlash kabi tarbiyaviy sifatlarga ega bo‘ladi.

Texnologiya darslari orqali o‘quvchilarda mehnatga munosabat tarbiyalanadi. Maqsadli va samarali faoliyatni bajarish orqali bo‘quvchil:

- mehnatsevarlikni o‘zlashtiradilar
- intizorlik va sabr-toqatni rivojlantiradilar
- o‘z ishlariga e’tiborli va mas’uliyatli bo‘lishni o‘rganadilar.

Ijodiy va texnik tafakkurni rivojlantirishda texnologiya darslari bo‘quvchilda fantaziya va texnik tafakkurni rivojlantiradi.

Mazkur jarayonda o‘quvchilar:

- yangi buyum va konstruksiyalar yaratadilar;
- muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladilar;
- texnik tushunchalar va qoidalarni o‘zlashtiradilar. Bu ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mustaqillik va intizomni shakllantirish texnologiya darslaridagi amaliy faoliyat o‘quvchilarda:

- mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini;
- ish jarayonini rejalashtirish qobiliyatini;

- intizom va qoidalarga rioya qilish odatini shakllantiradi. Bu xususiyatlar nafaqat darsda, balki hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Jamoda hamkorlik qilish guruhli va jamoaviy ishlar orqali o'quvchilarda hamkorlik qobiliyati rivojlanadi. Ular:

- bir-birini qo'llab-quvvatlaydilar;
- mas'uliyatni taqsimlaydilar;
- jamoda ishlashning qoidalarini o'rganadilar.

Milliy va madaniy qadriyatlarni uyg'otish texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik elementlarini qo'llash o'quvchilarda:

- milliy an'analarga hurmat;
- madaniy merosni asrab-avaylash tuyg'usi;
- milliy buyumlar va san'atga qiziqish kabi tarbiyaviy sifatlarni rivojlantiradi.

Texnologiya ta'limi boshlang'ich sinflarda faqat amaliy ko'nikmalarni o'rgatmaydi, balki o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. U mehnatsevarlik, ijodiy fikrlash, mustaqillik, jamoda hamkorlik va milliy qadriyatlarga hurmat kabi tarbiyaviy sifatlarni shakllantiradi. Shuning uchun texnologiya darslari tarbiyaviy jihatdan ham ta'lim jarayonining muhim qismidir.

Texnologiya ta'limi sohasi zamonaviy talablar va global tendensiyalar asosida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda faqat an'anaviy qo'l mehnati va ijodiy faoliyat bilan cheklanib qolmay, STEM (ilm, texnologiya, muhandislik va matematika) yondashuvlari, raqamli texnologiyalar va ekologiyaga yo'naltirilgan ta'lim ham integratsiyalanmoqda. Bu tendensiyalar boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini yanada zamonaviy va amaliyotga yo'naltirilgan qiladi.

STEM — fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalarini integratsiyalash orqali o'quvchilarda muammolarni hal qilish va texnik tafakkurni rivojlantirishni maqsad qiladi.

STEAM — STEMga san'at (Art)ni qo'shish orqali ijodiy fikrlash va estetik qarashni ham rivojlantiradi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Boshlang'ich texnologiya fani DTS mazmunini yoritib bering.
2. O'quv fani dasturi qanday hujjat va u qanday mazmunga ega?

3. O'quv dasturi mazmunini yoritishda qanday talablar qo'yilgan?
4. Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi qanday tashkil qilinadi?
5. Tabiat quchog'idagi mehnat turlari va ularni qanday tashkil qilish mumkin?
6. Qo'l mehnatining turlarini aytib bering.
7. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qaysi faoliyat turlari ko'proq qo'llaniladi?
8. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarining mazmunini belgilashda qaysi omil eng muhim hisoblanadi?
9. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qanday ko'nikmalar shakllanadi?
10. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni kim tomonidan belgilab beriladi?

3-MAVZU.BOSHLANG'ICH SINF TEXNALOGIYA DARSLARIGA KOMPETENSION YONDOSHUV

Reja:

1. Texnologiya darslarining ahamiyati va maqsadi.
2. Kompetension yondoshuvning ta'rifi. va asosiy prinsiplari.
3. Boshlang'ich sinfdagi texnologiya darslarida kompetensiyalarni rivojlantirishning o'rni.
4. Kompetensiya va uning tarkibiy qismlari (bilim, ko'nikma, ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati).
5. Texnologiya darslarida qanday kompetensiyalar rivojlantirilishi kerak.
6. Ijodiy va amaliy ko'nikmalarni oshirish.
7. Kompetension yondoshuvning asosiy prinsiplari. va amalga oshirish uchun darslarning tashkil etilishi..
8. Texnologiya darslarida kompetension yondoshuvni amaliyotda qo'llash. Keys-stadiyalar va misollar.

Tayanch tushunchalar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchini hayotga tayyorlash usuli, texnologik kompetensiya – mehnat qurollaridan foydalanish ko'nikmasi, amaliy faoliyat, kasbiy yo'naltirish, ijodkorlik, mustaqil fikr, muammoli vaziyat, loyihalash faoliyati, innovatsion yondashuv, mehnat madaniyati, hamkorlik kompetensiyasi,

axborot kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, estetik tarbiya, amaliy ko‘nikma, kreativ fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, natijaviy ta’lim.

Texnologiya darslarining ahamiyati boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslari o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu darslar orqali o‘quvchilar:

- qo‘l mehnati va turli materiallar bilan ishlashni o‘rganadilar;
- mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradilar;
- mehnatsevarlik, tartib-intizom va jamoda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar;
- kundalik hayotda zarur bo‘ladigan amaliy tajribaga ega bo‘ladilar.

Texnologiya darslari o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki u faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat orqali tajriba orttiradi. Bu esa kompetension yondoshuv talablariga to‘liq mos keladi.

Texnologiya fanining asosiy maqsadi — o‘quvchilarda amaliy faoliyat asosida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish:

- **amaliy kompetensiya** – turli materiallar (qog‘oz, mato, tabiiy materiallar va boshqalar) bilan ishlash ko‘nikmasi;
- **ijodiy kompetensiya** – yangi g‘oya yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyati;
- **kommunikativ kompetensiya** – guruhda ishlash va o‘zaro hamkorlik qilish;
- **mehnat madaniyati kompetensiyasi** – asbob-uskunalardan xavfsiz va samarali foydalanish.

Shuningdek, texnologiya darslari o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ilk bosqichi hisoblanadi. Unda o‘quvchilar turli kasblar haqida dastlabki tasavvurga ega bo‘ladilar va mehnatga hurmat ruhida tarbiyalanadilar. Texnologiya darslari boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan orqali bo‘quvchil bilimni amaliy faoliyatda qo‘llashni o‘rganadilar, bu esa kompetension ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kompetension yondoshuv — ta'lim jarayonini o'quvchining faqat bilim olishiga emas, balki olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotiy vaziyatlarda mustaqil va samarali qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltiruvchi ta'lim usulidir. An'anaviy ta'limda asosiy e'tibor bilim berishga qaratilgan bo'lsa, kompetension yondoshuvda esa natija — ya'ni o'quvchining amaliy faoliyatga tayyorligi asosiy mezon hisoblanadi.

Kompetension yondoshuv quyidagi 4 ta tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Bilim** — nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish;
2. **Ko'nikma** — amaliy harakatlarni bajara olish;
3. **Malaka** — ko'nikmalarni mustahkam va avtomatlashgan holda qo'llay olish;
4. **Qadriyat va munosabat** — faoliyatga mas'uliyatli yondashish.

Bu yondashuv o'quvchini tayyor ma'lumotni yodlashga emas, balki uni tahlil qilishga, mustaqil qaror qabul qilishga va muammoni hal qilishga o'rgatadi.

Kompetension yondoshuvning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- ta'lim natijasiga yo'naltirilganlik;
- amaliyot bilan bog'liqlik;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- faol va interaktiv usullardan foydalanish;
- muammoli vaziyatlar orqali o'qitish.

Bu yondoshuvlar o'quvchini hayotga tayyorlashga qaratilgan zamonaviy ta'lim modeli bo'lib, u bilimni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash va shaxsni har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ushbu yondashuv o'quvchilarda mehnatga tayyorgarlik, ijodkorlik va mustaqillikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetension yondoshuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muayyan prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar o'quvchining faolligi, mustaqilligi va amaliy tajribasini rivojlantirishga qaratilgan.

Natijaga yo'naltirilganlik prinsipi. Ta'lim jarayonining asosiy e'tibori o'quvchining qancha ma'lumot yodlaganiga emas, balki uni amalda

qo'llay olishiga qaratiladi. Ya'ni, dars yakunida o'quvchi muayyan amaliy vazifani mustaqil bajara olishi kerak.

Amaliyotga yo'naltirilganlik prinsipi. Bilim hayot bilan bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchilar nazariy ma'lumotni amaliy mashg'ulotlar, tajribalar va loyihalar orqali mustahkamlaydilar. Ayniqsa, texnologiya darslarida bu prinsip yetakchi o'rin tutadi.

Shaxsga yo'naltirilganlik prinsipi. Har bir o'quvchining yosh xususiyati, qobiliyati va qiziqishlari hisobga olinadi. O'qituvchi o'quvchini *"Sexrli qo'llar"* to'garagiga qo'yadi va uning individual rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Faollik va mustaqillik prinsipi. O'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi va mustaqil ishlaydi, fikr yuritadi, qaror qabul qiladi. Bu uning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim prinsipi. Darslarda muammoli vaziyatlar yaratiladi. O'quvchilar muammoni tahlil qiladilar, yechim topadilar va uni amalda sinab ko'radilar. Bu jarayon ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Integratsiya prinsipi. Ta'lim boshqa fanlar bilan bog'liq holda tashkil etiladi. Masalan, texnologiya darslarida matematika (o'lchash), tasviriy san'at (bezak berish), tabiatshunoslik (material xususiyatlari) bilan bog'liqlik ta'minlanadi.

Kompetension yondoshuvning ushbu prinsiplari ta'limni mazmunan boyitadi va uni amaliy hayotga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida bu prinsiplarga tayanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkam shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslari o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Chunki ushbu fan nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyatga asoslanadi va o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy kompetensiyalarni shakllantirish



Texnologiya darslarida o'quvchilar turli materiallar (qog'oz, karton, mato, tabiiy va chiqindilardan tayyorlangan materiallar) bilan ishlashni o'rganadilar.

Bu orqali ular:

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Dars jarayonida o'quvchilar yangi g'oya o'ylab topadilar, buyumlarga bezak beradilar, muammoli vaziyatlarga yechim topadilar. Bu esa ularda ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish

Guruhli ishlar va jamoaviy loyihalar orqali o'quvchilar:

- bir-birini tinglash;
- o'z fikrini bayon qilish;

hamkorlikda qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Mehnat madaniyatini shakllantirish

Texnologiya darslari orqali o'quvchilarda:

Mehnatsevarlik;

Tozalik va tartibga rioya qilish;

Xavfsizlik qoidalariga amal qilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

Bu esa shaxsning mas'uliyatli va intizomli bo'lib shakllanishiga



Hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish

O'quvchilar oddiy hayotiy vazifalarni bajarishga tayyorlanadilar: buyum yaratish, ta'mirlash, tejamkorlik, resurslardan oqilona foydalanish. Bu ularni mustaqil hayotga bosqichma-bosqich tayyorlaydi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslari kompetensiyalarni rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Ushbu fan orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki uni amalda qo'llash, ijod qilish va jamoada ishlashni o'rganadilar.

Bu esa kompetensiyalar ta'limning asosiy maqsadi hayotga tayyor, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Kompetensiya tushunchasi bu shaxsning muayyan sohada samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ularni amalda qo'llay olish qobiliyatining uyg'un birligi hisoblanadi. Ya'ni, kompetensiya bu faqat ma'lumotga ega bo'lish emas, balki uni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri va maqsadga muvofiq ishlata olishdir.

Kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri bilim ko'nikma va qobiliyat.

Bilim — bu nazariy ma'lumotlar, tushunchalar va qoidalarni bilishdir. Masalan, texnologiya darsida (asbob-uskunalar nomini bilish, materiallarning xususiyatlarini tushunish, ish bajarish ketma-ketligini anglash). Bilim kompetensiyaning asosi hisoblanadi, lekin u yetarli emas.

Ko'nikma — bu bilim asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish qobiliyati. Masalan (qog'ozni to'g'ri kesish, igna-ip bilan ishlash, o'lchash va belgilash ishlarini amalga oshirish). Ko'nikma mashq orqali shakllanadi va mustahkamlanadi.

Ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati (malaka) bu — egallangan bilim va ko'nikmalarni turli sharoitlarda mustaqil va samarali qo'llay olishdir. (masalan berilgan namuna asosida yangi buyum yaratish, muammoli vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish, ish jarayonini rejalashtirish va

nazorat qilish). Bu bosqichda o'quvchi faqat bajarmaydi, balki tahlil qiladi, tanlaydi va ijod qiladi.

Kompetensiya — bilim, ko'nikma va ularni qo'llash qobiliyatining o'zaro bog'liq tizimidir. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ushbu uch komponentni uyg'un rivojlantirish orqali o'quvchilarda hayotiy va amaliy kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu esa ularni mustaqil, ijodkor va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslari o'quvchilarda nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishi kerak.

Quyida asosiy rivojlantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalar keltiriladi:

1. Amaliy-texnologik kompetensiya:

- turli materiallar bilan ishlash (qog'oz, mato, tabiiy materiallar va h.k.);
- asbob-uskunalaridan xavfsiz va to'g'ri foydalanish;
- ish jarayonini rejalashtirish va natijaga erishish.

Bu kompetensiya texnologiya fanining asosini tashkil etadi.

2. Ijodiy kompetensiya.

- yangi g'oyalar ishlab chiqish;
- buyumlarni bezatish va dizayn yaratish;
- muammoga noan'anaviy yechim topish.

Bu o'quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

3. Kommunikativ kompetensiya.

- jamoada ishlash;
- o'z fikrini erkin bayon qilish;
- boshqalar fikrini hurmat qilish;

- hamkorlikda qaror qabul qilish.

Guruhli ishlar va loyihalar orqali bu kompetensiya samarali shakllanadi.

4. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi.

- oddiy axborotni izlash va saralash;
- chizmalar, sxema va namuna asosida ishlash;
- texnologik ketma-ketlikni tushunish.

Bu kompetensiya o'quvchilarni axborotli jamiyat sharoitiga moslashtiradi.

5. Muammoni hal qilish kompetensiyasi.

- vaziyatni tahlil qilish;
- qiyinchiliklarga yechim topish;
- xatolarni aniqlash va tuzatish.

Bu hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Mehnat madaniyati va shaxsiy mas'uliyat kompetensiyasi.

- tozalik va tartibga rioya qilish;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- xavfsizlik qoidalariga amal qilish;
- bajarilgan ish uchun mas'uliyatni his qilish.

Texnologiya darslari orqali rivojlantiriladigan kompetensiyalar o'quvchini faqat buyum yarata oladigan emas, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va jamoada ishlay oladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, darslarni rejalashtirishda ushbu kompetensiyalarni maqsadli ravishda shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ijodiy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kompetensiyasi ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu fan o'quvchining qo'l mehnati, tafakkuri va tasavvurini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Ijodiy ko'nikmalarni oshirish yo'llaridan biri ***erkin ijodiy topshiriqlar*** berishda O'quvchilarga namuna asosida emas, balki mustaqil g'oya asosida buyum yaratish imkonini berish kerak. Masalan: tabiiy materiallardan kompozitsiya yaratish, qog'ozdan yangi dizaynda o'yinchoq yasash. Bu o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi.

Muammoli vaziyatlar yaratish "Qanday qilib mustahkam ko'priklar yasash mumkin?" kabi savollar orqali o'quvchilarni fikrlashga undash ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Loyiha usulidan foydalanish Kichik loyihalar (masalan, "Mening orzu uyim", "Eko-sumka tayyorlash") o'quvchining rejalashtirish, yaratish va taqdim etish qobiliyatini oshiradi.

Beshta amaliy ko'nikmalarni oshirish yo'llari.

Birinchi ko'p marta takroriy mashqlardan qaychi bilan kesish, o'lchash, belgilash, yopishtirish kabi amallar muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

Ikkinchi bosqichma-bosqich ko'rsatma berishda ish jarayonini ketma-ketlik asosida tushuntirish va namoyish qilish amaliy harakatlarni to'g'ri bajarishga yordam beradi.

Uchinchi mustaqil ishlashga sharoit yaratishda o'quvchi o'zi rejalashtirib, o'zi bajarganda amaliy tajriba kuchayadi va ishonch ortib boradi.

To'rtinchidan xatolar ustida ishlash vaqtida bajarilgan ishni tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlash orqali malaka yanada mustahkamlanadi.

Beshinchidan natija bo'lish uchun ijodiy va amaliy ko'nikmalarni oshirish orqali o'quvchilarga, mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topa oladigan, qo'l mehnatiga mohir va ijodkor shaxs sifatida shakllanadilar.

Texnologiya darslarida ijodiy va amaliy ko'nikmalarni uyg'un ravishda rivojlantirish o'quvchining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Bu jarayon kompetension yondoshuvning asosiy talablariga mos bo'lib, bolani hayotga tayyorlashga qaratilgan.

Kompetension yondoshuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi. Ushbu prinsiplar o'quvchining faolligi, mustaqilligi va amaliy tajribasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijaga yo'naltirilganlik prinsipi ta'lim jarayoni bilim berishga emas, balki aniq natijaga — ya'ni shakllangan kompetensiyaga qaratilgan bo'ladi. O'quvchi dars yakunida nimani bilishi emas, nimani bajara olishi muhim hisoblanadi.

Amaliyotga yo'naltirilganlik prinsipi bilim amaliyot bilan bog'liq holda beriladi.

O'quvchilar nazariy ma'lumotni amaliy mashg'ulot, tajriba va loyihalar orqali mustahkamlaydilar.

Shaxsga yo'naltirilganlik prinsipi har bir o'quvchining yosh xususiyati, qobiliyati va qiziqishi inobatga olinadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi markaziy o'rinni egallaydi.

Faollik va mustaqillik prinsipi o'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi mustaqil fikrlaydi, , qaror qabul qiladi, muammoni hal qiladi. Bu prinsip ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim prinsipi darslarda muammoli vaziyatlar yaratiladi. O'quvchilar tahlil qiladilar, yechim izlaydilar va natijani amalda sinab ko'radilar.

Integratsiya prinsipi fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi. Texnologiya darsida matematika (o'lchash), tasviriy san'at (dizayn), tabiatshunoslik (material xususiyatlari) bilan uyg'unlik yaratiladi.

Refleksiya va baholash prinsipi o'quvchilar bajarilgan ishni tahlil qiladilar, o'z-o'zini baholaydilar va xulosa chiqaradilar. Bu ularda mas'uliyat va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Kompetension yondoshuvning ushbu prinsiplari ta'limni hayot bilan bog'laydi va o'quvchini mustaqil faoliyatga tayyorlaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ushbu prinsiplarga tayanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkam shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetension yondoshuv asosida tashkil etilgan dars o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashi, bilimni amaliyot bilan bog'lashi va aniq natijaga qaratilgan bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida darsni quyidagi tartibda tashkil etish maqsadga muvofiq:

Dars maqsadini kompetensiya asosida belgilash

Dars rejasida:

1. Qanday bilim beriladi?
2. Qanday ko'nikma shakllantiriladi?
3. O'quvchi dars yakunida nimani bajara olishi kerak? kabi savollarga aniq javob bo'lishi lozim.

Muammoli vaziyat yaratish (Motivatsiya bosqichi)

Dars boshida qiziqtiruvchi savol yoki amaliy muammo qo'yiladi.

Masalan muhokama savollar beramiz: "Qanday qilib qog'ozdan mustahkam quti yasash mumkin?" Bunda o'quvchini faol fikrlashga undaydi.

Yangi bilimni o'zlashtirish:

- ko'rgazmali vositalardan foydalanish;
- namoyish qilish;
- qisqa va aniq tushuntirish. bu bosqichda nazariy ma'lumot darhol amaliyot bilan bog'lanishi kerak.

Amaliy faoliyatni tashkil etish bu kompetension darsning asosiy qismi hisoblanadi o'quvchilar:

- guruhda yoki mustaqil ishlaydilar;
- loyiha yoki amaliy topshiriq bajaradilar;
- ish jarayonini rejalashtiradilar. O'qituvchi maslahatchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Nazorat va qo'llab-quvvatlash ish jarayonini kuzatish, qiyinchiliklarga yordam berish va xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.

Refleksiya, baholashda va dars yakunida, bajarilgan ishlar tahlil qilinadi, o‘quvchilar o‘z ishlarini baholaydilar va xulosa chiqariladi. Baholash faqat natijaga emas, balki jarayonga ham qaratilgan bo‘lishi kerak.

Uyga vazifa (ijodiy xarakterda) mustaqil ijodiy topshiriq berish maqsadga muvofiq:

- yangi dizayn o‘ylab topish;
- oila a‘zolari bilan birgalikda kichik amaliy ish bajarish.

Kompetension yondoshuvni amalga oshirish uchun darslar aniq maqsadli, amaliyotga yo‘naltirilgan va o‘quvchi faolligiga asoslangan holda tashkil etilishi zarur. Ayniqsa, texnologiya darslarida amaliy faoliyat markaziy o‘rinni egallashi kerak. Shundagina o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka uyg‘un ravishda shakllanadi.

Kompetension yondoshuvni texnologiya darslarida samarali qo‘llash uchun nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, bo‘quvchilni faollikka undash va ularning mustaqillik qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Buning uchun keys-stadiyalar va amaliy misollardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Kompetension yondoshuvni amaliyotda qo‘llash yo‘llari to‘rtta

Birinchi loyihali faoliyat (Project-Based Learning):

- a) O‘quvchilar hayotiy muammoga yechim topish uchun mini-loyihalar ustida ishlaydilar.
- b) Masalan: “Mening orzu uyim” loyihasi orqali o‘quvchi: chizmalar tuzadi, materiallarni tanlaydi va tayyor buyum yaratadi.
- v) Bu jarayonda amaliy-texnologik, ijodiy va muammoni hal qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Ikkinchi guruhli va hamkorlikdagi ishlar:

- a) O‘quvchilar guruhda vazifalarni taqsimlab bajaradilar.
- b) Masalan: qag‘ozdan ekologik sumka yasash — bir guruh dizayn bilan shug‘ullanadi, boshqa guruh kesish va bog‘lash ishlarini bajaradi.
- v) Bu orqali kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalari rivojlanadi.

Uchinchi amaliyot va tajriba usuli:

- a) O‘quvchilar turli materiallar va asboblarni bilan mustaqil ishlaydilar.
- b) Masalan: qog‘oz va kartondan mini-qutiqlar tayyorlash.

v) Har bir qadamda nazorat va maslahat orqali amaliy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

To‘rtinchidan muammoli vaziyatlar yaratish:

a) Masalan: “Qanday qilib mustahkam ko‘prik yasash mumkin?”

b) O‘quvchilar turli yechim variantlarini sinab ko‘radilar va eng samarali usulni tanlaydilar.

v) Bu ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

Keys-stadiyalar va misollar

Keys nomi	Topshiriq mazmuni	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
“Eko-sumka tayyorlash”	Tabiiy va qayta ishlanadigan materiallardan sumka yasash	Amaliy-texnologik, ijodiy, muammoni hal qilish, hamkorlik
“Mening mini-bog‘im”	Qutilardan kichik gulzor yaratish va uni bezatish	Ijodiy, amaliyot, muhit bilan bog‘liq bilimlar, mas’uliyat
Qog‘ozdan robot yasash”	Qog‘oz va kartondan harakatlanadigan robot tayyorlash	Amaliy-texnologik, muammoni hal qilish, tahlil qobiliyati
“Qog‘oz ko‘prigi”	Berilgan materialdan mustahkam ko‘prik yasash	Amaliy-texnologik, ijodiy, tahlil va sinash qobiliyatlari

Kompetension yondashuvni texnologiya darslarida amalga oshirishda keys-stadiyalar va misollar orqali amaliy, ijodiy va muammoni hal qilish qobiliyatlari bir vaqtning o‘zida rivojlantiriladi. Bu o‘quvchilar mustaqil, faol va hayotiy kompetensiyalarga ega shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Kompetensiyaviy yondashuv deganda nima tushuniladi?
2. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvning maqsadi nima?

3. Texnologiya fanida tayanch kompetensiyalar qanday shakllantiriladi?
4. O'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati qanday?
5. Texnologiya darslarida kommunikativ kompetensiya qanday rivojlantiriladi?
6. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darsning an'anaviy darsdan farqi nimada?
7. Texnologiya darslarida ijodkorlik va mustaqil fikrlash qanday shakllantiriladi?
8. O'quvchilarning mehnat madaniyatini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'rnini qanday?
9. Texnologiya fanida loyiha asosida ishlash qanday kompetensiyalarni rivojlantiradi?
10. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida baholash jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida qanday amalga oshiriladi?
11. Boshlang'ich sinflarda texnologiya kursi tuzilishining o'ziga xos mazmunini misollar asosida izohlang.
12. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv nimaning anglatadi?
13. Kompetensiya tushunchasi qaysi davlat ta'lim hujjatlarida mustahkamlangan?
14. Texnologiya darslarida kompetensiyani shakllantirish qaysi faoliyat orqali amalga oshiriladi?

4-mavzu. Texnologiya ta'limining shakli va metodlari

Reja:

1. Texnologiya ta'limi haqida umumiy tushuncha.
2. Texnologiya ta'limining shakllari.
3. Texnologiya ta'limining metodlari.
4. Texnologiya ta'limida innovatsion yondashuvlar.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: ta'lim shakli, ta'lim metodi, dars, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, mustaqil ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha usuli, muammoli ta'lim, klaster, aqliy hujum

Texnologiya ta'limi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, texnika va ishlab chiqarish jarayonlari haqida nazariy hamda amaliy bilim berishga qaratilgan ta'lim yo'nalishidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarda texnologiya fani o'quvchilarni turli materiallarga ishlov berish, maishiy xizmat asoslari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish orqali hayotga tayyorlaydi. Texnologiya fani o'quvchilarning texnik tafakkurini, mustaqil ishlash qobiliyatini va mehnat madaniyatini rivojlantiradi.

Texnologiya ta'limining asosiy maqsadi — o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Aniqroq qilib aytganda, texnologiya ta'limi quyidagilarga xizmat qiladi, o'quvchilarda mehnatsevarlik va mas'uliyat hissini tarbiyalash, turli materiallar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar haqida bilim berish, kasbga yo'naltirish va kasbiy qiziqishni rivojlantirish va ijodkorlik va konstruktiv fikrlashni rivojlantirishdan iborat.

TEXNOLOGIYA TA'LIMI OLDIDA QUYIDAGI VAZIFALAR TURADI

Ta'limiy vazifalarda nazariy bilim berish (ishlab chiqarish, asbob-uskunalar, texnologiyalar haqida), amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va texnik atamalarni o'rgatish

Tarbiyaviy vazifalarda mehnat madaniyatini shakllantirish, tozalik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rgatish, jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirish



Rivojlantiruvchi vazifalarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish

Texnologiya ta'limi umumiy ta'lim tizimida alohida o'ringa ega. U faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **hayotga tayyorlash** — o'quvchilar kundalik hayotda kerak bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni egallaydilar;
- **kasbga yo'naltirish** — turli sohalar bilan tanishish orqali kelajak kasbini tanlashga yordam beradi;
- **texnik tafakkurni rivojlantirish** — konstruktiv fikrlash va tahlil qilish qobiliyati shakllanadi;
- **mehnat tarbiyasi** — mehnatga hurmat va mas'uliyat hissi kuchayadi;
- **kompetensiyalarni shakllantirish** — bilimni amalda qo'llash ko'nikmasi rivojlanadi.

Texnologiya ta'limi o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim fan hisoblanadi. U nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, kasbga yo'naltiradi va yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlaydi. Shu sababli texnologiya ta'limini samarali tashkil etish va zamonaviy usullarda o'qitish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, texnik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois texnologiya fanini o'qitishda turli tashkiliy shakllardan samarali foydalanish muhimdir.

Ta'limni tashkil etish shakli — bu o'quv jarayonini ma'lum vaqt, joy va tartib asosida tashkil etish usulidir. Texnologiya ta'limida an'anaviy dars shakli bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ta'lim va sinfdan tashqari ishlar keng qo'llaniladi.

An'anaviy dars — belgilangan jadval asosida sinf sharoitida o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan asosiy ta'lim shaklidir. U texnologiya ta'limida nazariy va amaliy bilimlarni tizimli ravishda yetkazishga xizmat qiladi.

An'anaviy dars odatda quyidagi besh bosqichlardan iborat bo'ladi:

- *birinchi bosqich tashkiliy qism;*
- *ikkinchi bosqich o'tilgan mavzuni takrorlash;*
 - *uchinchi bosqich yangi mavzuni bayon qilish;*
 - *to'rtinchi bosqich mustahkamlash;*
 - *beshinchi bosqich yakunlash va baholash.*

Texnologiya darslarida yangi mavzu tushuntirilgandan so'ng, odatda amaliy ish bajariladi.

An'anaviy darsning afzalliklari, tizimlilik va izchillik ta'minlanadi, o'qituvchi tomonidan nazorat oson, nazariy bilimlar aniq reja asosida beriladi.

Kamchiliklari o'quvchilar faolligi ba'zan cheklanishi mumkin. Bir xillik qiziqishni pasaytirishi ehtimoli bor. Shuning uchun an'anaviy darsni interfaol usullar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Texnologiya fanining asosiy qismi amaliy faoliyatga qaratilgan. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar rangli qag'oz bilan ishlaydilar, plastilin bilan ishlashni o'rganadilar, tikuvchilik va pazandachilik ishlarini bajaradilar, turli mahsulotlar tayyorlaydilar.

Amaliy mashg'ulotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- xavfsizlik qoidalarini tushuntirish;
- asbob-uskunalar bilan tanishtirish;
- ish jarayonini ko'rsatish;
- mustaqil bajarish;
- tayyor mahsulotni baholash.

Amaliy mashg'ulotning ahamiyatida qo'l mehnati ko'nikmalari shakllanadi, mehnat intizomi rivojlanadi, ijodkorlik va aniqlik oshadi, kasbga qiziqish uyg'onadi. Amaliy mashg'ulotlar "o'rganish orqali bajarish" tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Laboratoriya ishlarining maqsadi nazariy bilimni amalda tekshirish, o'lchash va hisoblash ko'nikmasini shakllantirish, tahlil va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Afzalliklari, ilmiy fikrlashni rivojlantiradi, tajriba orqali bilimni mustahkamlaydi, aniqlik va intizom talab qiladi.

Laboratoriya ishlarini baholash mezonlari quyidagicha:

- ishning to'g'ri bajarilishi;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi;
- xulosa chiqarish darajasi.

Mustaqil ta'lim - o'quvchining o'qituvchi ko'rsatmasi asosida yoki mustaqil ravishda topshiriq bajarishi jarayonida uy vazifani, ijodiy ishlarni, loyiha ishlari va taqdimot va referatlar bajaradi. Mustaqil ta'lim ahamiyatida o'quvchida mustaqil fikrlash rivojlanadi, izlanish qobiliyati oshadi, mas'uliyat shakllanadi va vaqtni to'g'ri taqsimlash o'rganiladi. Mustaqil ta'lim o'quvchini o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlaydi.

Sinf dan tashqari ishlar darsdan tashqari vaqtda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlardir. Texnologiya to'garaklari o'quvchilarning qiziqishi asosida tashkil etiladi.

Masalan:” Sexrli qo'llar “ to'garagining **Maqsad:** to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni kasbiga yo'naltirish, ushbu kasbga qiziqqlarini uyg'otishda ijodiy izlanishlar tizimiga yo'llash. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazishlariga, kasbiy faoliyatga yo'llashga, ma'naviy – ilmiy salohiyatini oshirishda imkoniyat yaratish.

To'garak vazifasi: “Sexrli qo'llar” to'garagining asosiy vazifasi o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarni kasbiy fanlarini o'rganishga qiziqtirish va ilmiy faoliyat elementlarini o'rgatishdan iborat. Mashg'ulot oflayin oqali o'tkaziladi. O'quvchilar tayyorlagan mahsulotlar ko'rgazmalar va tanlovlarda namoyish etiladi. Bu ularni rag'batlantiradi.

Ekskursiyalar ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar o'quvchilarning kasb haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Ekskursiyaning ahamiyati iqtidorli o'quvchilar aniqlanadi, jamoaviy ishlash ko'nikmasi shakllanadi, qiziqish va ijodkorlik rivojlanadi.

Texnologiya ta'limining shakllari — an'anaviy dars, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ta'lim va sinfdan tashqari ishlar — o'zaro uyg'un holda qo'llanilganda yuqori samara beradi. An'anaviy dars nazariy bilim berishga xizmat qilsa, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bilimni mustahkamlaydi. Mustaqil ta'lim va to'g'arak ishlari esa o'quvchilarning ijodiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli texnologiya ta'limida turli shakllarni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qitish metodlarini takomillashtirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, texnologiya ta'limi kabi amaliy yo'nalishga ega fanlarda metod tanlash o'quv jarayoni samaradorligini belgilaydi.

Metod — bu ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik faoliyati usulidir. Texnologiya ta'limida metodlar nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metod tushunchasi va uning didaktikadagi pedagogik metod - ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida qaraladi va metod quyidagi tarkibiy qismlardan maqsad, mazmun, usul, vosita, natija iborat. Texnologiya ta'limida metod tanlashda quyidagi o'quvchilar yoshi, mavzu mazmuni, amaliy faoliyat xususiyati, moddiy-texnik baza va omillar hisobga olinadi:

Texnologiya ta'limida metodlar shartli ravishda quyidagi og'zaki metodlar, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, interfaol metodlar, loyiha va muammoli ta'lim metodlar guruhlariga ajratiladi:

OG'ZAKI METODLAR AXBOROTNI NUTQ ORQALI YETKAZISHGA ASOSLANADI



Tushuntirish metodi - yangi bilimni mantiqiy izchillikda bayon qilish jarayonidir. Texnologiya darslarida: ish jarayoni bosqichlari, asbob-uskunalar tuzilishi, xavfsizlik qoidalari tushuntiriladi. Ilmiy jihatdan, tushuntirish kognitiv jarayonlarni faollashtiradi va nazariy baza yaratadi.

Suhbat metod - savol-javob asosida amalga oshiriladi. U reproduktiv va evristik turlarga bo'linadi. Ahamiyati mantiqiy fikrlash rivojlanadi, o'quvchi faol sub'ektga aylanadi

Ma'ruza metod - murakkab nazariy materialni tizimli bayon qilish shakli. Yuqori sinflarda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Afzalliklari vaqt tejraladi, keng hajmdagi axborot beriladi

**KO'RGAZMALI METODLAR VIZUAL QABUL
QILISH ORQALI BILIMNI
MUSTAHKAMLAYDI**

Namoyish metodi - o'qituvchi amaliy harakatlarni bevosita ko'rsatadi. Masalan: rangli qag'ozni kesish usuli, yengil havo plastilindan va kartonlardan foydalanish kabi metod psixomotor ko'nikmalarni shakllantiradi.

Prezentatsiya metodida - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Slayd, sxema va videolar orqali ma'lumot beriladi. Ilmiy nuqtai nazardan, vizual material xotirada uzoq saqlanadi va idrokni kuchaytiradi

**AMALIY METODLAR TEXNOLOGIYA
TA'LIMNING ASOSIY YO'NALISHINI
TASHKIL ETADI**

Mashq metodi-takrorlash orqali ko'nikma qilish jarayonidir. Mashq metodida oddiydan murakkabga, nazariydan amaliyga, tamoyili asosida tashkil etiladi.

Laboratoriya ishlari - eksperimental faoliyatga asoslanadi. Besh bosqichdan iborat: 1. Maqsadni belgilash. 2. Asboblarni tayyorlash. 3. Tajriba o'tkazish. 4. Natijani tahlil qilish. 5. Xulosa chiqarish. Bu metod ilmiy fikrlashni shakllantiradi.

INTERFAOL METODLAR HAMKORLIK VA FAOL ISHTIROKKA ASOSLANADI.

Aqliy hujum - Muammo yuzasidan ko'plab g'oyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Pedagogik ahamiyatida ijodkorlikni rivojlantiradi, erkin fikrlashni ta'minlaydi

Klaster – soyalarni grafik tarzda tizimlashtirish usuli. Natijada tahlil ko'nikmasi shakllanadi va mavzu yaxlit tushtniladi.

Loyiha metodi - kompetensiyaviy yondashuvga mos bo'lib, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb etadi. Bosqichlarida muammoni aniqlash, rejalashtirish, amalga oshirish, taqdimot va himoya. Ahamiyati: kasbiy ko'nikmalar shakllanadi.

- jamoaviy ishlash rivojlanadi
- kasbiy ko'nikmalar shakllanadi
- jamoaviy ishlash rivojlanadi

Muammoli ta'lim - muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchilarni izlanishga undaydi. Afzalliklari: tanqidiy fikrlash rivojlanadi va mustaqil qaror qabul qilish shakllanadi

Texnologiya ta'limida metodlarning xilma-xilligi ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir. Og'zaki metodlar nazariy asos yaratsa, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilimni mustahkamlaydi. Interfaol, loyiha va muammoli ta'lim metodlari esa o'quvchilarning ijodkorlik, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Metodlarni uyg'un va maqsadli qo'llash orqali texnologiya ta'limi o'quvchilarni hayotga, mehnat faoliyatiga va kasb tanlashga samarali tayyorlaydi.

“Innovatsiya” atamasi yangilik kiritish, yangicha yondashuvni amalga oshirish ma'nosini anglatadi. Pedagogikada innovatsiya - ta'lim jarayoniga yangi metod, vosita va texnologiyalarni tatbiq etish orqali uning samaradorligini oshirishdir.

Texnologiya ta'limida innovatsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi raqamli vositalardan foydalanish, interaktiv metodlarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari bilan integratsiya. Innovatsion yondoshuvning maqsadi texnologiya ta'limi sifatini oshirish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish.

Innovatsion yondoshuvning vazifalari ta'lim jarayonini raqamlashtirish, amaliy ko'nikmalarni kuchaytirish, mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot asri sifatida ta'riflanmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa — zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, texnologiya ta'limi ushbu vazifani amalga oshirishda muhim o'rin tutadi, chunki u o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, texnika va ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) — axborotni yaratish, qayta ishlash va uzatishga xizmat qiluvchi raqamli vositalar

majmuasidir. Zamonaviy ta'lim jarayonida AKT o'quv axborotini samarali yetkazish imkonini beradi. Texnologiya darslarida aktni qo'llash yo'nalishlari multimedia prezentatsiyalar, elektron darsliklar, videodarslar, onlayn platformalar, 3d modellashtirish va dizayn dasturlari va virtual laboratoriyalar. AKTning pedagogik afzalliklari, Ko'rgazmalilik darajasini oshiradi, O'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi individual ta'lim imkoniyatini yaratadi, raqamli kompetensiyalarni shakllantiradi. AKTdan foydalanish natijasida o'quvchilar zamonaviy ishlab chiqarish muhitiga moslasha oladi.

Kompetensiya tushunchasi - muayyan sohada bilim, ko'nikma va tajribani samarali qo'llash qobiliyatidir. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini amaliy faoliyatga tayyorlik bilan belgilaydi. Texnologiya ta'limida shakllanadigan kompetensiyalar mehnat kompetensiyasi, texnik kompetensiya, axborot kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, ijodiy kompetensiya. Kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari Bilim va amaliy faoliyat uyg'unligi ta'minlanadi, kasbga yo'naltirish kuchayadi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar biri muammoli ta'lim texnologiyasi vaziyatni yaratish orqali o'quvchilarni izlanishga undaydi va tanqidiy fikrlash rivojlanadi hamda muammoni hal qilish ko'nikmasi shakllanadi.

Loyiha texnologiyasi usulida o'quvchilar muayyan mahsulot yaratish jarayonida ishtirok etadi. Loyixa texnologiya bosqichida muammoni aniqlash, rejalashtirish, amalga oshirish va taqdimot olib boradi.

Modulli ta'lim texnologiyasi o'quv materialini mustaqil modullarga ajratish orqali bosqichma-bosqich o'qitish amalga oshiriladi.

Interfaol texnologiyalar "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB" bu texnologiyalar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Innovatsion yondashuvlarni joriy etish shartlari moddiy-texnik bazani mustahkamlash, o'qituvchilar malakasini oshirish, raqamli resurslar yaratish va o'quvchilarning faolligini qo'llab-quvvatlash. Texnologiya ta'limida innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'lim mazmuni va metodlarini zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dars samaradorligini oshiradi,

kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi natijasida o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va kasbiy ko'nikmalar shakllanadi. Shu sababli texnologiya ta'limida innovatsion yondashuvlarni tizimli va ilmiy asosda joriy etish zarur.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Texnologiya ta'limining shakllari deganda nima tushuniladi?
2. Texnologiya darslarida qanday o'qitish metodlari qo'llaniladi?
3. Amaliy mashg'ulot metodining ahamiyati nimada?
4. Texnologiya ta'limida ko'rgazmali metodlardan foydalanish qanday natija beradi?
5. Individual va guruhli ishlash shakllarining farqi nimada?
6. Texnologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari qanday?
7. Loyiha metodi texnologiya ta'limida qanday qo'llaniladi?
8. Texnologiya darslarida suhbat va tushuntirish metodlarining o'rni qanday?
9. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda qaysi metodlar samarali hisoblanadi?
10. Texnologiya ta'limida dars shakli va metodlarini tanlashda nimalarga e'tibor beriladi?
11. Texnologiya ta'limida metod tanlashda asosiy mezon nima?
12. Amaliy metod deganda nima tushuniladi?
13. Texnologiya ta'limida ko'rgazmali metod qanday rol o'ynaydi?
14. Texnologiya darsida "loyiha metodi"ning asosiy maqsadi nima?
15. Texnologiya darslarida metodlarni tanlashda qaysi prinsip yetakchi hisoblanadi?
16. Texnologiya darsida "integratsion metod"ning mohiyati nimada?

5-mavzu. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi va kasb hunar turlari

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi tushunchasi va uning ahamiyati.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.
3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari.
4. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan kasb-hunar turlari va ular bilan tanishtirish usullari.
5. Mehnat darslari orqali o'quvchilarda kasbga qiziqishni shakllantirish.
6. Mehnat tarbiyasida o'qituvchi va ota-onaning hamkorligi.
7. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasining o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi roli.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: mehnat tarbiyasi, boshlang'ich ta'lim, kasb-hunar, mehnatsevarlik, mehnat ko'nikmalari, amaliy faoliyat, o'quvchilar tarbiyasi, mehnat darslari, kasbga yo'naltirish, mehnat madaniyati, mehnatga hurmat, kasb tanlash, ijtimoiy foydali mehnat, qo'l mehnati, mustaqil faoliyat, jamoada ishlash, mas'uliyat, intizom, o'quv jarayoni, tarbiyaviy jarayon, o'quvchilarning qiziqishi, kasbiy ko'nikma, amaliy mashg'ulotlar, ijodkorlik, hunarmandchilik, mehnat faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogik yondashuv, kasb bilan tanishtirish, mehnatga o'rgatish.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda texnologiya darslarida mehnatga munosabat, mehnatsevarlik, tartib-intizom va mas'uliyat kabi muhim sifatlar shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimida mehnat tarbiyasi alohida o'rin egallaydi.

Texnologiya fani darslarida mehnat tarbiyasi — bu o'quvchilarda mehnatga hurmat, mehnatsevarlik, tirishqoqlik, mustaqillik va kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayondir. U o'quvchilarni oddiy amaliy faoliyatlar orqali mehnatning mohiyati bilan tanishtiradi va ularda turli mehnat ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mehnat tarbiyasi jarayonida o'quvchilar turli amaliy mashg'ulotlar, qo'l mehnati, ijodiy ishlar orqali faol ishtirok etadilar.

Boshlang'ich sinflarda mehnat tarbiyasi asosan texnologiya darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va kundalik hayotiy faoliyat

orqali amalga oshiriladi. Qog'oz bilan ishlash, tabiiy materiallardan buyumlar yasash, oddiy tikuv ishlari, maktab hududini ozoda saqlash kabi faoliyatlar o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon bo' quvchilning nafaqat jismoniy, balki aqliy va ijodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat tarbiyasining muhim ahamiyati shundaki, u o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi. Bo'quvchil mehnat orqali natijaga erishishni, ishni puxta va mas'uliyat bilan bajarishni o'rganadilar. Shuningdek, mehnat tarbiyasi o'quvchilarda sabr-toqat, intizom, jamoada ishlash va bir-biriga yordam berish kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, mehnat tarbiyasi o'quvchilarda kelajak kasblari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qiladi. Turli kasb-hunar turlari bilan tanishtirish orqali bo'quvchilarda kasbga qiziqish paydo bo'ladi va ular kelajakda o'z qiziqishlariga mos kasb tanlashga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda, ularda mehnatsevarlik va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. U bo'quvchilni jamiyatda faol, foydali va mehnatsevar shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilning xarakteri, qiziqishlari va hayotga bo'lgan munosabati shakllana boshlaydi. Shu sababli ularda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Mehnatsevarlikni shakllantirishning pedagogik asoslari, avvalo, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishga tayanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq amaliy faoliyat orqali bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Shuning uchun o'qituvchi mehnat jarayonini qiziqarli, sodda va tushunarli tarzda tashkil etishi kerak. Amaliy mashg'ulotlar, qo'l mehnati, ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarda mehnatga qiziqish va intilish paydo bo'ladi.

Pedagogik jihatdan mehnatsevarlikni shakllantirishda tizimlilik va izchillik muhim ahamiyatga ega. Mehnat tarbiyasi faqat texnologiya

darslarida emas, balki boshqa fanlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va kundalik faoliyat jarayonida ham olib borilishi lozim. Sinf xonasini tartibga keltirish, o'quv qurollarini asrab-avaylash, maktab hududini toza saqlash kabi oddiy ishlar ham o'quvchilarda mehnatsevarlik sifatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga shaxsiy namuna ko'rsatishi ham muhim pedagogik omil hisoblanadi. O'qituvchining mehnatsevarligi, mas'uliyati va tartibliligi bo'quvchil uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ota-onalar bilan hamkorlik qilish orqali mehnat tarbiyasini yanada samarali tashkil etish mumkin. Rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ham mehnatsevarlikni shakllantirishning muhim pedagogik usullaridan biridir. O'quvchilarning bajargan ishlarini e'tirof etish, ularni maqtash va rag'batlantirish bo'quvchilarda mehnatga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirish pedagogik jihatdan puxta tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. To'g'ri tashkil etilgan mehnat faoliyati o'quvchilarda mas'uliyat, intizom, mustaqillik va mehnatga hurmat kabi muhim fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasi o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu jarayon orqali o'quvchilarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va intizom kabi muhim sifatlar shakllantiriladi. Mehnat tarbiyasi nafaqat amaliy ko'nikmalarni o'rgatadi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi — boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga hurmat, mehnatsevarlik, tirishqoqlik va mustaqillik kabi fazilatlarni shakllantirishdir. Shuningdek, o'quvchilarda turli mehnat faoliyatlariga qiziqish uyg'otish va ularda oddiy mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali o'quvchilar kelajak kasblari haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasining bir qator muhim vazifalari mavjud. Avvalo, o'quvchilarga mehnatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushuntirish zarur. O'quvchil mehnat orqali

insonlar jamiyatga foyda keltirishini anglay boshlaydilar. Shuningdek, ularda mehnatga hurmat bilan qarash, har qanday ishni mas'uliyat bilan bajarish odatini shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Mehnat tarbiyasining yana bir vazifasi o'quvchilarda amaliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Texnologiya fani darslari davomida qog'oz, karton, mato, tabiiy materiallar bilan ishlash, turli buyumlar yasash kabi mashg'ulotlar orqali o'quvchil qo'l mehnati ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Bundan tashqari, mehnat tarbiyasi o'quvchilarda jamoada ishlash, o'zaro yordam berish va tartib-intizomga rioya qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. O'quvchilar birgalikda ishlash jarayonida hamkorlik qilishni va mas'uliyatni his etishni o'rganadilar. Boshlang'ich ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari o'quvchilarning mehnatsevar, mas'uliyatli va faol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. To'g'ri tashkil etilgan mehnat tarbiyasi bo'quvchilning kelajak hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni turli kasb-hunar turlari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'quvchilarda mehnatga qiziqish uyg'otish, kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish va kelajakda to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali kichik bo'lgani uchun ularga kasb-hunarlar haqida sodda, qiziqarli va tushunarli tarzda ma'lumot berish zarur.

c) Kichik guruhlarda ishlash - o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, topshiriqlarni birgalikda bajaradilar. Yaxshi tomoni hamkorlik ko'nikmasi shakllanadi, mas'uliyat hissi ortadi, o'zaro yordam kuchayadi.

2. Loyihaviy (proyekt) yondashuv - bu o'quvchilarning muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan mustaqil yoki guruhiy faoliyatidir. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi, muammoni aniqlash, reja tuzish, amaliy ishini bajarish hamda natijani taqdim etish va mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi qulay tomoni, muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rgatadi, ijodiy yondashuvni kuchaytiradi va o'quvchilar "qayta ishlangan materiallardan buyum yaratish" loyihasini bajarishlari mumkin.

3. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'qitish. Texnologiya fanining asosiy xususiyati – amaliy yo'nalishga ega ekanligidir. Shu sababli amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda o'z qo'llari bilan buyum yaratadi, nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, tajriba orttiradi. Yaxshi tomoni bilimlar mustahkam o'zlashtiriladi, o'quvchilarda qiziqish ortadi, real hayotiy ko'nikmalar shakllanadi.

4. O'yin texnologiyalaridan foydalanish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin eng samarali o'qitish vositalaridan biridir. O'yin texnologiyalari orqali darslar qiziqarli va samarali tashkil etiladi. O'yin turlari didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, musobaqa shaklidagi o'yinlar. Afzallik tomonlari o'quvchilarning motivatsiyasi oshadi, darsga qiziqish kuchayadi, bilimlar oson o'zlashtiriladi. Masalan, "Eng yaxshi konstruktor", "Kim tez va sifatli bajaradi?" kabi o'yinlar orqali o'quvchilar faol ishtirok etadi.

Kompetensiyalarni shakllantirishda to'g'ri metod va usullarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa texnologiya darslarida interfaol metodlar o'quvchini faollashtiradi, loyihaviy yondashuv mustaqillikni rivojlantiradi, amaliy mashg'ulotlar real ko'nikmalarni shakllantiradi, STEAM yondashuvi kompleks fikrlashni ta'minlaydi, o'yin

texnologiyalari esa darsni qiziqarli qiladi. Natijada o'quvchilarda nafaqat bilim, balki hayotda zarur bo'lgan kompetensiyalar ham shakllanadi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan qo'llaniladigan vositalarga bog'liq. To'g'ri tanlangan vositalar darsni qiziqarli, tushunarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat va zamonaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

Quyida ushbu vositalarning asosiy turlari yoritiladi.

Didaktik materiallar – bu o'quv jarayonida bilim berish, tushuntirish va mustahkamlash uchun xizmat qiluvchi vositalardir. Ko'rgazmali qurollar esa o'quvchilarning mavzuni ko'rib, tasavvur qilib o'zlashtirishiga yordam beradi.

Didaktik materiallarga quyidagilar kiradi kartochkalar, chizmalar va sxemalar, texnologik xaritalar, topshiriqlar to'plami.

Ko'rgazmali qurollar tayyor buyumlar namunalari, maket va modellar, rasmlar va plakatlari.

Ahamiyati o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, mavzuni tez va oson tushunishga yordam beradi, eslab qolish darajasini oshiradi. Buyum yasashdan oldin uning tayyor namunasi ko'rsatilsa, o'quvchilar ishni aniqroq bajaradi.

Zamonaviy ta'limda AKT muhim o'rin egallaydi. Texnologiya darslarida ham raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi. AKT vositalariga quyidagilar kiradi kompyuter va noutbuklar, planshet va interaktiv doskalar, internet resurslari ta'limiy dasturlar. Ahamiyati axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi, darsni interfaol qiladi, o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtiradi. Masalan, buyum yasash jarayonini video orqali ko'rsatish o'quvchilarga aniq tushuncha beradi.

Multimedia vositalari – bu matn, rasm, ovoz va videoni birlashtirgan holda taqdim etiladigan o'quv materiallaridir. Multimedia vositalariga quyidagilar kiradi, prezentatsiyalar (slaydlar), video darslar, animatsiyalar, audio materiallar. Ahamiyati shundan iboratki

o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi, murakkab jarayonlarni sodda tushuntiradi, ko'rish va eshitish orqali o'zlashtirishni kuchaytiradi. Masalan, qog'ozdan gul yasash bosqichlarini animatsiya orqali ko'rsatish o'quvchilar uchun juda qulay va tushunarli bo'ladi.

Tabiiy va sun'iy materiallardan foydalanish. Texnologiya darslarining eng muhim jihatlaridan biri – bu turli materiallar bilan ishlashdir. Bu o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tabiiy materiallar burglar, shox-shabba, urug'lar, toshlar. Sun'iy materiallar qog'oz va karton, mato, plastmassa va turli bezak buyumlari. Ahamiyati shundaki o'quvchilarda amaliy faoliyat ko'nikmasini shakllantiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, ekologik tafakkurni kuchaytiradi.

By tabiiy materiallardan aplikatsiya tayyorlash orqali o'quvchilar tabiatni qadrlashni o'rganadilar. Dars jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirishda vositalardan to'g'ri foydalanish katta ahamiyatga ega. Xususan didaktik materiallar bilimni mustahkamlaydi, ko'rgazmali qurollar tushunishni osonlashtiradi, AKT va multimedia vositalari darsni zamonaviy va qiziqarli qiladi, tabiiy va sun'iy materiallar esa amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Natijada o'quvchilar bilimni nafaqat o'zlashtiradi, balki uni amalda qo'llashni ham o'rganadi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda, ayniqsa texnologiya darslarida o'quvchilar kompetensiyalarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayoni nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning amaliy ko'nikmalari, ijodiy yondashuvi va mustaqil fikrlashini ham aniqlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda baholash jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida olib boriladi va u o'quvchining har tomonlama rivojlanishini hisobga oladi.

Formativ baholash – bu o'quv jarayoni davomida muntazam olib boriladigan baholash turidir. Formativ baholashning xususiyatlari shundan iboratki doimiy ravishda amalga oshiriladi, o'quvchining rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi, xatolarni aniqlash va tuzatishga yordam beradi, o'quvchiga tezkor fikr-mulohaza (feedback) beriladi.

Misollar og‘zaki savol-javoblar, kichik topshiriqlar, dars jarayonidagi faollikni baholash.

Summativ baholash – bu ma’lum bir mavzu, bo‘lim yoki chorak yakunida o‘tkaziladigan baholashdir. Uning xususiyatlar yakuniy natijani aniqlaydi, o‘quvchining umumiy bilim va ko‘nikmalarini baholaydi, reyting yoki ball ko‘rinishida ifodalanadi. Masalan nazorat ishlari, test sinovlari, yakuniy amaliy ishlar.

Kuzatish orqali baholash - bu usulda o‘qituvchi o‘quvchining dars jarayonidagi faoliyatini bevosita kuzatadi. Quyidagicha baholanadi ishga munosabati, mustaqilligi, guruhda ishlash qobiliyati, mehnat madaniyati.

Test orqali baholashda - o‘quvchilarning nazariy bilimlarini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Afzalliklari qisqa vaqt ichida ko‘p o‘quvchini baholash mumkin, natijalar aniq va obyektiv bo‘ladi.

Amaliy ishlar orqali baholash - texnologiya fanida eng muhim baholash usullaridan biri hisoblanadi. Baholanadi ishning sifati, bajarilish texnikasi, ijodiy yondashuv, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

Portfolio usuli - bu o‘quvchining ma’lum vaqt davomida bajargan ishlari, erishgan yutuqlari va rivojlanishini aks ettiruvchi hujjatlar to‘plamidir. Portfolio tarkibi amaliy ishlar namunasi, rasm va chizmalar, loyihalar, o‘qituvchi va o‘quvchi fikrlari. Afzalliklari o‘quvchining individual rivojlanishini ko‘rsatadi, ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Baholash mezonlari va indikatorlari. Kompetensiyalarni baholashda aniq mezon va indikatorlardan foydalanish zarur. Baholash mezonlari topshiriqni bajarish to‘g‘riligi, ish sifati, ijodkorlik darajasi, mustaqillik, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash.

Indikatorlar Har bir mezon bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar belgilanadi.

Masalan:

- “a’lo” – topshiriq to‘liq va sifatli bajarilgan;
- “yaxshi” – kichik kamchiliklar mavjud;
- “qoniqarli” – asosiy talablar bajarilgan;
- “qoniqarsiz” – topshiriq to‘liq bajarilmagan. Amaliy ahamiyati baholashning shaffofligini ta’minlaydi, adolatli baholash imkonini beradi, o‘quvchiga o‘z kamchiliklarini tushunishga yordam beradi.

O‘quvchilar kompetensiyalarini baholash – ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan baholashda o‘quvchining rivojlanishini aniqlaydi, uning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatadi, ta’lim sifatini oshiradi. Formativ baholash o‘quv jarayonini nazorat qiladi, summativ baholash yakuniy natijani aniqlaydi, amaliy ishlar real ko‘nikmalarni baholaydi, portfolio esa individual rivojlanishni aks ettiradi. Shu sababli baholash jarayonini to‘g‘ri tashkil etish o‘qituvchining muhim vazifalaridan biridir.

Texnologiya darslarini samarali tashkil etishda ayrim muammolar yuzaga kelishi tabiiy hol. Ushbu muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda bu masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Quyida texnologiya darslarida uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Ba’zi maktablarda texnologiya darslari uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, didaktik materiallar va xomashyo yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin. Bu esa darsning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hal etish yo‘llari mavjud resurslardan oqilona foydalanish, oddiy va arzon materiallardan foydalanish (qog‘oz, karton, tabiiy materiallar), qayta ishlanadigan materiallardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish, ota-onalar va hamkor tashkilotlarni jalb qilish va qo‘lda tayyorlanadigan didaktik vositalardan foydalanish. Bu yondashuv o‘quvchilarda tejamkorlik va ijodkorlikni ham rivojlantiradi.

O‘quvchilarning qiziqishini oshirish muammosi mazmunida ba’zan o‘quvchilar darsga yetarlicha qiziqish bildirmaydi, bu esa ularning faolligi va o‘zlashtirish darajasiga ta’sir qiladi. Hal etish yo‘llari interfaol metodlardan foydalanish, o‘yin texnologiyalarini qo‘llash, qiziqarli va hayotiy topshiriqlar berish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, rag‘batlantirish tizimini joriy etish. Musobaqa yoki ko‘rgazma tashkil etish orqali o‘quvchilarni faollashtirish mumkin.

O‘qituvchining metodik tayyorgarligi muammo mazmunida ba’zi hollarda o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni yetarli darajada bilmasligi mumkin. Hal etish yo‘llarida malaka oshirish kurslarida qatnashish, seminar va treninglarda ishtirok

etish, tajriba almashish (metodik birlashmalar orqali), yangi pedagogik adabiyotlar bilan tanishib borish, o'z ustida mustaqil ishlash. Bu o'qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi va dars sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda muammo mazmuni zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etishda texnik imkoniyatlar yoki bilim yetishmasligi muammolari yuzaga kelishi mumkin. Hal etish yo'llari AKT vositalaridan bosqichma-bosqich foydalanish, oddiy va qulay dasturlardan boshlash, multimedia vositalarini qo'llash, STEAM yondashuv elementlarini joriy etish, innovatsion metodlarni sinovdan o'tkazish. Bu orqali darslar zamonaviy, samarali va qiziqarli bo'ladi.

Texnologiya darslarida uchraydigan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri hal etish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xususan:

- jihoz yetishmasligi ijodiy yondashuv bilan bartaraf etiladi;
- o'quvchilarning qiziqishi interfaol metodlar orqali oshiriladi;
- o'qituvchining malakasi doimiy rivojlantiriladi;
- zamonaviy texnologiyalar esa dars sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli har bir o'qituvchi muammolarni imkoniyat sifatida ko'rib, ularni samarali hal etishga intilishi zarur.

Texnologiya darslarida kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir. Ushbu jarayonda o'quvchilar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi, mustaqil fikrlash rivojlanadi, ijodiy yondashuv shakllanadi, hayotga tayyorgarlik kuchayadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan texnologiya darslari o'quvchini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli o'qituvchi metod, vosita va baholash tizimini to'g'ri tanlashi muhim hisoblanadi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Texnologiya darslarida fanga oid kompetensiya deganda nima tushuniladi?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologik kompetensiyalar qanday shakllantiriladi?
3. Texnologiya darslarida amaliy faoliyatning ahamiyati nimada?

4. Fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rnini qanday?
5. Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi qanday rivojlantiriladi?
6. Mehnat qurollaridan to'g'ri foydalanish qaysi kompetensiyani shakllantiradi?
7. Texnologiya fanida loyiha ishlari o'quvchilarda qanday kompetensiyalarni rivojlantiradi?
8. O'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish usullari qanday?
9. Texnologiya darslarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishning ahamiyati nimada?
10. Texnologiya fanida baholash jarayoni kompetensiyalarni aniqlashda qanday rol o'ynaydi?
11. Texnologiya fanida kompetensiyalarni shakllantirishda qaysi metod keng qo'llaniladi?
12. Fanga oid kompetensiyalar qaysi bosqichda rivojlanadi?
13. Texnologiya fanida o'quvchilarni kompetensiyaga yo'naltirishning asosiy vazifasi nima?
14. Texnologiya fanida kompetensiyalarni shakllantirishda interfaol metodlardan qaysi biri samarali?
15. Fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning yakuniy natijasi qanday ko'rinadi?

8-mavzu. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limidan amaliy ishlar

Reja:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish
2. Tabiiy materiallar bilan ishlash orqali o'quvchilarda ekologik va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish.
3. Havo plastilin va loy bilan ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish
4. Mato va ip bilan ishlash orqali o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari va mustaqillikni shakllantirish.

5. Texnik modellashtirish elementlari orqali o'quvchilarda texnik fikrlashni rivojlantirish.
6. Dizayn va bezak ishlari orqali o'quvchilarda estetik did va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish
7. Milliy hunarmandchilik elementlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlar va urf-odatlarini shakllantirish.


Mavzuga oid tayanch tushunchalar: qog'oz, karton applikatsiyalar, o'yinchoqlar, bezak, buyumlari tayyorlanadi, mayda motorikasini, barglar, urug'lar, novdalar, havo plastilin, shakllar, hayvonlar va turli buyumlar, modellar, mato, ip, oddiy tikuv, tugma qadashni, maketlar, qog'ozdan harakatlanuvchi o'yinchoqlar, ranglar uyg'unligi, estetik did, tabriknomal milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlari katta ahamiyatga ega.


Qog'oz va karton – bu arzon, qulay va oson ishlov beriladigan materiallar bo'lib, ular yordamida turli xil buyumlar yasash mumkin. Ushbu faoliyat turi o'quvchilarning tasavvurini boyitadi, ularni ijod qilishga undaydi hamda dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bugungi kunda pedagoglar qog'oz va karton bilan ishlashni nafaqat mehnat darslarida, balki boshqa fanlar bilan integratsiya qilgan holda ham qo'llamoqdalar. Bu esa o'quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Qog'oz va karton bilan ishlash jarayonida o'quvchilar bir qator muhim amaliy ko'nikmalarni egallaydilar:

1. **Buklash (origami elementlari).** Qog'ozni turli shakllarda buklash orqali o'quvchilar diqqat va aniqlikni o'rganadilar. Masalan:




1-rasm samolyot yasash




2- *rasm qayiq yasash*

2. **Kesish.** Qaychi bilan ishlash o'quvchilardan ehtiyotkorlik va aniqlikni talab qiladi. Masalan:



3- *rasm geometrik shakllarni kesish.*




4- *rasm qor parchasi shaklini kesish*

3. **Yopishtirish (applikatsiya).** Bu usul orqali turli tasvirlar yaratiladi:



5-rasm “Kuz manzarasi” applikatsiyasi.



6-rasm “Hayvonlar dunyosi” mavzusida ish

4. **Kompozitsiya tuzish.** O'quvchilar turli elementlarni birlashtirib, yaxlit rasm hosil qiladilar. Bu esa ularning estetik didini rivojlantiradi.



7-rasm bahor kompozitsiya

Amaliy mashg'ulotlar va misollar

Qog'oz va karton bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun quyidagi amaliy mashg'ulotlardan foydalanish mumkin:

1. **“Rangli kapalak” yasash.** Kerakli jihozlar: rangli qog'oz, qaychi, elim. Jarayon: a) qog'oz buklanadi. b) kapalak shakli chiziladi. b) kesib olinadi va bezatiladi.



8-rasm rangli kapalak yasash

2. **“Yangi yil archasi” applikatsiyasi** yashil kartondan archa kesiladi, rangli qog‘ozdan o‘yinchoqlar tayyorlanadi, elim yordamida yopishtiriladi



9-rasm yangi yil archasi applikatsiyasi.


3. **“Uycha modeli”** kartondan devorlar kesiladi, tomi alohida tayyorlanadi, barcha qismlar birlashtiriladi.



10-rasm uycha modeli

4. **“Kitob belgilagich” (bookmark)** kartondan to‘g‘ri to‘rtburchak kesiladi, ustiga bezaklar qo‘shiladi. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarda

ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va ularda o‘z ishidan mamnunlik hissini uyg‘otadi.



11-rasm kitob belgilagich” (bookmark)

Qog‘oz va karton bilan ishlash jarayonida quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

“Kim tez va chiroyli?”. O‘quvchilar berilgan vaqt ichida biror buyumni yasaydilar. Eng chiroyli va sifatli ish rag‘batlantiriladi.

“Top va yasagin”. O‘qituvchi biror shaklni aytadi (masalan, “qush”), o‘quvchilar esa uni qog‘ozdan yasaydilar.

“Mozaika yig‘ish”. Oldindan kesilgan bo‘laklardan rasm yig‘iladi. Bu o‘yin tafakkurni rivojlantiradi.

“Davom ettir”. Bir o‘quvchi boshlagan ishini boshqasi davom ettiradi. Bu jamoaviy ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

“Sirli rasm”. Qog‘oz buklanib kesiladi va ochilganda yangi shakl hosil bo‘ladi. Bu bolalarda qiziqish uyg‘otadi.

Qog‘oz va karton bilan ishlash o‘quvchilarning ijodiy, amaliy va intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon orqali ўқувчиларда mayda motorika rivojlanadi diqqat va sabr oshadi, estetik did shakllanadi, mustaqil fikrlash rivojlanadi. Tavsiyalar шунни кўрсатадики mashg‘ulotlarni qiziqarli va rang-barang tashkil etish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish (qaychi bilan ishlashda), o‘quvchilarni rag‘batlantirish, oddiydan murakkabga qarab topshiriqlar berish. Shuningdek, o‘qituvchi har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olishi lozim. Shu orqali har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatini namoyon eta oladi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki ularning ekologik madaniyatini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir. Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg‘ulotlari bu borada samarali vositalardan biri hisoblanadi. Barglar, urug‘lar, novdalar, gullar va boshqa tabiiy materiallar orqali o‘quvchilar tabiat bilan yaqinroq tanishadilar. Bu esa ularda tabiatga mehr, uni asrash hissini shakllantiradi.

Tabiiy materiallar turli xil bo‘lib, ular quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) O‘simlik materiallari barglar, gullar, urug‘lar.
 - 2) Yog‘och qismlari novdalar, po‘stloq.
 - 3) Meva va sabzavot qismlari yong‘oq, shoxcha, donalar.
 - 4) Boshqa tabiiy elementlar toshlar, qum. Har bir material o‘ziga xos shakl va rangga ega bo‘lib, ijodiy ishlar uchun keng imkoniyat yaratadi.
- Tabiiy materiallar bilan ishlashning ahamiyati o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi, tasavvurini kengaytiradi, estetik didini shakllantiradi. Shuningdek, bu faoliyat orqali bolalar tabiatdagi boyliklarni qadrlashni o‘rganadilar.

Ekologik tarbiya tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar tabiatni asrashni o‘rganadilar, chiqindilardan to‘g‘ri foydalanishni bilib oladilar, ekologik madaniyatga ega bo‘ladilar. Masalan, qurigan barglardan foydalanish orqali tabiatga zarar yetkazmaslik tushuntiriladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi yig‘ish va saralash quritish, yopishtirish, kompozitsiya tuzish. Bu jarayonlar o‘quvchilarda tartib va aniqlikni rivojlantiradi. Tabiiy

materiallar bilan ishlash o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, ekologik madaniyatini, amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu mashg'ulotlar orqali o'quvchilar tabiatni sevishni, uni asrashni va undan oqilona foydalanishni o'rganadilar.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Shu jarayonda havo plastilin va loy bilan ishlash mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Bu faoliyat turi o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularni ijodkorlikka undaydi. Havo plastilin va loy bilan ishlash o'quvchilarning qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning estetik didini ham shakllantiradi.

Havo plastilin – yumshoq, rangli va havoda quriydigan material bo'lib, o'quvchilar uchun juda qulaydir. Havo plastilin xususiyatlari yumshoq va oson shakl beriladi rang-barang tez quriydi

Loy esa tabiiy material bo'lib, qadimdan buyumlar yasashda ishlatilgan. Har ikkala material bilan ishlash o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali hisoblanadi.

Loy xususiyatlari tabiiy va ekologik toza mustahkam buyumlar tayyorlash mumkin, suv bilan yumshatiladi.

Havo plastilin va loy ishlash usullari dumaloqlash, cho'zish, bosish, birlashtirish. Bu usullar orqali o'quvchilar turli shakllar yaratishni o'rganadilar.

Amaliy ishlar (misollar)



12-rasm mevalar yasash



13-rasm hayvonchalar yasash

Didaktik o‘yinlar.

1. “Kim tez yasaydi?” Berilgan vaqt ichida shakl yasash.
2. “Top va yarat”. O‘qituvchi aytgan buyumni yasash.
3. “Tasavvur qil va yasagin”. Erkin ijodiy ish.


Rivojlantiruvchi ahamiyati:

- mayda motorika rivojlanadi;
- tasavvur kengayadi;
- diqqat va sabr oshadi. Bu faoliyat yozuv va chizish ko‘nikmalariga ham yordam beradi.

Havo plastilin va loy bilan ishlash o‘quvchilarning, ijodkorligini, mustaqil fikrlashini, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘z tasavvurlarini real shaklga keltirishni o‘rganadilar. Shu sababli bunday faoliyatlarga ta’lim jarayonida keng o‘rin berish zarur.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mato va ip bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilarda mehnatsevarlik, mustaqillik va mas'uliyat hissini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mato – turli tolalardan tayyorlangan material bo'lib, kiyim-kechak va boshqa buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Ip esa tikuv ishlarida asosiy vosita hisoblanadi.



Tugma qadash tugmani joylashtirish, ipni to'g'ri o'tkazish, mustahkamlash

Oddiy mashqlar matoni tikish, ipni ignaga o'tkazish, tugma qadash mashqi.

Mato va ip bilan ishlash o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, mustaqillikni, ijodkorlikni rivojlantiradi. Bu mashg'ulotlar bolalarni hayotga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik modellashtirish elementlari bu jarayonda samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilar oddiy maketlar va harakatlanuvchi o'yinchoqlar yasash orqali nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'laydilar.

Texnik modellashtirish - bu real buyumlarning soddalashtirilgan nusxalarini yaratish jarayonidir. Bu faoliyat o'quvchilarning muhandislik fikrlashini rivojlantiradi.

Modellashtirishning ahamiyati shundan iboratki texnik tafakkurni rivojlantiradi, ijodkorlikni oshiradi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rgatadi.

Modellashtirish turlari statik modellar, dinamik modellar, o'yinchoq modellaridan iborat. Texnik modellashtirish o'quvchilarda texnik tafakkurni, ijodkorlikni, amaliy ko'nikmalari rivojlanadi. Bu faoliyat orqali bolalar kelajakda muhandislik va texnologiya sohalariga qiziqish bildiradilar.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Dizayn va bezak ishlari bu jarayonda alohida o'rin tutadi. Ushbu faoliyat orqali o'quvchilar go'zallikni his qilishni, ranglarni uyg'unlashtirishni va ijodiy fikrlashni o'rganadilar.

Dizayn tushunchasi - bu buyum yoki mahsulotning tashqi ko'rinishini chiroyli va qulay qilish san'atidir. Dizayn o'quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi.

Bezak ishlari buyumlarga chiroy berish, ularni bezash jarayonidir. Bu faoliyat bolalarda estetik didni rivojlantiradi.

Dizaynning ahamiyati estetik didni rivojlantiradi, ijodkorlikni oshiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi

Ranglar nazariyasi asosiy ranglar, qo'shimcha ranglar, ranglar uyg'unligi.

Ranglar uyg'unligi kontrast ranglar, mos ranglar, rang tanlash qoidalari.

Materiallar qog'oz, karton, mato, bezak buyumlar.

Dizayn va bezak ishlari o'quvchilarda estetik didni, ijodkorlikni, mustaqillikni rivojlantiradi. Bu mashg'ulotlar orqali bolalar go'zallikni yaratishni va qadrlashni o'rganadilar.

Hozirgi globallashuv davrida har bir millat o'zining milliy qadriyatlari, urf-odatlar va madaniy merosini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratishi zarur. Milliy hunarmandchilik ana shu merosning ajralmas qismi bo'lib, u xalqning tarixi, turmush tarzi va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi.

O'quvchilarni milliy hunarmandchilik elementlari bilan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur, vatanparvarlik, estetik did, mehnatga muhabbat kabi fazilatlar shakllanadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida hunarmandchilikka oid bilimlarni berish muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar ma'naviy va moddiy qadriyatlarga bo'linadi. Ma'naviy qadriyatlarga xalq ijodiy merosi (doston, lapar, rivoyat kabi), ananalar (Qurbon hayiti, Ro'za hayiti, beshik to'yi kabi) va musiqa va teatr san'ati (ashula, raqs, masxaroboz, dor o'yini kabi), moddiy qadriyatlarga esa, xalq hunarmandchilig (pichoqchilik, ko'nchilik, kosibchilik, mahsido'zlik kabi), tasviriy va amaliy san'at sohalari (loyihalash, grafika, xatotlik kabi) hamda tarixiy obidalar(qal'a, machit, maqbara kabi) misol bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar ushbu qadriyatlar orqali xalq hunarmandchiligi sohaslarini tizimli o'zlashtirishi hamda ta'lim va tarbiyaning shakli, vositasi va metodlaridan unumli, samarali foydalanishi natijasida shakllangan kichik hunarmand bo'lib yetishishi isbotlandi.¹

¹Ashurov N.R. O'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik sharoitlari (xalq hunarmandchiligi misolida) AVTOREFERAT-Toshkent-2007.

Milliy hunarmandchilik — bu xalqning asrlar davomida shakllangan amaliy san'at turlari bo'lib, qo'l mehnati orqali yaratiladigan buyumlar majmuasidir.

Hunarmandchilikning tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda sabr-toqatli, diqqatni, ijodkorlik va milliy ongini rivojlantiradi. Milliy hunarmandchilik elementlari bilan tanishtirishda o'quvchilarni ma'naviy boyitadi, milliy qadriyatlarni saqlaydi hamda ijodkor shaxsni tarbiyalaydi. Shuning uchun ta'lim jarayonida hunarmandchilikka alohida e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limida amaliy ishlar o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda mehnatga muhabbat, mas'uliyat, sabr-toqat va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, texnologiya darslarida bajariladigan amaliy ishlar o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini oshiradi, ularda estetik did va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Ayniqsa, milliy hunarmandchilik elementlarini amaliy ishlarga tatbiq etish orqali o'quvchilar o'z xalqi madaniyati va an'analari bilan yaqindan tanishadilar. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limida amaliy ishlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish, darslarni qiziqarli va interaktiv tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu esa kelajakda ijodkor, mehnatsevar va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Boshlang'ich sinflarda amaliy ishlar qaysi shaklda tashkil etiladi?
2. Amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchining vazifasi nima?
3. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni guruhlariga bo'lishning maqsadi nima?
4. Amaliy ishlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
5. Amaliy mashg'ulotlarda qaysi metod keng qo'llaniladi?
6. Amaliy ishlarni tashkil qilishda asosiy didaktik prinsip qaysi?
7. Boshlang'ich sinf amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyati qanday rivojlanadi?

8. Amaliy ishlarni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi qanday sharoit yaratishi zarur?
9. Amaliy mashg'ulotlarda "loyiha usuli"ning asosiy afzalligi nima?
10. Boshlang'ich sinflarda amaliy ishlarning natijalarini baholashda nimaga e'tibor beriladi?
11. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni rag'batlantirishning samarali usuli qaysi?

9-mavzu. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Reja:

1. Innovatsion texnologiyalar tushunchasi va turlari.
2. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarining xususiyatlari.
3. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari.
4. Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: innovatsiya, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (akt), interfaol usullar, multimedia, elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim, geymifikatsiya (o'yin texnologiyalari), loyiha asosida o'qitish (project-based learning), steam ta'lim, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, amaliy ko'nikma, kompetensiyaviy yondashuv, o'quv faolligi, ta'lim samaradorligi, individuallashtirilgan ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, vizual materiallar (prezentatsiya, video, infografika)

Hozirgi globallashuv va jadal rivojlanish davrida ta'lim tizimi oldiga yangi va dolzarb vazifalar qo'yilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Chunki bu jarayon o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limda innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'qitish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya

vositalari, interfaol metodlar orqali o'quvchilar faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa ularning bilimni chuqur o'zlashtirishi va amalda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya fani o'quvchilarni mehnatga, ijodkorlikka va amaliy faoliyatga o'rgatuvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan orqali bolalar turli materiallar bilan ishlashni, buyumlar yaratishni va hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Shu bois, texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar — bu ta'lim jarayoniga yangilik kiritish, uning samaradorligini oshirish va o'qitish usullarini zamonaviylashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va vositalar majmuasidir. Ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilarning bilish faoliyati faollashtiriladi, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi. Innovatsion texnologiyalar an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Innovatsion texnologiyalarning muhim turlaridan biri — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hisoblanadi. AKTga kompyuter, planshet, interaktiv doska, internet tarmog'i, multimedia dasturlari kabi vositalar kiradi. Ular yordamida darslarni vizual, qiziqarli va tushunarli shaklda tashkil etish mumkin. Masalan, prezentatsiyalar, video darslar, elektron o'quv resurslari orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni samarali tashkil etiladi.

Shuningdek, interfaol usullar ham innovatsion texnologiyalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Blis-so'rov", "Jamoaviy ish" kabi usullar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyalar esa ta'lim jarayonini oldindan rejalashtirish, tashkil etish va natijalarini baholashga qaratilgan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Ular darsning maqsadini aniq belgilash, samarali metodlarni tanlash va o'quv natijalarini kafolatlashga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchidan yuqori kasbiy

mahorat va ijodiy yondashuvni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi hamda boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu bosqichdagi o'quvchilar ko'proq ko'rgazmalilikka, o'yin orqali o'rganishga va amaliy faoliyatga moyil bo'ladilar. Shu sababli dars jarayoni qiziqarli, sodda va tushunarli tarzda olib borilishi lozim. O'quvchilar yosh xususiyatlari inobatga olinganda, ularning diqqatini uzoq vaqt davomida bir joyga jamlash qiyinligi, tez charchashi va harakatga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligi kuzatiladi. Shuning uchun texnologiya darslarida faoliyat turlarini tez-tez almashtirib turish, o'yin elementlaridan foydalanish va ko'rgazmali vositalarni keng qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiya darslarining asosiy qismi hisoblanadi. Ushbu darslarda o'quvchilar turli materiallar (qog'oz, karton, mato, tabiiy materiallar va boshqalar) bilan ishlash orqali buyumlar yaratishni o'rganadilar. Amaliy ishlar o'quvchilarda mehnatsevarlik, aniqlik, sabr-toqat va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish ham texnologiya darslarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilarga mustaqil topshiriqlar berish, ularni yangi g'oyalar ustida ishlashga undash, o'z fikrini erkin ifoda etishga sharoit yaratish zarur. Masalan, biror buyumni turlicha usulda yasash, dizayn yaratish yoki muammoli vaziyatlarga yechim topish kabi vazifalar o'quvchilarning ijodkorligini oshiradi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda, amaliy va ijodiy faoliyatga asoslangan holda tashkil etilsa, ta'lim jarayoni samarali va mazmunli bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga

ega. Zamonaviy usullar orqali darslar yanada qiziqarli, interaktiv va samarali bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Multimedia vositalaridan foydalanish texnologiya darslarida keng imkoniyatlar yaratadi. Audio, video, animatsiya va grafik materiallar orqali o'quvchilarga mavzuni tushuntirish osonlashadi. Masalan, buyum yaratish jarayonini videorolik orqali ko'rsatish o'quvchilarga topshiriqni tez va aniq tushunishga yordam beradi.

Prezentatsiyalar va video darslar ham ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Slaydlar orqali ma'lumotlarni tizimli ravishda taqdim etish, rasm va diagrammalar bilan boyitish o'quvchilarning diqqatini jalb etadi. Video darslar esa murakkab jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'rsatish imkonini beradi.

Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning) usuli o'quvchilarni mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga va muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Bu usulda o'quvchilar ma'lum bir loyiha ustida ishlab, natijada tayyor mahsulot yaratadilar. Masalan, oddiy qo'l mehnati buyumlarini yaratish yoki kichik modellar tayyorlash orqali ular amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

STEAM yondashuvi elementlaridan foydalanish ham texnologiya darslarida muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilimlarini integratsiyalashni nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarda kompleks fikrlashni rivojlantiradi va turli sohalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradi.

Geymifikatsiya, ya'ni o'yinlashtirish usuli ham o'quv jarayonini samarali tashkil etishda qo'llaniladi. Darslarga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarning qiziqishi va faolligi oshadi. Turli tanlovlar, ball to'plash, rag'batlantirish usullari orqali o'quvchilar darsga katta qiziqish bilan qatnashadilar. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang'ich

sinflarda texnologiya darslarida ushbu usullarni qo'llash o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy afzalliklaridan biri — o'quvchilar faolligini oshirishidir. Interfaol usullar, multimedia vositalari va o'yin elementlari orqali o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Ular faqat tinglovchi emas, balki mustaqil fikr yurituvchi va amaliy harakat qiluvchi ishtirokchiga aylanadilar.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar bilimlarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmali materiallar, video darslar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar ma'lumotlarni osonroq tushunadilar va uzoq vaqt eslab qoladilar. Axborotni turli shakllarda qabul qilish (ko'rish, eshitish, bajarish) bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ham innovatsion texnologiyalarning muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Texnologiya darslarida loyihalar ustida ishlash, turli materiallar bilan ishlash va mustaqil vazifalarni bajarish orqali o'quvchilar hayotiy ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning kelajakdagi faoliyati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar faolligini kuchaytirish va ularda mustahkam bilim hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu texnologiyalar orqali darslar mazmunan boyiydi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortib, ularning faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar, multimedia vositalari va interfaol usullar o'quvchilarda mustahkam bilim va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarni zamonaviy talablarga javob beradigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ular kelajakda turli

sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni egallaydilar.

Kelgusida ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni yanada keng joriy etish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va zamonaviy metodik ta'minotni kuchaytirish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Shuningdek, yangi pedagogik yondashuvlar va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish orqali texnologiya darslarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Shu tariqa, innovatsion texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich ta'limda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarda qanday ko'nikmalar rivojlanadi?
2. Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining asosiy vazifasi nima?
3. "Klaster" metodi qanday vazifani bajaradi?
4. "Insert" texnologiyasi qanday jarayonda qo'llaniladi?
5. Innovatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy pedagogik afzalligi nimada?
6. Innovatsion texnologiyalar dars samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?
7. Innovatsion texnologiyalar yordamida qanday baholash usullari samarali hisoblanadi?
8. Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda qaysi shart muhim hisoblanadi?
9. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish qachon yuqori samaradorlik beradi?

10-mavzu. Texnologiya darslarida STEAM ta'limi.

REJA:

1. STEAM ta'limi tushunchasi va mazmuni.
2. Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'limini joriy etish xususiyatlari.
3. Texnologiya darslarida STEAM elementlaridan foydalanish usulla
4. STEAM ta'limining samaradorligi.

5. STEAM ta'limining ahamiyati, kelgusida rivojlantirish yo'nalishlari.

Tayanch so'zlar: *STEAM ta'lim, science (fan), technology (texnologiya), engineering (muxandislik), art (san'at), mathematics (matematika), integratsiyalashgan ta'lim, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, amaliy mashg'ulot, modellashtirish, konstruksiya yaratish, robototexnika asoslari, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta'lim, o'quv faolligi, raqamli ta'lim muhiti, geymifikatsiya*

Hozirgi kunda jahon ta'lim tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib, o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning fundamental bilim va ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, texnologiya darslarida zamonaviy STEAM ta'lim yondashuvidan foydalanish mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda fan va texnologiyalar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. O'quvchilarga faqatgina nazariy bilim berish yetarli bo'lmay, balki ularni amaliy faoliyatga yo'naltirish, turli muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantirish zarur. STEAM ta'lim yondashuvi aynan shu maqsadga xizmat qiladi, ya'ni u fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) sohalarini o'zaro integratsiya qilish orqali ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida STEAM yondashuvining ahamiyati katta bo'lib, u an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda o'quvchilarni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanuvchi va yaratuvchi sub'ekt sifatida shakllantiradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar real hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish, loyiha ustida ishlash, tajriba o'tkazish va modellar yaratish kabi faoliyatlarga jalb etiladi.

Natijada ular hamkorlikda ishlash, kommunikatsiya, ijodkorlik va kritik fikrlash kabi muhim kompetensiyalar rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya fanining o'rnini ham alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu fan orqali o'quvchilarda mehnat madaniyati, amaliy ko'nikmalar, ijodiy yondashuv va hayotiy faoliyatga tayyorgarlik shakllantiriladi. Texnologiya darslari o'quvchilarga turli materiallar bilan ishlash, oddiy buyumlar yasash, konstruksiyalash va modellashtirish kabi amaliy faoliyatlarni o'rgatadi. Bu esa ularning qo'l mehnati, diqqati, sabr-toqati va estetik didini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, texnologiya fanini STEAM yondashuvi bilan uyg'unlashtirish o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Masalan, biror loyiha ustida ishlash jarayonida o'quvchilar fan, matematika va san'at elementlaridan foydalanib, real mahsulot yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, nazariyani hayotda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

STEAM ta'lim yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib, u o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini ushbu yondashuv asosida tashkil etish esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

STEAM ta'limi zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadigan integratsiyalashgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. STEAM atamasi ingliz tilidagi beshta asosiy yo'nalishning bosh harflaridan tashkil topgan bo'lib, ular: Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) ma'nolarini anglatadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida turli fanlarni o'zaro bog'liq holda o'rgatishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.

STEAM ta'limining asosiy mazmuni shundaki, u o'quvchilarni tayyor bilimlarni yod olishga emas, balki mustaqil izlanish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar yaratishga yo'naltiradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar real hayotda uchraydigan vaziyatlarni tahlil qilish, ularga yechim topish va loyiha asosida ishlash ko'nikmalarini

egallaydilar. Shuningdek, STEAM ta'limi o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga, ijodkorlik va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

STEAM ta'limining maqsadi — o'quvchilarni zamonaviy talablarga javob beradigan, innovatsion fikrlaydigan, raqobatbardosh va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashdir. Ushbu ta'lim turi orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan, balki ularni amaliyotda qo'llash, yangi mahsulotlar va g'oyalar yaratishga o'rganadilar. Shu bilan birga, STEAM ta'limi o'quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlash, ularning texnika va texnologiya sohalariga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

STEAM ta'limining vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarda tabiiy va texnik fanlarga qiziqish uyg'otish, ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash hamda fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglatish. Shuningdek, o'quvchilarda jamoada ishlash, loyiha tayyorlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

STEAM ta'limi an'anaviy ta'limdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. An'anaviy ta'limda asosan o'qituvchi markazda bo'lib, bilim berish jarayoni tayyor ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan bo'lsa, STEAM yondashuvida esa o'quvchi markaziy o'rinni egallaydi. Unda o'quvchilar faol ishtirokchi sifatida mustaqil izlanadilar, tajriba o'tkazadilar va loyihalar ustida ishlaydilar. An'anaviy ta'lim ko'proq nazariy bilimga asoslangan bo'lsa, STEAM ta'limi amaliy faoliyat va real hayot bilant bog'liqlikka tayanadi. STEAM ta'limi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularni ijodkor va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'limini joriy etish o'ziga xos yondashuv va pedagogik tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki bu bosqichda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilish darajasi va qiziqishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayoni shunga mos ravishda tashkil etilishi lozim. STEAM yondashuvi esa aynan shu xususiyatlarni hisobga olgan holda o'quvchilarning har

tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Avvalo, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari muhim omil hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni uzoq vaqt saqlab turish qiyin, ular ko‘proq ko‘rgazmali va harakatli faoliyatga qiziqadilar. Shu sababli STEAM ta’limi jarayonida vizual materiallar, o‘yin elementlari va amaliy mashg‘ulotlardan keng foydalanish zarur. Bu usullar orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshadi va ular o‘quv jarayonida faol ishtirok etadilar.

Integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish STEAM yondashuvining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda fanlar alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatiladi. Masalan, texnologiya darslarida matematika, tabiiy fanlar va san’at elementlarini birgalikda qo‘llash orqali o‘quvchilarda kompleks tushuncha shakllantiriladi. Bu esa ularga bilimlarni real hayot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda STEAM ta’limining yana bir muhim jihati — amaliy va ijodiy faoliyatni rivojlantirishdir. O‘quvchilar turli loyihalar ustida ishlash, modellar yaratish, konstruksiyalash va tajriba o‘tkazish orqali bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu jarayon ularning ijodkorligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va muammolarga yechim topish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, STEAM ta’limi o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, jamoada fikr almashish va umumiy natijaga erishish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa ularni kelajakdagi hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinflarda STEAM ta’limini joriy etish o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, integratsiyalashgan va amaliy-ijodiy faoliyatga asoslangan ta’lim muhitini yaratishni talab etadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida STEAM elementlaridan foydalanish o‘quv jarayonini zamonaviy, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu usullar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) texnologiya darslarida STEAM yondashuvini amalga oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usulda o'quvchilar muayyan mavzu yoki muammo ustida mustaqil yoki guruh bo'lib ishlaydilar va yakunda real mahsulot yoki natija yaratadilar. Masalan, qog'oz, karton yoki tabiiy materiallardan turli modellar tayyorlash orqali ularning amaliy ko'nikmalari rivojlanadi.

Muammoli ta'lim usullari ham texnologiya darslarida muhim o'rin tutadi. Bu usulda o'quvchilar oldiga muayyan muammoli vaziyat qo'yiladi va ular ushbu vaziyatga mustaqil yechim topishga harakat qiladilar. Bu jarayon o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Tajriba va modellashtirish ishlari orqali o'quvchilar turli jarayonlarni amaliy ravishda kuzatadilar va ularni modellar orqali ifodalaydilar. Masalan, oddiy konstruksiyalar yasash yoki tabiiy hodisalarni modellashtirish orqali o'quvchilarda tushunchalar yanada mustahkamlanadi.

Robototexnika va oddiy konstruksiyalar bilan ishlash STEAM ta'limining eng zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda sodda mexanizmlar, konstruktorlar va kichik robot modellarini yaratish o'quvchilarning texnikaga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning texnik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Geymifikatsiya va interfaol usullar ham texnologiya darslarida keng qo'llaniladi. Dars jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish, turli viktorinalar, tanlovlar va jamoaviy topshiriqlar o'quvchilarning faolligini oshiradi. Bu esa ta'limni qiziqarli va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Texnologiya darslarida STEAM elementlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqadi.

STEAM ta'limi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy samaradorligi shundaki, o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalari

ham izchil rivojlanadi. Ayniqsa, texnologiya darslarida STEAM yondashuvidan foydalanish o'quv jarayonini yanada mazmunli va natijador qiladi.

STEAM ta'limining muhim samaralaridan biri — mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. O'quvchilar turli muammoli vaziyatlar ustida ishlash, tahlil qilish va yechim topish jarayonida mustaqil fikr yuritishni o'rganadilar. Bu esa ularning fikrlash qobiliyatini chuqurlashtiradi hamda hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

STEAM ta'limi o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Texnologiya darslarida turli modellar yasash, konstruksiyalash, tajriba o'tkazish va loyiha tayyorlash orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularni kelajak kasblariga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning ijodkorligini oshirish ham STEAM ta'limining asosiy natijalaridan biri hisoblanadi. Dars jarayonida yangi g'oyalar yaratish, turli yechimlarni taklif qilish va loyihalarni mustaqil ishlab chiqish orqali o'quvchilarning kreativ salohiyati rivojlanadi. Ular standart fikrlashdan chiqib, yangi yondashuvlarni qo'llashga o'rganadilar. STEAM ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, amaliy ko'nikmalarini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda yuqori samara beradi hamda ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida STEAM ta'limini joriy etish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki STEAM yondashuvi o'quvchilarda fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilimlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish imkonini yaratadi hamda ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

STEAM ta'limi orqali o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi, ularda muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Texnologiya darslarida amaliy ishlar, loyiha asosida o'qitish va modellashtirish kabi faoliyatlar o'quvchilarning ijodkorligi va kreativ salohiyatini oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda ushbu yondashuvning qo'llanilishi bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularni faol, izlanuvchan va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Shu bilan birga, STEAM ta'limi kelajakdagi zamonaviy kasblarga tayyorgarlikning muhim asosini yaratadi. Kelgusida texnologiya darslarida STEAM yondashuvini yanada keng joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va zarur moddiy-texnik baza bilan ta'minlash ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. STEAM atamasi nimani anglatadi?
2. STEAM yondashuvi qaysi fanlarni o'z ichiga oladi?
3. Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'limining asosiy maqsadi nima?
4. STEAM ta'limida o'quvchilar qanday faoliyatni bajaradilar?
5. STEAM yondashuvi an'anaviy ta'limdan nimasi bilan farq qiladi?
6. STEAM ta'limida loyihaviy ishlarning ahamiyati nimada?
7. Boshlang'ich sinflarda STEAM yondashuvini qo'llashning asosiy usuli qaysi?
8. STEAM ta'limida san'at (Arts) komponenti qanday rol o'ynaydi?
9. STEAM ta'limini qo'llashda o'quvchilarning qaysi ko'nikmalari rivojlanadi?
10. STEAM ta'limining asosiy pedagogik afzalligi nimada?
11. Boshlang'ich sinflarda STEAM yondashuvini samarali qo'llash uchun o'qituvchi nimalarga e'tibor berishi kerak?
12. STEAM ta'limida o'quvchilarni loyiha ishlariga jalb qilish qanday natija beradi?
13. STEAM yondashuvi qaysi xalqaro ta'lim tizimlarida keng tarqalgan?
14. STEAM yondashuvi bilan o'tiladigan texnologiya darslarida o'quvchilarda qanday sifatlar shakllanadi?
15. STEAM ta'limi jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun qaysi metod eng samarali?

II-MODUL.TEXNALOGIYA TA'LIMI METODIKASI

11-mavzu.Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Reja

1. Applikatsiya va mozaikaning o'quvchilar ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni.
2. Applikatsiya haqida umumiy tushuncha
3. Mozaika haqida umumiy tushuncha
4. Boshlang'ich sinflarda applikatsiya darslarini tashkil etish metodikasi
5. Mozaika darslarini tashkil etish metodikasi.
6. O'qitishda qo'llaniladigan metod va vositalar.
7. Dars samaradorligini oshirish yo'llari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *bilim, ko'nikma, malaka, estetik didi, ijodiy fikrlash, badiiy qobiliyat, applikatsiya, mozaika, kompozitsiya, rang uyg'unligi, ijodkorlik, ko'rgazmalilik, metodika, amaliy ish, estetik tarbiya, integratsiya.*

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, tasavvuri va estetik didini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Shu maqsadda texnologik ta'limi va tasviriy san'at darslarida applikatsiya va mozaika kabi amaliy faoliyat turlaridan keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning nafaqat qo'l motorikasini, balki fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda applikatsiya va mozaika o'quvchilarni tayyor namunani ko'chirishdan ko'ra, mustaqil yaratishga o'rgatadi. Ular turli shakl, rang va materiallarni tanlab, yangi kompozitsiya yaratish jarayonida tasavvurini ishga soladilar. Bu esa ijodiy fikrlashni faollashtiradi.

Diqqat va sabr-toqatni shakllantirish mozaika va applikatsiya bajarish jarayonida mayda detallar bilan ishlash talab etiladi. Bu esa o'quvchilardan diqqatni jamlash, aniqlik va sabrli bo'lishni talab qiladi. Natijada o'quvchilarda mas'uliyat va diqqatni boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Badiiy did va estetik hisni rivojlantirishning turli ranglar uyg'unligini tanlash, shakllarni joylashtirish orqali o'quvchilarda


go‘zallikni his qilish va estetik did rivojlanadi. Ular ranglar uyg‘unligini anglashni o‘rganadilar.

Qo‘l motorikasini rivojlantirishda kichik detallarni kesish, yopishtirish va joylashtirish jarayonida mayda motorika faol rivojlanadi. Bu esa keyingi ta‘lim jarayonida, xususan yozish va chizma chizishda katta ahamiyatga ega. Muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi applikatsiya va mozaikada o‘quvchilar qanday qilib shakllarni to‘g‘ri joylashtirish, qanday ranglarni uyg‘unlashtirish kabi masalalarni hal qiladilar. Bu esa ularning mantiqiy va ijodiy yondashuvini kuchaytiradi.

Applikatsiya va mozaika boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nafaqat badiiy faoliyat, balki ijodiy fikrlashni, diqqatni, estetik didni va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi muhim ta'lim vositasidir. Shu sababli ularni dars jarayonida muntazam va maqsadli qo'llash yuqori samara beradi.

Applikatsiya haqida umumiy tushuncha (Applikatsiya tushunchasi va turlari, Applikatsiya materiallari (qog‘oz, mato, tabiiy materiallar), Applikatsiyaning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati).

Applikatsiya — bu turli materiallardan (qog‘oz, mato, tabiiy materiallar va boshqalar) kesilgan shakllarni fonga yopishtirish orqali badiiy tasvir yaratish usulidir. U tasviriy san’at va mehnat ta’limida keng qo‘llaniladi.





Aralash applikatsiya – bir necha material turlarini birgalikda qo‘llash orqali yaratiladi.

Applikatsiya ishlarida turli xil materiallardan foydalaniladi:

1. **Qog‘oz** – rangli, karton, gofrlangan qog‘ozlar; eng asosiy va qulay material.
2. **Mato** – lyon, paxta, jun kabi turli to‘qimalar; ko‘proq badiiy va bezak ishlarida ishlatiladi.
3. **Tabiiy materiallar** – barglar, gullar, urug‘lar, danaklar, shoxchalar va boshqalar.
4. **Yordamchi materiallar** – qaychi, yelim, qalam, chizg‘ich va boshqa ish qurollari.

Applikatsiyaning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati

Applikatsiya o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi:

Tarbiyaviy ahamiyati (to‘g‘ri va tartibli ishlashga o‘rgatadi, sabr-toqat va mas’uliyatni shakllantiradi, go‘zallikni qadrlash hissini rivojlantiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini oshiradi).

Rivojlantiruvchi ahamiyati (ijodiy fikrlash va tasavvurni kuchaytiradi, mayda motorika va qo‘l harakatlarini rivojlantiradi, rang va shakllar uyg‘unligini anglashni oshiradi, diqqat va xotirani mustahkamlaydi, muammoni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi). Applikatsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim amaliy-badiiy faoliyat bo‘lib, u nafaqat ijodiy qobiliyatni, balki tartib-intizom, estetik did va amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Shu sababli uni ta’lim jarayonida muntazam qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Mozaika haqida umumiy tushuncha. (Mozaika tushunchasi va tarixi, Mozaika turlari (qog‘oz mozaikasi, plastik, tabiiy materiallardan), Mozaika orqali estetik tarbiya berish).

Mozaika - bu mayda-mayda bo‘laklar (qog‘oz, tosh, shisha, plastik va boshqalar)ni ma’lum bir tartibda joylashtirib, yaxlit badiiy tasvir yaratish usulidir.

Mozaika san'ati juda qadimiy tarixga ega. Uning ilk namunalari Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Qadimgi Rim davriga borib taqaladi. Rimliklar mozaikadan binolar devorlari, pollari va mozaik pannolarni bezashda keng foydalanishgan. Sharq mamlakatlarida ham mozaika orqali masjidlar, saroylar va me'moriy inshootlar bezatilgan.

Mozaika turli materiallardan tayyorlanishiga qarab bir necha xil bo'ladi:

Qog'oz mozaikasi – rangli qog'ozlarni mayda bo'laklarga bo'lib, rasm yoki naqsh hosil qilish. Boshlang'ich sinflarda eng ko'p qo'llaniladi.

Plastik mozaika – plastik yoki zamonaviy materiallardan tayyorlangan mayda elementlardan kompozitsiya yaratish

Tabiiy materiallar mozaikasi – barg, urug', gul, toshcha va boshqa tabiiy materiallardan foydalanish.

Tosh va shisha mozaikasi – ko'proq katta hajmli badiiy inshootlarda qo'llaniladi.

Mozaika o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi:

- a) ranglar uyg'unligini his qilishni o'rgatadi;
- b) go'zallik va badiiy didni rivojlantiradi;
- v) kompozitsiya tuzish qobiliyatini shakllantiradi;
- g) aniqlik, tartib va sabr-toqatni tarbiyalaydi;
- d) ijodiy fikrlash va tasavvurni kengaytiradi;
- s) atrof-muhitdagi go'zallikni kuzatish va baholashga o'rgatadi.

Mozaika qadimiy badiiy san'at turi bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didi, ijodiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini

rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida mozaikadan foydalanish o'quvchilarni go'zallikni his qilishga va yaratuvchanlikka yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinflarda applikatsiya darslarini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini, amaliy ko'nikmalarini va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Darsni samarali o'tkazish uchun maqsad, vazifa, bosqichlar va xavfsizlik qoidalariga alohida e'tibor qaratiladi.

I. Dars maqsadi va vazifalarini belgilash

Dars maqsadi: O'quvchilarda applikatsiya ishlarini bajarish orqali ijodiy fikrlash, estetik did va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Vazifalar:

- rang va shakllar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- kesish, joylashtirish va yopishtirish malakalarini o'rgatish;
- mustaqil kompozitsiya yaratishga o'rgatish;
- diqqat, sabr-toqat va tartibni tarbiyalash.

II. Dars bosqichlari

1. Tashkiliy qism:

- salomlashish va davomatni tekshirish;
- darsga tayyorgarlikni tekshirish (qog'oz, qaychi, yelim va boshqalar);
- psixologik tayyorgarlik (qisqa suhbat, motivatsiya).

2. Yangi bilim berish:

- applikatsiya haqida tushuncha berish;
- namuna ko'rsatish va tahlil qilish;
- rang va shakllarni tanlash qoidalarini tushuntirish;
- ish ketma-ketligini bayon qilish.

3. Amaliy ish:

- o'quvchilar mustaqil yoki guruh bo'lib ishlaydi;
- o'qituvchi nazorat qiladi va yordam beradi;
- shakllarni kesish, joylashtirish va yopishtirish amalga oshiriladi.

4. Yakunlovchi qism:

- ishlarni ko'rgazma qilish;
- o'quvchilar ishlarini tahlil qilish va baholash;
- xatolar va yutuqlar muhokamasi;

- uy vazifasini berish (agar kerak bo'lsa).

III. O'quvchilar yoshiga mos usul va topshiriqlar


Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun:

- yengil va tushunarli topshiriqlar tanlash;
- tayyor shakllardan foydalanish;
- o'yin elementlarini qo'llash;
- jamoaviy ishlar tashkil etish;
- namuna asosida va bosqichma-bosqich o'rgatish.

Masalan amaliy mashg'ulotda quyidagi amaliy ishni bajaramiz:



1-rasm. “Quyosh va bulutlar” applikatsiyasi.



2-rasm “Gulzor” kompozitsiyasi;



3-rasm “Qushlar va daraxt” mavzusida ish.

IY. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish

Applikatsiya darslarida xavfsizlik muhim o‘rin tutadi:

- qaychidan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish;
- yelimni ehtiyotkorlik bilan ishlatish;
- ish joyini toza va tartibli saqlash;
- kesish vaqtida qo‘lni ehtiyot qilish;
- ish tugagandan so‘ng asboblarni joyiga qo‘yish.

Applikatsiya darslarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va estetik tarbiyasini mustahkamlaydi. Dars bosqichlariga rioya qilish va xavfsizlik qoidalarini ta‘minlash samarali ta‘limning asosiy sharti hisoblanadi.

Mozaika darslarini tashkil etish metodikasi. (Mozaika darslarining o‘ziga xos xususiyatlari, Ranglar uyg‘unligini o‘rgatish, Qadamma-qadam bajarish usuli, Individual va guruhli ishlarni tashkil etish).

Mozaika darslarini tashkil etish metodikasi

Mozaika darslari boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, estetik didini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda

muhim o‘rin tutadi. Bu darslar mayda detallar bilan ishlash orqali diqqat, sabr va aniqlikni shakllantiradi.

Mozaika darslarining o‘ziga xos xususiyatlari

Mozaika darslari applikatsiyadan farqli ravishda mayda elementlarni ma’lum tartibda joylashtirishga asoslanadi.

Asosiy xususiyatlari:

- mayda bo‘laklar bilan ishlash talab etiladi;
- aniqlik va diqqatni kuchli talab qiladi;
- kompozitsiyani oldindan rejalashtirish muhim;
- rang va shakllar uyg‘unligi asosiy o‘rin tutadi;
- ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Ranglar uyg‘unligini o‘rgatish.

Mozaika darslarida rang tanlash va uyg‘unlashtirish katta ahamiyatga ega:

- asosiy va qo‘shimcha ranglarni farqlash;
- issiq va sovuq ranglardan to‘g‘ri foydalanish;
- qarama-qarshi (kontrast) ranglarni qo‘llash;
- bir-biriga mos ranglar kombinatsiyasini tanlash;
- tabiatdagi rang uyg‘unliklarini kuzatish. O‘qituvchi o‘quvchilarga namuna ishlar orqali ranglar uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Qadamma-qadam bajarish usuli.

Mozaika ishi odatda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- 1. Mavzuni tanlash va tushuntirish** (masalan: gul, uy, hayvonlar).
- 2. Eskiz tayyorlash** (qog‘ozda umumiy rasm chiziladi).
- 3. Materiallarni tayyorlash** (qog‘oz, plastik yoki tabiiy materiallar mayda bo‘laklarga bo‘linadi).
- 4. Bo‘laklarni joylashtirish** (rang va shakllarga qarab kompozitsiya tuziladi).
- 5. Yelimlash va yakuniy ish** (barcha bo‘laklar ehtiyotkorlik bilan yopishtiriladi).
- 6. Tugatish va tahlil** (ishlar ko‘rib chiqiladi va baholanadi).

Individual va guruhli ishlarni tashkil etish

Individual ish:

- har bir o‘quvchi mustaqil mozaika yaratadi;

- shaxsiy ijodiy fikrlash rivojlanadi;
- har bir o'quvchining qobiliyati baholanadi.

Guruhli ish:

- o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi;
- har bir guruh umumiy kompozitsiya ustida ishlaydi;
- hamkorlik va jamoaviy mas'uliyat shakllanadi;
- fikr almashish va bir-birini tinglash ko'nikmalari rivojlanadi. Mozaika darslarini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarda nafaqat badiiy ko'nikmalarni, balki diqqat, sabr, jamoada ishlash va estetik didni ham rivojlantiradi. Qadamma-qadam yondashuv va ranglar uyg'unligini o'rgatish dars samaradorligini oshiradi.

O'qitishda qo'llaniladigan metod va vositalar. (Interaktiv metodlar (klaster, aqliy hujum, namoyish), Ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallar, Axborot texnologiyalaridan foydalanish). Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun turli metod va vositalardan foydalaniladi. Ular o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, bilimni oson o'zlashtirishga yordam beradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Interaktiv metodlar o'quvchilarning darsda faol ishtirokini ta'minlaydi va fikrlash jarayonini faollashtiradi.

a) Klaster usuli (mavzu bo'yicha asosiy tushuncha yoziladi va unga bog'liq fikrlar tarmoq shaklida ifodalanadi, o'quvchilar g'oyalarni erkin bayon qiladi, ijodiy fikrlash va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi).

b) Aqliy hujum (Brainstorming) (o'quvchilarga bir muammo yoki savol beriladi, ular erkin fikr bildirishadi, hech qanday javob rad etilmaydi, barcha g'oyalar qabul qilinadi, ijodiy yondashuvni kuchaytiradi).

v) Namoyish (demonstratsiya) (o'qituvchi ishni amaliy ko'rsatib beradi, o'quvchilar kuzatib, keyin mustaqil bajaradilar, ayniqsa applikatsiya va mozaika darslarida samarali).

Ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallar boshlang'ich ta'limda juda muhim ahamiyatga ega rangli rasmlar va plakatlari, tayyor applikatsiya va mozaika namunalari, kartochkalar (ranglar, shakllar), tabiiy materiallar kolleksiyasi (barg, gul, urug'), geometrik figuralar

modellari). Bu vositalar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va tushunchani yengil o'zlashtirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda zamonaviy ta'limda AKT vositalari muhim o'rin tutadi (multimedia taqdimotlar (PowerPoint, Canva), video darslar va master-klasslar, interaktiv doskadan foydalanish, ta'limiy dasturlar va mobil ilovalar, onlayn platforma va resurslar. AKT orqali darslar qiziqarli va tushunarli bo'ladi, o'quvchilarning diqqati va motivatsiyasi oshadi.

Interaktiv metodlar, ko'rgazmali vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini samarali va zamonaviy qiladi. Ular o'quvchilarning faolligini oshiradi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirish o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirishi, ijodiy faolligining ortishi va amaliy ko'nikmalarning shakllanishi bilan bog'liq. Bu jarayonda o'qituvchining to'g'ri yondashuvi, metodik mahorati va zamonaviy usullardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar ijodkorligini rag'batlantirish

Ijodkorlikni rivojlantirish darsning asosiy samaradorlik omili hisoblanadi:

- erkin mavzularda topshiriqlar berish;
- har bir o'quvchining fikrini qo'llab-quvvatlash;
- turli rang, shakl va materiallarni tanlash imkonini berish;
- kichik ijodiy tanlovlar va ko'rgazmalar tashkil etish;
- muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish (ma'naviy baholash, maqtov).

Bu usullar o'quvchilarda qiziqish va faollikni oshiradi.

Baholash mezonlarini ishlab chiqish

Samarali baholash o'quv jarayonini to'g'ri yo'naltiradi:

Baholash mezonlari:

- ishning to'g'ri bajarilishi;
- ijodiy yondashuv va originallik;
- rang va shakllar uyg'unligi;
- tozalik va aniqlik;
- topshiriq talablariga rioya qilish.

Baholash:

- og‘zaki izoh;
- reyting yoki ball tizimi;
- o‘zaro baholash va o‘zini baholash shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Xatolar ustida ishlash

Xatolarni to‘g‘ri tahlil qilish o‘quvchilarning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi:

- xatoni tanqidsiz, muloyim tushuntirish;
- to‘g‘ri variantni ko‘rsatish va tushuntirish;
- qayta bajarish imkonini berish;
- namuna ishlar bilan taqqoslash;
- o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish. Bu usullar orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tuzatish va tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Applikatsiya va mozaika darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu mashg‘ulotlar orqali bolalar nafaqat amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar, balki ijodiy fikrlash, tasavvur va estetik didni ham rivojlantiradilar.

Applikatsiya va mozaika darslarining ahamiyati (o‘quvchilarni badiiy faoliyatga jalb qiladi, qo‘l mehnati va mayda motorikani rivojlantiradi, diqqat, sabr-toqat va aniqlikni shakllantiradi, mustaqil ishlash va jamoada hamkorlik qilish ko‘nikmalarini oshiradi, ta‘lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi).

Estetik did va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish. Bu darslar orqali o‘quvchilarda ranglar uyg‘unligini his qilishni o‘rganadilar, tabiat va atrof-muhitdagi go‘zallikni anglaydilar, mustaqil kompozitsiya yaratish qobiliyatini rivojlantiradilar, ijodiy yondashuv va fantaziyasini boyitadilar, badiiy did va estetik madaniyatni shakllantiradilar. Shunday qilib, applikatsiya va mozaika darslari boshlang‘ich ta‘lim tizimida muhim tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga, estetik didini shakllantirishga va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Applikatsiya va mozaika ishlari deganda nima tushuniladi?

2. Applikatsiya darslarini tashkil etishda qanday materiallardan foydalaniladi?
3. Mozaika bilan ishlash o'quvchilarda qanday ko'nikmalarni rivojlantiradi?
4. Applikatsiya va mozaika darslarida xavfsizlik qoidalariga qanday rioya qilinadi?
5. Applikatsiya ishlari orqali o'quvchilarning ijodkorligi qanday rivojlantiriladi?
6. Mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etishda o'qituvchining vazifalari nimalardan iborat?
7. Mozaika bilan ishlash darsida ranglarni tanlashning pedagogik ahamiyati nimada?
8. Applikatsiya va mozaika darslarida qaysi metod ko'proq qo'llaniladi?
9. Mozaika bilan ishlash darslari bo'quvchilarda qanday ko'nikmalarni rivojlantiradi?
10. Mozaika darslarini tashkil etishda o'quvchilar qanday faoliyatni bajaradi?
11. Mozaika san'ati tarixan qayerda keng rivojlangan?
12. Applikatsiya va mozaika darslarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?
13. Boshlang'ich sinflarda applikatsiya va mozaika ishlari qaysi fanlar bilan integratsiyalashishi mumkin?
14. Applikatsiya va mozaika darslarining samaradorligi qanday ta'minlanadi?

12-mavzu. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining mazmunini tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Asosiy metodik tamoyillar .
2. Qog'oz va karton bilan ishlash darsining namunaviy rejasi.
3. Darsning borishi.
4. O'qitishda qo'llaniladigan metodlar
5. O'quvchilarda shakllanadigan ko'nikmalar.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: qog'oz, rangli qog'oz, karton, buklash va kesish ishlari, keyin murakkab buyumlar, ko'rgazmalilik,

amaliy faoliyat, ijodiy yondashuv, bezatish karton, buklash, kesish, yelimlash, shablon, ko'rsatish metodi, amaliy mashq metodi, savol-javob metodi, ijodiy ish metodi, guruh bilan ishlash, mustaqil ijodiy ish qilish

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda mehnatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularning qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashini o'stirishdan iboratdir. Texnologiya darslarida turli materiallar bilan ishlash o'rgatiladi. Shular orasida qog'oz va karton bilan ishlash muhim o'rin egallaydi. Qog'oz va karton bilan ishlash jarayonida o'quvchilar turli buyumlar yasashni o'rganadilar. Bu esa ularning tasavvurini, estetik didini, mustaqil fikrlashini hamda mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga o'quvchilar mehnat jarayonida tartib-intizom, sabr-toqat va aniqlik kabi sifatlarni ham egallaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qog'oz va karton bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish muhim hisoblanadi. O'qituvchi darsni rejalashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini hamda ularning amaliy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olishi lozim

Qog'oz va karton bilan ishlash darslari o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu darslar orqali o'quvchilar nafaqat mehnat ko'nikmalarini egallaydilar, balki ijodiy faoliyatga ham jalb qilinadilar.

Birinchidan, qog'oz va karton bilan ishlash o'quvchilarning qo'l harakatlarini rivojlantiradi. Qaychi bilan kesish, qog'ozni buklash, elimlash kabi jarayonlar mayda motorika faoliyatini rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarning yozuv malakasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bu darslar o'quvchilarda estetik didni shakllantiradi. Turli rangdagi qog'ozlardan foydalanish, buyumlarni bezash jarayonida o'quvchilar go'zallikni his qilishni o'rganadilar.

Uchinchidan, qog'oz va karton bilan ishlash o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi. Ular turli shakllar, o'yinchoqlar, tabriknomalar va bezak buyumlari tayyorlash orqali o'z g'oyalarini amalga oshiradilar.

To'rtinchidan, texnologiya darslari o'quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantiradi. O'quvchilar ish joyini tartibli saqlashni, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishni va ishni oxirigacha bajarishni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va ularni ijodiy faoliyatga jalb etishdan iborat.

Ushbu darslarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarga qog'oz va karton bilan ishlash usullarini o'rgatish;
- qaychi, elim, chizg'ich kabi asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;
- o'quvchilarda aniqlik, sabr-toqat va tartiblilikni shakllantirish;
- ijodiy fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- o'quvchilarda estetik didni tarbiyalash.


Shuningdek, bu darslar orqali o'quvchilar turli buyumlar tayyorlashni o'rganadilar. Masalan, gul, o'yinchoq, tabriknoma, turli bezak buyumlari va boshqa ko'plab narsalar tayyorlash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchi ma'lum metodik tamoyillarga amal qilishi lozim.

Oddiydan murakkabga o'tish tamoyili

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etiladi. Avval o'quvchilar qog'ozni buklash, kesish va yelimlash kabi sodda ishlarni bajaradilar. Keyinchalik esa murakkabroq buyumlar tayyorlashga o'tiladi,

dastlab o'quvchilar oddiy geometrik shakllarni kesishni o'rganadilar. Keyingi bosqichlarda esa gul, hayvoncha yoki turli bezak buyumlarini yasashni o'rganadilar.



1- rasm. Oddiy geometrik shakllarni kesish

Ko'rgazmalilik tamoyili

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq ko'rish orqali o'rganadilar. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida tayyor namunalarni ko'rsatishi, ish jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirishi lozim.

Ko'rgazmali vositalar o'quvchilarning mavzuni tez va oson tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, ularning darsga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi.

Amaliy faoliyat ustunligi

Texnologiya darslarida amaliy ishlar asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilar o'z qo'llari bilan turli buyumlar tayyorlash orqali yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Shu sababli dars vaqtining asosiy qismi o'quvchilarning mustaqil ishlariga ajratilishi kerak.

Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish

Texnologiya darslarida xavfsizlik qoidalariga alohida e'tibor beriladi. Qaychi, elim va boshqa asbob-uskunalaridan foydalanishda o'quvchilarga xavfsizlik qoidalarini tushuntiriladi.

Ya'ni:

- qaychini ehtiyotkorlik bilan ishlatish;
- qaychini boshqalarga uchini qaratib bermaslik;
- ish joyini toza va tartibli saqlash;
- elimdan to'g'ri foydalanish.

Bu qoidalar o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Ijodiy yondashuv

Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi rivojlantiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor namunani ko'rsatadi, lekin ularga o'z g'oyalarini qo'llash imkonini ham beradi bunda o'quvchilar buyumni turli ranglarda bezashlari yoki unga yangi elementlar qo'shishlari mumkin.

Qog'oz va karton bilan ishlash darsining tashkil etilishida texnologiya darslari odatda quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi

Tashkiliy qism: dars boshida o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi va ularni darsga tayyorlaydi.

Yangi mavzuni tushuntirish: o'qituvchi mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi va tayyor namunani ko'rsatadi
O'qituvchi mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi va tayyor namunani ko'rsatadi.

Ish jarayonini tushuntirish: o'qituvchi buyumni qanday tayyorlash kerakligini bosqichma-bosqich tushuntiradi.

Amaliy ish o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida mustaqil ishlaydilar.

Amaliy ish o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida mustaqil ishlaydilar



*Yakuniy qism dars oxirida o‘quvchilarning ishlari
ko‘rib chiqiladi va baholanadi*

Qog‘oz va karton bilan ishlash darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu darslar orqali o‘quvchilar mehnat ko‘nikmalarini egallaydilar, ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar hamda estetik didni shakllantiradilar.

Texnologiya darslarini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi metodik tamoyillarga amal qilishi, ko‘rgazmali vositalardan foydalanishi va o‘quvchilarni faol amaliy ishga jalb qilishi lozim.

Natijada o‘quvchilarda mehnatsevarlik, tartiblilik, mustaqillik va ijodkorlik kabi muhim sifatlar shakllanadi.

Mavzu:Qog‘ozdan oddiy gul yoki tabriknoma tayyorlash.

Dars maqsadi.

Ta’limiy maqsad - o‘quvchilarga qog‘oz bilan ishlash usullarini o‘rgatish, qog‘ozni buklash, kesish va yelimlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad - o‘quvchilarda mehnatsevarlik, didlilik, tartiblilik va jamoa bilan ishlash madaniyatini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad - o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, tasavvurini va qo‘l mehnati ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars davomida quyidagi jihozlar ishlatiladi rangli qog‘oz, karton ,qaychi, elim, oddiy qalam, chizg‘ich, tayyor namuna (qog‘oz gul yoki tabriknoma), bezatish uchun rangli qalamlar yoki stikerlar

Darsning borishi.

Tashkiliy qism (3–5 daqiqa):o‘qituvchi

- o‘quvchilar bilan salomlashadi;
- davomat aniqlanadi;
- o‘quvchilarning ish joylari tekshiriladi;
- o‘qituvchi o‘quvchilarga savol beradi;
- qog‘ozdan qanday buyumlar yasash mumkin?
- siz qog‘ozdan nimalar yasaganingizni bilasizmi?

Bu savollar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Yangi mavzuni tushuntirish (7–10 daqiqa)

O'qituvchi qog'oz va karton haqida qisqacha ma'lumot beradi. Qog'oz – turli buyumlar yasash uchun ishlatiladigan eng qulay materiallardan biridir. Qog'ozdan o'yinchoqlar, gullar, tabriknomalar va turli bezak buyumlari tayyorlash mumkin.

O'qituvchi tayyor qog'oz gul yoki tabriknoma namunasini ko'rsatadi va uning qanday tayyorlanganini tushuntiradi.

Xavfsizlik qoidalar (2–3 daqiqa)

O'quvchilarga quyidagi qoidalar eslatiladi:

- qaychini ehtiyotkorlik bilan ishlatish;
- qaychini boshqalarga uchini qaratib bermaslik;
- ish joyini tartibli saqlash;
- elimni ortiqcha ishlatmaslik.

Amaliy ish (20 daqiqa)

O'qituvchi ish jarayonini bosqichma-bosqich ko'rsatadi.

1-bosqichda - rangli qog'ozni ikki buklab olinadi.

2- bosqichda - qalam yordamida gul shakli chiziladi.

3-bosqichda - qaychi yordamida ehtiyotkorlik bilan kesiladi.

4-bosqichda - tayyor gul karton ustiga elim bilan yopishtiriladi.

5-bosqichda - gul barglari rangli qalamlar yoki bezaklar bilan bezatiladi.

O'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida mustaqil ishlaydilar.

O'qituvchi o'quvchilarga yordam beradi va ularning ishlarini kuzatadi.

Yakuniy qism (5 daqiqa). Dars oxirida o'quvchilarning ishlari ko'rib chiqiladi.

O'qituvchi:

- eng chiroyli ishlarni ko'rsatadi;
- o'quvchilarni rag'batlantiradi;
- kamchiliklarni tushuntiradi;
- savollar beriladi;
- bugun darsda nimalarni o'rgandik?
- qog'ozdan yana qanday buyumlar yasash mumkin?

Uyga vazifa. Uyda rangli qog'ozdan yangi gul yoki tabriknoma tayyorlash topshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash darslarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchi turli o'qitish metodlaridan foydalanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi hamda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Texnologiya darslarida keng qo'llaniladigan metodlar

Ko'rsatish metodi - boshlang'ich sinflarda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu metod orqali o'qituvchi o'quvchilarga ish jarayonini amaliy tarzda ko'rsatib beradi. O'qituvchi qog'ozdan gul yoki tabriknoma tayyorlash, jarayonini bosqichma-bosqich ko'rsatadi, qog'ozni qanday buklash, shaklni qanday chizish, qaychi bilan qanday kesish, qismlarni qanday yelimlash, qog'ozni qanday buklash, qismlarni qanday yelimlash. Ko'rsatish metodi o'quvchilarga ishni aniq tasavvur qilishga va uni to'g'ri bajarishga yordam beradi shaklni qanday chizish, qaychi bilan qanday kesish.

Amaliy mashq metodi - texnologiya darslarining asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metodda o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda ish bajaradilar. O'quvchilar qog'ozni buklash, kesish, yelimlash orqali turli buyumlar tayyorlaydilar. Amaliy mashqlar jarayonida o'quvchilar qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantiradilar. mustaqil ishlashni o'rganadilar. yangi

Savol-javob metodi - o'quvchilarning bilimlarini tekshirish va ularni fikrlashga undash uchun qo'llaniladi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga turli savollar beradi:

- qog'oz qanday material?
- qog'ozdan qanday buyumlar yasash mumkin?
- qaychi bilan ishlashda qanday qoidalarga amal qilish kerak?

Bu metod o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga va faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Ijodiy ish metodi - o'quvchilarning tasavvuri va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodda o'quvchilar tayyor namunaga qarab ishlash bilan birga o'z g'oyalarini ham amalga oshiradilar. O'quvchilar gulni turli ranglarda bezatishlari, gulni turli ranglarda bezatishlari, yangi shakl yaratishlari, tabriknomaga turli bezaklar qo'shishlari mumkin. Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va iijodiv nobilivatini rivoilantiradi.

Guruh bilan ishlash metodi - o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Bu metodda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda topshiriq bajaradilar. Masalan, har bir guruh, qog'ozdan gul, qog'ozdan o'yinchoq, tabriknoma tayyorlashi mumkin. Guruh bilan ishlash jarayonida o'quvchilar, bir-biriga yordam berishni o'rganadilar, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar, fikr almashadilar.

foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ko'rsatish, amaliy mashq, savol-javob, ijodiy ish va guruh bilan ishlash metodlari o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini

rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi ushbu metodlarni to'g'ri va samarali qo'llagan holda o'quvchilarning texnologiya faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash darslari o'quvchilarning amaliy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu darslar orqali o'quvchilar turli materiallar bilan ishlashni o'rganadilar va qo'l mehnati malakalarini shakllantiradilar.

Qog'oz va karton bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar rivojlanadi.

- 1. *Qaychi bilan xavfsiz ishlash ko'nikmasi*** texnologiya darslarida o'quvchilar qaychi bilan to'g'ri va xavfsiz ishlashni o'rganadilar. O'qituvchi ularga qaychini qanday tutish, qanday kesish va uni boshqalarga qanday uzatish kerakligini tushuntiradi. Qaychini ehtiyotkorlik bilan ishlatish, qaychini boshqalarga uchini qaratib bermaslik, kesish jarayonida qo'lni ehtiyot qilish. Bu ko'nikma o'quvchilarda mehnat xavfsizligiga rioya qilish odatini shakllantiradi.
- 2. *Qog'ozni to'g'ri buklash ko'nikmasi*** qog'oz bilan ishlash jarayonida o'quvchilar qog'ozni turli usullarda buklashni o'rganadilar. Buklash jarayoni turli buyumlar tayyorlashning muhim bosqichlaridan biridir. O'quvchilar qog'ozni teng ikki qismga buklashni, aniq va tekis buklashni, buklangan qog'ozdan shakllar tayyorlashni o'rganadilar. Bu ko'nikma o'quvchilarning aniqlik va e'tibor bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.
- 3. *Oddiy shakllarni kesish ko'nikmasi*** boshlang'ich sinf o'quvchilari dastlab oddiy geometrik shakllarni kesishni o'rganadilar. Masalan doira, kvadrat, uchburchak to'rtburchak. Keyinchalik ular murakkabroq shakllarni, masalan gul, barg yoki hayvoncha shakllarini kesishni ham o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning qo'l harakatlarini rivojlantiradi va ularning ishini aniq bajarishiga yordam beradi.
- 4. *Qog'ozdan turli buyumlar yasash ko'nikmasi*** texnologiya darslarida o'quvchilar qog'oz va kartondan turli buyumlar yasashni o'rganadilar. Masalan qog'oz gul, tabriknoma, o'yinchoqlar, turli bezak buyumlari bu jarayon o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va tasavvurini rivojlantiradi.
- 5. *Mustaqil ijodiy ish qilish ko'nikmasi*** qog'oz va karton bilan ishlash darslari o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida ish bajarish bilan birga o'z

g'oyalarini ham amalga oshirishlari mumkin. Masalan, ular buyumlarni turli ranglarda bezashlari, yangi shakllar yaratishlari, o'ziga xos dizayn qo'llashlari mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Qog'oz va karton bilan ishlash darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarida turli amaliy va ijodiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Qaychi bilan xavfsiz ishlash, qog'ozni to'g'ri buklash, shakllarni kesish va turli buyumlar yasash kabi ko'nikmalar o'quvchilarning qo'l mehnati malakalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu darslar o'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va yangi g'oyalar yaratishga undaydi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Kartonning qog'ozdan asosiy farqi nimada?
2. Boshlang'ich sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash qanday mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi?
3. Qog'oz va karton bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni guruhga bo'lib ishlatishning maqsadi nima?
4. Karton bilan ishlashda ranglarning uyg'unligi nimani ta'minlaydi?
5. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida qaysi asbob eng ko'p ishlatiladi?
6. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarida o'quvchilarning ijodkorligini qanday rivojlantirish mumkin?
7. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlari qaysi fanlar bilan integratsiyalashadi?
8. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilarning qaysi sifatlarini rivojlantiradi?

13-mavzu. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarni tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini tashkil etishning nazariy asoslari.
2. Texnologiya darslarida turli materiallar bilan ishlash metodikasi.
3. Texnologiya darslarini samarali tashkil etish

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *texnologiya ta'limi, mehnat tarbiyasi, amaliy faoliyat, material, qog'oz va karton, plastilin, tabiiy materiallar, kompozitsiya, aplikatsiya, ijodkorlik, mehnat ko'nikmasi, mustaqil faoliyat, xavfsizlik qoidalari, estetik tarbiya*

Boshlang'ich ta'lim tizimida texnologiya fani o'quvchilarning amaliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim fanlardan biridir. Ushbu fan orqali o'quvchilar turli materiallar bilan ishlashni o'rganadilar, oddiy buyumlar yasash jarayonida mehnat faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qiladilar. Texnologiya fanining asosiy maqsadi o'quvchilarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Bu jarayonda o'quvchilar nafaqat amaliy faoliyatni o'rganadilar, balki estetik did, tartiblilik va mas'uliyat kabi sifatlarni ham egallaydilar.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarining mazmuni quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi turli materiallar bilan ishlash, oddiy buyumlar tayyorlash, mehnat jarayonini rejalashtirish, asbob-uskunalardan foydalanish, tayyor buyumlarni bezash. Texnologiya darslari o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O'quvchilar turli materiallardan foydalanib yangi buyumlar yaratishga harakat qiladilar. Bu jarayon ularning tasavvurini kengaytiradi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, texnologiya darslari o'quvchilarning jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'quvchilar guruhli ishlar orqali birgalikda ishlash, bir-biriga yordam berish va o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadilar.

Texnologiya fanining yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarning kundalik hayotda zarur bo'ladigan ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, buyumlarni ta'mirlash, oddiy bezak buyumlari tayyorlash kabi ko'nikmalar kelajakda ularga foyda keltiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimida texnologiya faniga alohida e'tibor qaratiladi. Bu fan o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 7–10 yosh oralig'idagi bo'quvchildan iborat bo'lib, bu davr ularning psixologik va jismoniy rivojlanishida

muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu yoshdagi bo'quvchil juda faol, qiziquvchan va yangi bilimlarni o'rganishga intiluvchan bo'ladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy xususiyatlaridan biri – ular ko'proq amaliy faoliyat orqali bilimlarni o'zlashtirishidir. Shu sababli texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega.

Bu yoshdagi o'quvchilarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- faol harakatga intilish;
- yangi narsalarni o'rganishga qiziqish;
- tasavvurning rivojlanishi;
- ijodiy fikrlashning shakllanishi. Texnologiya darslari ushbu xususiyatlarni rivojlantirish uchun juda qulay sharoit yaratadi. Masalan, plastilin bilan ishlash jarayonida o'quvchilar turli shakllar yasab, o'z tasavvurlarini amalga oshiradilar.

Shuningdek, qog'oz bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning mayda motorikasi rivojlanadi. Bu esa yozuv malakasining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha o'yin orqali o'rganishni yaxshi ko'radilar. Shuning uchun texnologiya darslarida o'yin elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilari maqtovga juda ehtiyoj sezadilar. O'qituvchi o'quvchilarning har bir kichik muvaffaqiyatini e'tirof etishi kerak. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Texnologiya darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat ko'nikmalari inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bolalik davridan boshlab rivojlantirilishi kerak. Texnologiya darslarida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarni egallaydilar materiallarni tanlash, asbob-uskunalaridan foydalanish, buyumlar tayyorlash, ish joyini tartibli saqlash, tayyor buyumlarni bezash. Mehnat ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'qituvchi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchilarga ishni qanday bajarishni ko'rsatadi va ularga yordam beradi.

Dastlab o'quvchilarga oddiy topshiriqlar beriladi. Masalan qog'ozni buklash, oddiy shakllarni kesish, plastilindan kichik figuralar yasash.

Keyinchalik topshiriqlar asta-sekin murakkablashib boradi. Bu esa o'quvchilarning tajribasini oshiradi. Texnologiya darslarida mehnat ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi sabr-toqat, mehnatsevarlik, tartiblilik, mas'uliyat.

Bu sifatlarni o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida eng ko'p foydalaniladigan materiallardan biri qog'oz va karton hisoblanadi. Ushbu materiallar bilan ishlash osonligi, arzonligi va turli shakllarga keltirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Qog'oz va karton yordamida turli o'yinchoqlar, bezak buyumlari, kartochkalar hamda turli kompozitsiyalar tayyorlash mumkin.

Qog'oz bilan ishlash jarayonida o'quvchilar bir qator amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. Jumladan, qog'ozni to'g'ri buklash, kesish, yopishtirish va bezash kabi jarayonlarni bajarishni o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning qo'l harakatlarini rivojlantiradi hamda mayda motorika faoliyatini mustahkamlaydi.

Qog'oz bilan ishlash metodikasida quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi ish uchun zarur materiallarni tayyorlash, buyumning namunasi bilan tanishtirish, bajariladigan ish bosqichlarini tushuntirish, amaliy ishni bajarish, yakuniy natijani baholash. Qog'oz bilan ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga xavfsizlik qoidalarini ham tushuntirishi kerak. Ayniqsa, qaychi bilan ishlashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Karton qog'ozga nisbatan qalinroq va mustahkamroq material hisoblanadi. Kartondan turli qutilar, maketlar va dekorativ buyumlar tayyorlash mumkin. Karton bilan ishlash o'quvchilarga aniq o'lchov bilan ishlashni o'rgatadi.

Qog'oz va karton bilan ishlash o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar oddiy materiallardan turli buyumlar yaratib, o'z tasavvurlarini namoyon etadilar.

Boshlang'ich sinflarda havo plastilin bilan ishlash o'quvchilar uchun juda qiziqarli mashg'ulotlardan biridir. Yengil havodor plastilin yumshoq material bo'lib, uni turli shakllarga keltirish oson. Shu sababli o'quvchilar plastilin yordamida turli figuralar yasashni yaxshi ko'radilar.

Yengil havodor plastilin bilan ishlash o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar yengil havodor plastilindan hayvonlar, qushlar, mevalar, gullar va boshqa turli buyumlar yasashlari mumkin.

Yengil havodor plastilin bilan ishlash jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi dumaloqlash, cho'zish, bosish, birlashtirish.



1-Yengil havodor plastilin

Ushbu usullar yordamida o'quvchilar turli shakllarni yaratishni o'rganadilar. Yengil havodor plastilin bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning qo'l barmoqlarini mustahkamlaydi va ularning harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi. O'qituvchi yengil havodor plastilin bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga buyumni qanday yasashni bosqichma-bosqich ko'rsatishi kerak. Avval oddiy shakllar yasash o'rgatiladi, keyinchalik esa murakkabroq figuralar yasashga o'tiladi.

Masalan shar shakli yasash, silindr shakli yasash, turli figuralar hosil qilish.

Bu jarayon o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi hamda ularning ijodiy faoliyatini rivojlantiradi.

Texnologiya darslarida tabiiy materiallardan foydalanish o'quvchilarda tabiatga bo'lgan mehrni shakllantiradi. Tabiiy materiallar sifatida barglar, urug'lar, novdalar, gullar va boshqa tabiat mahsulotlaridan foydalanish mumkin. Tabiiy materiallar bilan ishlash

o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilar ushbu materiallardan turli kompozitsiyalar yaratadilar.

Masalan: barglardan aplikatsiya tayyorlash, urug'lardan bezak kompozitsiyasi yaratish, novdalardan turli shakllar yasash. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar tabiatni asrash va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Bu esa ularning ekologik madaniyatini rivojlantiradi. O'qituvchi o'quvchilarga tabiiy materiallarni qanday yig'ish va saqlashni ham tushuntirishi kerak. Masalan, barglarni quritish, urug'larni tozalash kabi jarayonlar o'quvchilarga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda mato bilan ishlash oddiy shakllarda tashkil etiladi. Mato bo'laklaridan turli aplikatsiyalar, bezak buyumlari va oddiy o'yinchoqlar tayyorlash mumkin. Mato bilan ishlash o'quvchilarda estetik didni rivojlantiradi. O'quvchilar ranglarni tanlash va ularni uyg'unlashtirishni o'rganadilar. Mato bilan ishlash jarayonida quyidagi ishlar bajarilishi mumkin matoni kesish, yopishtirish, aplikatsiya tayyorlash. Ba'zi hollarda o'quvchilarga oddiy tikuv elementlari ham o'rgatilishi mumkin. Bu esa ularning amaliy ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Turli materiallar bilan ishlash o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Shuningdek, turli materiallar bilan ishlash quyidagi jihatlarni rivojlanadi ijodiy tafakkuri, tasavvuri, estetik didi va mehnat ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar o'zlari yaratgan buyumlardan mamnun bo'ladilar. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Turli materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar yangi g'oyalarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning ijodkorligini rivojlantiradi.

Shu sababli texnologiya darslarida turli materiallardan samarali foydalanish o'qituvchining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini samarali tashkil etish o'qituvchidan puxta rejalashtirishni talab qiladi. Har bir dars aniq maqsadga ega bo'lishi va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Texnologiya darslari odatda bir necha bosqichlarda tashkil etiladi. Ushbu bosqichlar dars jarayonining izchil va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Tashkiliy qismda darsning dastlabki bosqichi tashkiliy qism hisoblanadi. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi va o'quvchilarni darsga tayyorlaydi. Shuningdek, ish joylari tartibga keltiriladi hamda kerakli materiallar tayyorlanadi. Tashkiliy qism darsning keyingi bosqichlariga zamin yaratadi. O'quvchilar o'z ish joylarini to'g'ri tashkil etishni o'rganadilar.

Yangi mavzuni tushuntirish keyingi bosqichda o'qituvchi yangi mavzu bilan tanishtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishi mumkin. Masalan, tayyor buyumlar, rasmlar yoki slaydlar yordamida mavzuni tushuntirish mumkin. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida o'qituvchi bajariladigan ishning bosqichlarini batafsil ko'rsatib beradi. Bu o'quvchilarga ishni to'g'ri bajarishda yordam beradi.

Namuna ko'rsatish texnologiya darslarida namuna ko'rsatish juda muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor buyumni yoki uning tayyorlanish jarayonini ko'rsatadi. Bu o'quvchilarga ishni qanday bajarish kerakligini aniq tushunishga yordam beradi.

Amaliy ish texnologiya darslarining asosiy qismi amaliy mashg'ulotdan iborat. Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda turli buyumlar tayyorlaydilar. Amaliy ish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga maslahat beradi va zarur hollarda yordam ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning ish faoliyatini nazorat qiladi.

Yakuniy bosqich darsning yakuniy bosqichida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ishlar ko'rib chiqiladi. O'qituvchi o'quvchilarning ishlarini baholaydi hamda ularning yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi. Bu bosqich o'quvchilarning o'z ishlariga tanqidiy qarashni o'rganishiga yordam beradi.

Texnologiya darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdir. Ijodiy faoliyat o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularning tasavvurini kengaytiradi. O'qituvchi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanishi mumkin. Ijodiy topshiriqlar berish, erkin kompozitsiyalar yaratish, guruhli ishlar tashkil etish. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarga mustaqil fikrlash imkonini beradi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozdan o'zlari xohlagan buyumni yasashni taklif qilishi mumkin. Guruhli ishlar ham o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar birgalikda ishlash jarayonida yangi g'oyalarni ilgari suradilar. Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning har bir muvaffaqiyatini e'tirof etishi kerak. Bu ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ushbu darslar orqali o'quvchilar turli materiallar bilan ishlashni o'rganadilar hamda amaliy mehnat ko'nikmalarini egallaydilar. Texnologiya darslari o'quvchilarda mehnatsevarlik, sabr-toqat, tartiblilik va mas'uliyat kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek, bu darslar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Turli materiallar bilan ishlash o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Qog'oz, karton, plastilin, mato va tabiiy materiallardan foydalanish orqali o'quvchilar turli buyumlar yaratishni o'rganadilar. Texnologiya darslarini samarali tashkil etish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi darsni to'g'ri rejalashtirishi, o'quvchilarga tushunarli tarzda tushuntirishi hamda ularning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashi kerak. Shuningdek, texnologiya darslarida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarning salomatligini saqlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Turli materiallar bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi hamda ularni kelajakdagi mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarining asosiy maqsadi nima?
2. Boshlang'ich sinflarda turli materiallar bilan ishlashda ko'p qo'llaniladigan material qaysi?
3. Yog'och bilan ishlash darslarida qanday buyumlar tayyorlanadi?
4. Mato bilan ishlash mashg'ulotlari bo'quvchida nimalarni rivojlantiradi?
5. Metall bilan ishlashda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday topshiriqlar beriladi?
6. Turli materiallar bilan ishlash darslarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishning asosiy sababi nima?
7. Yog'och bilan ishlashda bo'quvchil asosan qanday asboblardan foydalanadi?
8. Plastilin bilan ishlash mashg'ulotlari bo'quvchida qanday qobiliyatlarni rivojlantiradi?
9. Turli materiallar bilan ishlash darslari qaysi fanlar bilan integratsiyalashishi mumkin?
10. Turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilarning ijodkorligini rag'batlantirishning samarali usuli qaysi?
11. Yengil havodor plastilin bilan ishlash mashg'ulotlari qaysi pedagogik prinsiplarga asoslanadi?
12. Yog'och va metall bilan ishlash mashg'ulotlarida qaysi metod ko'proq qo'llaniladi?
13. Mato bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilarning qaysi sifatlari rivojlanadi?
14. Turli materiallar bilan ishlash darslarining eng muhim pedagogik prinsipi qaysi?
15. Boshlang'ich sinflarda turli materiallar bilan ishlash darslarining yakuniy natijasi nimada namoyon bo'ladi?

14-mavzu. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarni tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Tabiiy materiallar haqida umumiy tushuncha va ularning turlari.

2. Tabiiy materiallar bilan ishlashning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.
3. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.
4. Dars jarayonida qo'llaniladigan metod va usullar.
5. O'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishda tabiiy materiallardan foydalanish.
6. Tabiiy materiallar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.
7. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va baholash mezonlari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: tabiiy material, mehnat ta'limi, amaliy mashg'ulot, ijodkorlik, estetik tarbiya, didaktik metodlar, ko'rgazmalili, tabiiy xomashyo kompozitsiya konstruktsiya qo'l mehnati ko'nikmalari ekologik tarbiya dizayn elementlari mehnat madaniyati.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish, ularni mehnatsevarlikka o'rgatish va tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni turli xil amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ularning tasavvuri, fikrlash qobiliyati va qo'l mehnati ko'nikmalari rivojlanadi. Shunday faoliyat turlaridan biri bu tabiiy materiallar bilan ishlashdir.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayoni o'quvchilarga tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishni o'rgatadi, ularda estetik didni shakllantiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Tabiiy materiallardan turli xil buyumlar, o'yinchoqlar, bezaklar, kompozitsiyalar va maketlar tayyorlash orqali o'quvchilar mehnat jarayonini o'rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayoni o'quvchilarda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik madaniyatni shakllantirish va estetik tarbiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tabiiy materiallar — bu tabiatda tabiiy holda mavjud bo'lgan va inson tomonidan qayta ishlash yoki bezak buyumlari tayyorlash uchun foydalaniladigan materiallardir. Bunday materiallar asosan o'simliklar, daraxtlar, mevalar, urug'lar, toshlar, qum, loy va boshqa tabiiy manbalardan olinadi. Tabiiy materiallarning asosiy xususiyati shundaki, ular ekologik jihatdan toza, inson salomatligi uchun zararli emas va oson

topiladi. Shuning uchun ular ta'lim jarayonida, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida keng qo'llaniladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarning tasavvurini boyitadi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilar tabiiy materiallar yordamida turli xil shakllar, kompozitsiyalar va bezak buyumlari yaratish orqali o'z fikrlarini amalda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, tabiiy materiallar bilan ishlash jarayoni o'quvchilarda mehnatga hurmat, sabr-toqat va mas'uliyat kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Chunki har qanday buyumni yaratish jarayoni diqqat, sabr va mehnatni talab qiladi. Tabiiy materiallar bilan ishlashning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

Ular quyidagi jihatlarida muhim rol o'ynaydi:

1. Tabiiy materiallar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar oddiy barg yoki shoxdan turli xil buyumlar yasash orqali yangi g'oyalarni o'ylab topishga harakat qiladilar.
2. Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarda estetik didni shakllantiradi. Tabiiy materiallar turli xil rang, shakl va tuzilishga ega bo'lgani sababli ulardan foydalanish o'quvchilarning badiiy tasavvurini kengaytiradi.
3. Tabiiy materiallar bilan ishlash ekologik tarbiyani rivojlantiradi. O'quvchilar tabiat boyliklarini qadrlashni, ularni asrab-avaylashni o'rganadilar.
4. Bu faoliyat o'quvchilarda qo'l mehnati ko'nikmalarini shakllantiradi. Qirqish, yopishtirish, birlashtirish, bezash kabi jarayonlar orqali ularning mayda motorikasi rivojlanadi.

Tabiiy materiallar turli xil manbalardan olinadi. Ularni bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

O'simliklardan olinadigan materiallar - bu turdagi materiallar eng ko'p qo'llaniladigan tabiiy materiallar hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat, daraxt barglari, gullar, urug'lar, meva po'stloqlari, daraxt shoxlari, somon va poya. Barglar turli xil rang va shaklga ega bo'lgani sababli ulardan aplikatsiya va bezak buyumlari tayyorlashda keng foydalaniladi.

Qurilgan gullar esa turli xil kompozitsiyalar yaratishda ishlatiladi. Shoxlar va novdalar esa turli konstruksiyalar, ramkalar va dekorativ buyumlar tayyorlash uchun qulay material hisoblanadi.

Meva va urug‘lardan olinadigan materiallar - meva va urug‘lar ham tabiiy materiallarning muhim turlaridan biridir. Masalan, yong‘oq, pista po‘stlog‘i, makkajo‘xori doni, loviya, no‘xat, kungaboqar urug‘i. Bunday materiallar yordamida turli xil mozaika ishlari, dekorativ buyumlar va o‘yinchoqlar tayyorlash mumkin. Urug‘larning turli shakl va rangga ega bo‘lishi o‘quvchilarga turli xil kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi.

Mineral materiallar - tabiatda uchraydigan ba’zi mineral materiallar ham amaliy ishlar uchun ishlatiladi. Bularga quyidagilar kiradi, toshlar, qum, loy, va shag‘al. Loydan turli xil haykalchalar, o‘yinchoqlar va bezak buyumlari tayyorlash mumkin. Qum va mayda toshlardan esa dekorativ kompozitsiyalar yaratishda foydalaniladi.

Hayvonot olamidan olinadigan materiallar - ba’zi tabiiy materiallar hayvonot olamidan ham olinadi. Bu materiallar patlar, tuxum po‘stlog‘i, chig‘anoqlar asosan bezak buyumlari, kompozitsiyalar suvenirlar tayyorlashda ishlatiladi va chig‘anoqlardan turli xil ramkalar yoki dekorativ panolar yaratish mumkin.

Tabiiy materiallardan samarali foydalanish uchun ularni to‘g‘ri yig‘ish va saqlash muhim ahamiyatga ega. Materiallarni yig‘ish jarayonida tabiatga zarar yetkazmaslik kerak. Faqat yerga tushgan barglar, qurigan shoxlar yoki ortiqcha urug‘lardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yig‘ilgan materiallar tozalanib, quritilib, maxsus qutilarda saqlanishi lozim. Barg va gullarni quritish uchun ularni qog‘oz orasiga qo‘yib presslash usulidan foydalanish mumkin. To‘g‘ri saqlangan materiallar uzoq vaqt davomida o‘z shakli va rangini saqlab qoladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali o‘quvchilarning ijodkorligi rivojlanadi, estetik did shakllanadi, ekologik madaniyat oshadi, qo‘l mehnati ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Shuningdek, bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Tabiiy materiallar bilan ishlash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ularni

mehnatsevarlikka o'rgatish va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undashda muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy materiallar ekologik toza, arzon va oson topiladigan bo'lgani sababli ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi. Ular yordamida turli xil amaliy ishlar bajarish o'quvchilarning tasavvurini boyitadi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va mehnat ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida tabiiy materiallardan samarali foydalanish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni mehnat faoliyatiga jalb qilish va estetik didini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Shu sababli texnologiya darslarida turli xil materiallar bilan ishlash mashg'ulotlari tashkil etiladi. Shunday mashg'ulotlardan biri tabiiy materiallar bilan ishlash hisoblanadi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish hamda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday darslar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallash imkonini beradi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar barglar, shoxlar, urug'lar, gullar, toshlar kabi materiallardan turli xil buyumlar yaratadilar. Bu jarayon ularning tasavvurini kengaytiradi va ijodiy faoliyatga undaydi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va estetik didni tarbiyalashdan iborat.

Bu darslarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarga tabiiy materiallarning turlari va xususiyatlari haqida tushuncha berish;
- tabiiy materiallardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mehnat madaniyatini tarbiyalash;
- tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish;
- estetik didni rivojlantirish. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga erishiladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini samarali tashkil etish uchun bir qator to'rtta pedagogik tamoyillarga amal qilish zarur.

1. **Ko'rgazmalilik tamoyili.** O'quvchilar yangi bilimlarni ko'rgazmali vositalar yordamida tezroq va osonroq o'zlashtiradilar. Shu sababli dars jarayonida turli namunalar, rasmlar, tayyor buyumlar va ko'rgazmali materiallardan foydalanish muhim hisoblanadi.
2. **Faollik tamoyili.** Dars jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga undashi kerak. Bu esa ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.
3. **Tizimlilik va izchillik tamoyili.** Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlari oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi kerak. Avval sodda buyumlar tayyorlanadi, keyinchalik esa murakkabroq kompozitsiyalar yaratishga o'tiladi.
4. **Individual yondashuv tamoyili.** Har bir o'quvchining qobiliyati va qiziqishi turlicha bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashishi zarur.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslari bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi

Tashkiliy qism - dars boshida o'qituvchi o'quvchilarni darsga tayyorlaydi. O'quv qurollari tekshiriladi va dars mavzusi e'lon qilinadi

Kirish qismi - bu bosqichda o'qituvchi yangi mavzu haqida qisqacha tushuncha beradi. Tabiiy materiallarning turlari va ularning xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Amaliy ish bosqichi - darsning eng muhim qismi hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan tabiiy materiallardan turli buyumlar tayyorlaydilar va barglardan aplikatsiya tayyorlash, urug'lardan mozaika yaratish, shoxlardan dekorativ buyumlar tayyorlash.

Yakuniy qism - dars oxirida o'quvchilarning ishlari ko'rib chiqiladi va baholanadi. Eng yaxshi ishlar rag'batlantiriladi.

Dars jarayonida tabiiy materiallar bilan ishlash darslarida turli pedagogik metodlardan foydalaniladi.

Tushuntirish metodi - o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib beradi va bajariladigan ishning tartibini ko'rsatadi.

Namoyish qilish metodi - o'qituvchi tayyor buyumni yoki ish jarayonini o'quvchilarga ko'rsatadi.

Amaliy mashq metodi - o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda buyum tayyorlaydilar.

Savol-javob metodi - o'qituvchi o'quvchilarga savollar berib, ularning bilimni tekshiradi. Tabiiy materiallarni tayyorlash va ulardan foydalanish.

Tabiiy materiallardan foydalanishdan oldin ularni to'g'ri tayyorlash zarur. Materiallar tozalanib, quritilib va tartib bilan saqlanishi kerak. Masalan barglar qog'oz orasida quritiladi, gullar maxsus press yordamida quritiladi, urug'lar tozalab qutilarda saqlanadi. To'g'ri saqlangan materiallar uzoq vaqt davomida ishlatish uchun yaroqli bo'ladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil g'oyalar taklif qilish imkonini berishi kerak. O'quvchilarga "Kuz manzarasi" kompozitsiyasini yaratish, turli hayvonlar shaklini yasash, dekorativ panolar tayyorlash kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Xavfsizlik qoidalari tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhim hisoblanadi. Masalan, qaychi bilan ehtiyotkorlik bilan ishlash, o'tkir buyumlardan to'g'ri foydalanish, ish joyini tartibli saqlash, ishlatilgan materiallarni to'g'ri yig'ish. Bu qoidalar o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlaydi.


Dars oxirida o'quvchilarning ishlari baholanadi. Baholashda quyidagi mezonlar hisobga olinadi ishning tozaligi, buyumning mustahkamligi, ijodiy yondashuv, materiallardan to'g'ri foydalanish. Baholash jarayoni o'quvchilarning kelgusidagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Tabiiy materiallar bilan ishlash darslari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda va estetik didni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bunday darslar

o‘quvchilarga tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishni o‘rgatadi hamda ularda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shu sababli tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini to‘g‘ri tashkil etish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni mehnat faoliyatiga jalb qilish hamda estetik didini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli mehnat ta’limi darslarida turli xil materiallar bilan ishlash mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash shunday mashg‘ulotlardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar barglar, gullar, urug‘lar, shoxlar, toshlar kabi materiallardan turli xil buyumlar tayyorlaydilar. Bu jarayon o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi, ularning qo‘l mehnati ko‘nikmalarini rivojlantiradi va tabiatga bo‘lgan mehrini oshiradi. Shu sababli tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini to‘g‘ri tashkil etish pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va estetik didni tarbiyalashdan iborat. Shuningdek, bu darslar orqali o‘quvchilarda quyidagi sifatlar shakllanadi ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyati, mehnatsevarlik va sabr-toqat, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat, estetik did va go‘zallikni his qilish qobiliyati.





Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilish zarur.

1. ***Ko'rgazmalilik tamoyili*** - o'quvchilar yangi bilimlarni ko'rgazmal vositalar orqali tezroq o'zlashtiradilar. Shuning uchun dars jarayonida tayyor buyumlar, rasmlar va namunalardan foydalanish muhimdir.
2. ***Faollik tamoyili*** - dars jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga undashi lozim.
3. ***Tizimlilik tamoyili*** - mashg'ulotlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi kerak. Avval oddiy buyumlar tayyorlanadi, keyinchalik esa murakkab kompozitsiyalar yaratiladi.
4. ***Individual yondashuv tamoyili*** - har bir o'quvchining qobiliyati turlicha bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga individual yondashishi zarur.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslari odatda bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

- ***tashkiliy qism*** - dars boshida o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi va darsga tayyorgarlikni ko'zdan kechiradi;

- **yangi mavzuni tushuntirish** - o'qituvchi yangi mavzu haqida ma'lumot beradi va bajariladigan ishning tartibini tushuntiradi;
- **namoyish qilish** - o'qituvchi tayyor buyumni ko'rsatadi yoki ish jarayonini amaliy tarzda namoyish etadi;
- **amaliy ish** - bu darsning asosiy qismi bo'lib, o'quvchilar tabiiy materiallardan turli buyumlar tayyorlaydilar.

Masalan:



1-rasm. Kuz barglardan aplikatsiya tayyorlash.



2-rasm Urug'lardan mozaika ishlari yaratish.



3-rasm. Shoxlardan dekorativ buyumlar tayyorlash.

- **yakuniy qism** - dars oxirida o‘quvchilarning ishlari ko‘rib chiqiladi, xatolar tahlil qilinadi va eng yaxshi ishlar rag‘batlantiriladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarida quyidagi metodlardan foydalaniladi.

1. Tushuntirish metodi - o‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirib beradi va ish jarayonini izohlaydi.
2. Namoyish qilish metodi - o‘qituvchi bajariladigan ishni ko‘rsatib beradi.
3. Amaliy mashq metodi - o‘quvchilar mustaqil ravishda buyum tayyorlaydilar.
4. Savol-javob metodi - o‘quvchilarning bilimini tekshirish uchun savollar beriladi.

Tabiiy materiallardan foydalanishdan oldin ularni to‘g‘ri yig‘ish va tayyorlash zarur. Masalan barglar qog‘oz orasida quritiladi, gullar press yordamida quritiladi, urug‘lar tozalab qutilarda saqlanadi. Materiallarni yig‘ishda tabiatga zarar yetkazmaslik kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritish imkoniyatini berishi kerak.

Masalan:



4- rasm. Tabiat manzarasi yaratish.



5-rasm. Hayvonlar shaklini yasash.



6-rasm. Dekorativ panolar tayyorlash.

Bunday topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda va estetik didni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarga tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishni o'rgatadi hamda ularda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shu sababli tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va usullarga bog'liq. Har bir darsni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda turli pedagogik metodlardan foydalanishi lozim. Ayniqsa mehnat ta'limi darslarida, xususan tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarida turli metod va usullardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlash ko'nikmalari va amaliy malakalari rivojlanadi.

Metod — bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga erishish uchun qo'llaydigan faoliyat yo'li hisoblanadi. Usul esa metodning tarkibiy qismi bo'lib, dars davomida qo'llaniladigan aniq harakatlar majmuasini bildiradi.

Dars jarayonida metod va usullarni to'g'ri tanlash o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga, ularning ijodiy faolligini oshirishga hamda ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tushuntirish metodi dars jarayonida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Bu metod orqali o'qituvchi yangi mavzuni og'zaki tarzda bayon qiladi va o'quvchilarga mavzuning asosiy mazmunini tushuntirib beradi. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarida tushuntirish metodi orqali o'quvchilarga tabiiy materiallarning turlari, ularning xususiyatlari va ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumot beriladi.

Masalan, o'qituvchi barglar, gullar, urug'lar yoki daraxt shoxlaridan qanday buyumlar tayyorlash mumkinligini tushuntirib beradi. Shu bilan birga, materiallarni qanday tayyorlash va saqlash kerakligi haqida ham ma'lumot beradi.


Tushuntirish metodi o'quvchilarning mavzu haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lishiga yordam beradi.

Namoyish qilish metodi mehnat ta'limi darslarida muhim metodlardan biri hisoblanadi. Bu metod orqali o'qituvchi bajariladigan ishni amaliy tarzda ko'rsatib beradi.

Masalan, o'qituvchi barglardan aplikatsiya tayyorlash jarayonini bosqichma-bosqich namoyish qiladi. O'quvchilar esa bu jarayonni kuzatib, keyinchalik o'zlari mustaqil bajaradilar. Namoyish qilish metodi o'quvchilarning mavzuni aniq tushunishiga yordam beradi. Chunki ko'rgazmali tarzda ko'rsatilgan ish o'quvchilar tomonidan tezroq o'zlashtiriladi.

Amaliy mashq metodi tabiiy materiallar bilan ishlash darslarining asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod orqali o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda turli buyumlar tayyorlaydilar.

Masalan:



7-rasm. Toshlardan bezak kompozitsiyalari yaratish.

Amaliy mashqlar o'quvchilarning qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, bu metod o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Savol-javob metodi o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish uchun qo'llaniladi. Bu metod orqali o'qituvchi o'quvchilarga turli savollar berib, ularning bilimini tekshiradi. Masalan a) Tabiiy materiallar deganda nimani tushunasiz? b) Qanday tabiiy materiallarni bilasiz? v) Barglardan qanday buyumlar tayyorlash mumkin?. Savol-javob metodi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Mustaqil ish metodi o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu metod orqali o'quvchilarga mustaqil ravishda bajariladigan topshiriqlar beriladi. Masalan, o'quvchilarga tabiiy materiallardan mustaqil ravishda kompozitsiya yaratish topshirig'i

berilishi mumkin. O'quvchilar o'z tasavvurlaridan kelib chiqib turli shakllar yaratadilar. Bu metod o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Guruh bilan ishlash metodi o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib ishlashni nazarda tutadi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan bir guruh barglardan kompozitsiya tayyorlaydi, ikkinchi guruh urug'lardan mozaika ishlari yaratadi, uchinchi guruh shoxlardan dekorativ buyumlar tayyorlaydi.

Bu metod o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, o'zaro yordam berish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Rag'batlantirish usuli dars jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Rag'batlantirish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni yanada faol ishlashga undaydi. O'qituvchi o'quvchilarni quyidagi usullar bilan rag'batlantirishi mumkin, maqtov so'zlari, yaxshi baho qo'yish, eng yaxshi ishlarni ko'rgazmaga qo'yish va kichik sovg'alar berish. Rag'batlantirish usuli o'quvchilarning o'z ishiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

O'yin metodlari boshlang'ich sinflarda o'yin metodlaridan foydalanish darsni qiziqarli qiladi. O'yin orqali o'quvchilar yangi bilimlarni oson o'zlashtiradilar.

Masalan: "Eng chiroyli kompozitsiya" tanlovi, "Kim tezroq yasaydi?" o'yini, "Tabiat sovg'alari" nomli ijodiy mashg'ulot. O'yin metodlari o'quvchilarning faolligini oshiradi va dars jarayonini jonlantiradi.

Dars jarayonida turli metod va usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarida tushuntirish, namoyish qilish, amaliy mashq, savol-javob, mustaqil ish, guruh bilan ishlash va o'yin metodlari muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tanlangan metodlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlikni shakllantirish ularning fikrlash doirasini

kengaytiradi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi va o'z g'oyalarini erkin ifoda etishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan tabiiy materiallardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar turli shakllar, ranglar va tuzilishlarga ega materiallardan foydalanib yangi buyumlar yaratadilar. Bu esa ularning tasavvurini boyitadi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ijodkorlik — bu insonning yangi g'oyalar yaratish, muammolarni noodatiy yo'l bilan hal qilish va yangilik kiritish qobiliyatidir. Ijodkorlik insonning tafakkuri, tasavvuri va qiziqishlari bilan chambarchas bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish uchun ularga turli amaliy faoliyatlar tashkil etish zarur. Bunday faoliyat turlaridan biri tabiiy materiallar bilan ishlashdir.

Tabiiy materiallar o'quvchilarga o'z tasavvurlarini amalda namoyon qilish imkoniyatini beradi. Ular oddiy barg yoki shoxdan turli xil hayvonlar shakli, manzara yoki bezak buyumlari yaratishlari mumkin. Tabiiy materiallar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Chunki tabiiy materiallarning shakli, rangi va tuzilishi turli xil bo'ladi. Masalan, barglarning turli shakllari o'quvchilarga hayvonlar yoki qushlar shaklini yaratish imkonini beradi. Urug'lar yordamida esa turli mozaika kompozitsiyalarini tayyorlash mumkin. Tabiiy materiallardan foydalanish jarayonida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi, ijodiy fikrlash shakllanadi, estetik did rivojlanadi, qo'l mehnati ko'nikmalari mustahkamlanadi.

O'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish uchun dars jarayonida turli ijodiy mashg'ulotlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil fikrlash imkoniyatini berishi kerak. Masalan, o'quvchilarga quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin, tabiiy materiallardan hayvonlar shaklini yaratish, "Kuz manzarasi" kompozitsiyasini tayyorlash.



8-rasm. «Kuz manzarasi» kompozitsiyasini tayyorlash

Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularni ijodiy faoliyatga jalb qiladi. O'quvchilarning tasavvurini rivojlantirish ijodkorlikning muhim omillaridan biridir. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar oddiy narsalardan yangi buyumlar yaratishga harakat qiladilar. Masalan, oddiy bargni kapalak yoki baliq shakliga o'xshatish mumkin. Shoxlardan esa kichik uycha yoki hayvon shakli yasash mumkin. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va ularni yangi g'oyalar o'ylab topishga undaydi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarning estetik didini rivojlantirishga ham yordam beradi. Tabiiy materiallar turli xil rang va shakllarga ega bo'lgani sababli o'quvchilar ularni uyg'unlashtirishni o'rganadilar.

Masalan, turli rangdagi barglardan chiroyli kompozitsiya yaratish mumkin.



9-rasm. Turli rangdagi barglardan chiroyli kompozitsiya

Bu esa o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar berilgan materiallardan qanday buyum tayyorlash mumkinligi haqida o‘zlari o‘ylab ko‘radilar. Bu jarayon ularning muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tabiiy materiallardan foydalanish o‘quvchilarda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘usini ham shakllantiradi. O‘quvchilar materiallarni yig‘ish jarayonida tabiatni asrash, o‘simliklarga zarar yetkazmaslik kabi qoidalarni o‘rganadilar. Bu esa ularda ekologik madaniyatni rivojlantiradi. Tabiiy materiallardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi, estetik didini shakllantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, tabiiy materiallar bilan ishlash o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va mehr-muhabbat tuyg‘ularini ham shakllantiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida tabiiy materiallardan keng foydalanish

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilad. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa texnologiya fani darslarida o'quvchilar turli asbob-uskunalar va materiallar bilan ishlaganliklari sababli xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida ham ma'lum ehtiyot choralariga amal qilish talab etiladi. Barglar, shoxlar, urug'lar va boshqa tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar qaychi, pichoq, igna kabi asboblardan foydalanishlari mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga xavfsizlik qoidalarini tushuntirib berishi va ularning bajarilishini nazorat qilishi lozim. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida turli asbob-uskunalaridan foydalaniladi. Masalan, qaychi, pichoq, igna, elim va boshqa vositalar ishlatilishi mumkin.

Pichoq bilan ishlashda quyidagilarga e'tibor beriladi, pichoqni faqat o'qituvchi ruxsati bilan ishlatish, pichoqni o'ziga qarab emas, balki qarama-qarshi tomonga qarab ishlatish, pichoqni ehtiyotkorlik bilan saqlash. Ignadan foydalanishda ham ehtiyot bo'lish kerak. Ignani ishlatib bo'lgach maxsus qutiga joylashtirish zarur. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida ham ehtiyot choralariga rioya qilish zarur.

Masalan, shoxlar yoki o'tkir materiallardan foydalanishda ehtiyot bo'lish, iflos yoki zararli materiallardan foydalanmaslik, materiallarni ishlatishdan oldin tozalash.

Ayrim o'simliklar allergiya keltirib chiqarishi mumkinligi sababli o'qituvchi materiallarni oldindan tekshirishi kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida elim, bo'yoq va boshqa yordamchi vositalardan foydalaniladi. Elim bilan ishlashda quyidagi qoidalariga amal qilish zarur, elimni ko'zga yoki og'izga tekkizmaslik, elimni me'yorida ishlatish, elim ishlatilgandan keyin qo'llarni yuvish.

Bo'yoqlar bilan ishlashda ham ehtiyot bo'lish kerak. Ish tugagach qo'llarni sovun bilan yuvish tavsiya etiladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida gigiyena qoidalariga rioya qilish muhim hisoblanadi. O'quvchilar quyidagi qoidalariga amal qilishlari kerak, ish boshlashdan oldin qo'llarni yuvish, ish tugagach qo'llarni tozalash, ish joyini toza saqlash, ishlatilgan materiallarni yig'ishtirish. Gigiyena qoidalariga rioya

qilish o'quvchilarning sog'lig'ini saqlashga yordam beradi. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarida o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini doimiy nazorat qilib borishi kerak. O'qituvchi xavfsizlik qoidalarini tushuntirishi va ularning bajarilishini tekshirishi zarur. Agar o'quvchi asbobdan noto'g'ri foydalanayotgan bo'lsa, o'qituvchi darhol uni to'g'rilashi kerak.

O'qituvchining nazorati o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil etilgan ish joyi, asbob-uskunalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va gigiyena qoidalariga amal qilish o'quvchilarning sog'lig'ini saqlashga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarga xavfsizlik qoidalarini tushuntirib berishi va ularning bajarilishini nazorat qilishi zarur. Shu orqali dars jarayoni xavfsiz va samarali tashkil etiladi. Ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa mehnat ta'limi darslarida amaliy faoliyat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularning qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'quvchilar barglar, gullar, urug'lar, shoxlar kabi materiallardan turli buyumlar tayyorlaydilar. Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish va o'quvchilar faoliyatini adolatli baholash ta'lim samaradorligini oshiradi. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi, o'quvchilarning qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, estetik didni rivojlantirish, mehnat madaniyatini tarbiyalash.

Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun dars jarayoni besh bosqichdan iborat.

1. **Tashkiliy bosqich** - bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni darsga tayyorlaydi. Davomat tekshiriladi va o'quvchilarning ish joyi tayyorligi ko'zdan kechiriladi.
2. **Yangi mavzuni tushuntirish** - o'qituvchi bajariladigan amaliy ish haqida tushuncha beradi. Tabiiy materiallardan qanday buyum tayyorlash mumkinligi haqida ma'lumot beradi.
3. **Namoyish bosqichi** - o'qituvchi bajariladigan ish jarayonini amaliy tarzda ko'rsatib beradi. Bu o'quvchilarga topshiriqni to'g'ri bajarishga yordam beradi.
4. **Amaliy ish bosqichi** - bu bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi esa ularning ishini nazorat qilib boradi va kerakli yordamni ko'rsatadi.
5. **Yakuniy bosqich** - dars oxirida o'quvchilarning ishlari ko'rib chiqiladi, xatolar tahlil qilinadi va eng yaxshi ishlar rag'batlantiriladi.

Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur.

Birinchidan, dars uchun kerakli barcha materiallar oldindan tayyorlab qo'yilishi kerak. Bu o'quvchilarning vaqtini tejaydi.

Ikkinchidan, o'qituvchi topshiriqlarni aniq va tushunarli qilib tushuntirishi lozim.

Uchinchidan, o'quvchilarning ish faoliyati doimiy nazorat qilib borilishi kerak.

To'rtinchidan, o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyati berilishi zarur. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar ishini baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradi.

Baholashda quyidagi mezonlarga e'tibor beriladi:

Ishning tozaligi. Tayyorlangan buyum toza va tartibli bo'lishi kerak. Ish jarayonida materiallardan to'g'ri foydalanilgan bo'lishi muhim.

Buyumning mustahkamligi. Tayyorlangan buyum mustahkam va sifatli bo'lishi kerak. Materiallar to'g'ri biriktirilgan bo'lishi lozim.

Ijodiy yondashuv. O'quvchining ishida ijodkorlik va yangicha yondashuv bo'lishi baholashda muhim hisoblanadi.

Topshiriqni to'g'ri bajarish. O'quvchi topshiriqni o'qituvchi ko'rsatmasiga muvofiq bajargan bo'lishi kerak.

Ishni o'z vaqtida bajarish. O'quvchi berilgan vaqt ichida ishni tugatgan bo'lishi ham baholash mezonlaridan biridir.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Rag'batlantirish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Rag'batlantirishning quyidagi usullari mavjud, maqtov so'zlari, yaxshi baho qo'yish, eng yaxshi ishlarni ko'rgazmaga qo'yish, kichik sovg'alar berish. Bu usullar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va ularning qo'l mehnati ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish va o'quvchilar ishini adolatli baholash ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qila

Nazorot va muhokama savollar:

1. Tabiiy materiallar bilan ishlash deganda nima tushuniladi?
2. Tabiiy materiallarga qanday materiallar kiradi?
3. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarining tarbiyaviy aҳamiяti nimada?
4. Dars jarayonida tabiiy materiallardan foydalanishda қандай хавfsizlik qoidalariga amal qilinadi?
5. Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarda қандай ijodiy ko'nikmalarni rivojlantiradi?
6. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etishda o'qituvchining vazifalari nimalardan iborat?
7. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarining asosiy maqsadi nima?
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiy materiallardan asosan nimalar yasaydi?
9. Tabiiy materiallardan foydalanishda nimalarga e'tibor berish kerak?
10. Barg va gullardan asosan qanday ishlanmalar tayyorlanadi?
11. Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarida qaysi metod ko'proq qo'llaniladi?

12. Tosh va urug‘lardan qaysi buyumlarni tayyorlash mumkin?
13. Tabiiy materiallar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari nima uchun muhim?
14. Shoxcha va novdalar yordamida qanday ishlar bajarilishi mumkin.
15. Quruq barg va urug‘lar bilan ishlash mashg‘ulotlarida qanday vositalar kerak bo‘ladi?

15-mavzu. Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fanining ahamiyati.
2. Yengil havodor plastilin va loyning xususiyatlari .
3. Darsni tashkil etish usullari .
4. Dars bosqichlari .
5. Ishlash texnikasi va qoidalari .
6. O‘quvchilar ishlarini baholash mezonlari .

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: yengil havodor plastilin, loy (gil), amaliy san’at, modellash, mayda motorika, ijodkorlik, ko‘rgazmali metod, amaliy mashg‘ulot, kompozitsiya, shakl va hajm, proporsiya, texnika xavfsizligi, gigiena, pedagogik metodika.

Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fani o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. U nafaqat amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki o‘quvchilarning fikrlash doirasi va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. O‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirish. Texnologiya darslari jarayonida o‘quvchilar turli materiallar (plastilin, loy, qog‘oz, tabiiy materiallar) bilan ishlaydi.

Bu esa ularga, yangi g‘oyalar yaratish, tasavvurini boyitish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Ijodiy faoliyat orqali o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini namoyon qiladi va estetik didini shakllantiradi. Mayda motorikani rivojlantirishda qo‘l barmoqlari orqali bajariladigan amaliy ishlar (yasash, burish, kesish, shakl berish) mayda motorikani rivojlantiradi. Bu esa, yozish ko‘nikmalarini yaxshilaydi, nutq rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, harakatlarni muvofiqlashtirishni kuchaytiradi. Shu sababli texnologiya darslari o‘quvchilarning fiziologik rivojida ham

muhim ahamiyatga ega. Tafakkurni shakllantirishda texnologiya fanining yana bir muhim jihati - mantiqiy va amaliy tafakkurni rivojlantirishdir. Dars jarayonida o'quvchilar, reja asosida ishlashni, bosqichma-bosqich fikrlashni, muammolarni hal qilishni o'rganadilar.

Bu jarayon ularni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradi. Boshlang'ich ta'limda texnologiya fani o'quvchilarning ijodkorligi, mayda motorikasi va tafakkurini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki amaliy ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yengil havodor plastilin va loy xususiyatlari boshlang'ich ta'limda keng qo'llaniladigan materiallardan bo'lib, ular o'quvchilarning ijodiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ularning bir qator muhim xususiyatlari mavjud. Yengil havodor plastilin va loyning eng muhim xususiyatlaridan biri — plastiklikdir. Bu xususiyat materialga osonlik bilan, turli shakllar berish, o'zgartirish va qayta ishlash, mayda detallar yasash, imkonini beradi. Plastiklik o'quvchilarning tasavvurini amalga oshirishda katta yordam beradi. Yengil havodor plastilin va loy yumshoq va qo'lga mos bo'ladi. Bu esa o'quvchilar uchun ishlashni osonlashtiradi, barmoqlarni ortiqcha zo'riqtirmaydi, xavfsiz va qulay muhit yaratadi. Yumshoqlik ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhim hisoblanadi.

Ushbu materiallar odatda tabiiy yoki zararsiz tarkibdan iborat bo'ladi. Shu sababli, bolalar salomatligiga zarar yetkazmaydi, atrof-muhitga xavf tug'dirmaydi, ta'lim jarayonida xavfsiz qo'llaniladi. Bu esa ularni maktab amaliyotida ishlatish uchun juda qulay qiladi.

Yengil havodor plastilin va loydan qayta-qayta foydalanish mumkin. Ya'ni yasalgan buyumni o'zgartirish mumkin, yangi shakllar yasash imkoni bor. Material tejamkorlik bilan ishlatiladi. Bu xususiyat o'quvchilarga xatolarini to'g'rilash va tajriba qilish imkonini beradi. Yengil havodor plastilin va loy o'zining plastikligi, yumshoqligi, ekologik xavfsizligi va qayta ishlash imkoniyati bilan boshlang'ich ta'limda eng samarali va qulay materiallardan biri hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yengil havodor plastilin va loy bilan ishlash jarayoni bolalarda nafaqat qo'l mehnati ko'nikmalarini, balki fikrlash, tasavvur va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Dars samaradorligi esa, avvalo, uni qanday usullar asosida tashkil etilganiga bog'liq. Shuning uchun pedagog turli metodlardan oqilona foydalanishi zarur. Darsni tashkil etish usullari — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy faoliyatni samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan pedagogik yo'llardir. Ushbu usullar orqali bilim berish, ko'nikma hosil qilish va tarbiyalash vazifalari amalga oshiriladi. Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlash darslarida quyidagi usullar keng qo'llaniladi namoyish (ko'rgazmali metod), amaliy mashg'ulotlar, guruhli ishlash, yakka tartibda ishlash.

Namoyish (ko'rgazmali metod)

Namoyish usulining mohiyati - o'qituvchi ish jarayonini ko'rsatish orqali tushuntirish olib boradi. Bu usul ayniqsa boshlang'ich sinflarda juda samarali hisoblanadi, chunki o'quvchilar ko'rish orqali yaxshiroq qabul qiladilar

Yengil havodor plastilin va loy misolida namoyish – o'qituvchi yengil havodor plastilindan, olma yasashni bosqichma-bosqich ko'rsatadi, loydan oddiy idish shaklini yaratadi, barmoq harakatlarini tushuntiradi (yo'maloqlash, cho'zish, ezish)

Namoyish usulining afzalliklari - materialni tez tushunishga yordam beradi, xatolarni kamaytiradi, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi

Qo'llashdagi talablar - harakatlar aniq va sekin ko'rsatilishi kerak, barcha o'quvchilar ko'ra olishi ta'minlanadi, tushuntirish oddiy va ravshan bo'lishi lozim.

maliy mashg'ulotlar ahamiyati o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etadi. Bu jarayonda ular bilimlarni amalda qo'llaydilar. Yengil havodor plastilin va loyda amaliy ishlar. Misollar:



1-rasm.Meva va sabzavotlar yasash



2-rasm.Hayvonlar modellash

Amaliy ish bosqichlarida topshiriqni tushunish, reja tuzish, bajarish va tekshirish. Afzalliklari, mustaqillikni rivojlantiradi, tajriba orttirish imkonini beradi, ijodkorlikni oshiradi.. Yengil havodor plastilin va loy misoli “Bog” kompozitsiyasi, “Hayvonlar olami”, “Qishloq manzarasi” guruhli ishlash usulida o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlaydilar va birgalikda natijaga erishadilar.

Afzalliklari, hamkorlikni rivojlantiradi, mas’uliyat hissini oshiradi, muloqotni kuchaytiradi.

Kamchiliklari, ba’zi o‘quvchilar faol bo‘lmasligi mumkin, vaqtni nazorat qilish qiyin.

Yakka tartibda ishlash Mohiyatida Har bir o‘quvchi mustaqil ishlaydi va shaxsiy natijaga erishadi. Misollar erkin mavzuda ish, shaxsiy ijodiy loyiha, individual modellash.

Afzalliklari mustaqil fikrlash rivojlanadi, shaxsiy qobiliyatlar ochiladi, ijodiy yondashuv kuchayadi. Usullarni uyg‘unlashtirishda darsda birgina usuldan emas, balki ularning uyg‘unligidan foydalanish samaralidir. Masalan: a)namoyish. b)amaliy ish. v) guruhli faoliyat.g) yakka ish. bu ketma-ketlik darsni qiziqarli va mazmunli qiladi. O‘qituvchining roli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, nazorat qiladi, rag‘batlantiradi, yordam beradi. Uning pedagogik mahorati dars natijasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy yondashuvlarda, interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, kreativ topshiriqlar. Bu usullar dars samaradorligini oshiradi. Dars samaradorligini oshirish omillari, yaxshi tayyorgarlik, aniq reja, ko‘rgazmali materiallar, individual yondashuvlardan iborat. Amaliy tavsiyalar, oddiydan murakkabga o‘tish, o‘quvchi yoshiga mos topshiriqlar berish, rag‘batlantirishdan foydalanish xavfsizlikka rioya qilish.

Darsni tashkil etish usullari — ta’lim jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda namoyish, amaliy mashg‘ulotlar, guruhli va yakka tartibda ishlash usullarini to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu usullar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlaydigan, faol va ijodkor shaxs sifatida shakllanadilar.

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan texnologiya fani alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, yengil havodor plastilin va loy bilan ishlash darslari o'quvchilarning nafaqat qo'l mehnati ko'nikmalarini, balki fikrlash, tasavvur va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Yengil havodor plastilin plastilin va loy kabi materiallar bilan ishlash o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali bo'lib, ular orqali o'quvchilar o'z fikrlarini amaliy shaklda ifodalaydilar. Shuning uchun mazkur darslarni to'g'ri tashkil etish, metodik jihatdan asoslash va samarali o'tkazish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya fani ahamiyati o'quvchilarni hayotga tayyorlashda muhim o'rin egallaydi. Ushbu fan orqali o'quvchilar turli materiallar bilan ishlash, buyumlar yaratish va amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Texnologiya darslari avvalo o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi. Ular turli shakllar yasash, yangi g'oyalar o'ylab topish va ularni amalga oshirish jarayonida o'z qobiliyatlarini namoyon etadilar. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil fikrlash va erkin ijod qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, ushbu darslar mayda motorikani rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Qo'l barmoqlari orqali bajariladigan harakatlar yozish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mayda motorikaning rivojlanganligi bolaning nutqi va fikrlash qobiliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Texnologiya darslari tafakkurni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar ish jarayonida reja tuzish, bosqichma-bosqich harakat qilish va muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Bu esa ularda mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Yengil havodor plastilin va loy boshlang'ich ta'limda keng qo'llaniladigan materiallar hisoblanadi. Ular qator muhim xususiyatlarga ega.

Birinchi navbatda, ularning plastikligi ajralib turadi. Bu xususiyat materialga osonlik bilan turli shakllar berish imkonini yaratadi. O'quvchilar o'z tasavvurlarini erkin ifodalay oladilar.

Ikkinchi muhim jihat — yumshoqlik. Yengil havodor plastilin va loy qo'lga mos bo'lib, bolalar uchun ishlashni osonlashtiradi. Bu esa ularda qiziqishni oshiradi.

Uchinchi xususiyat — ekologik xavfsizlik. Ushbu materiallar odatda zararsiz bo'lib, bolalar salomatligiga xavf tug'dirmaydi.

To'rtinchi jihat — qayta ishlash imkoniyati. Yengil havodor plastilin va loyni qayta-qayta ishlatish mumkin, bu esa o'quvchilarga tajriba qilish va xatolarni to'g'rilash imkonini beradi.

Darsni samarali tashkil etish uchun turli pedagogik usullardan foydalanish zarur. Namoyish usuli eng muhim usullardan biri bo'lib, o'qituvchi ish jarayonini ko'rsatib beradi. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar mustaqil ishlashni o'rganadilar. Bu ularning ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Guruhli ishlash o'quvchilarda hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yakka tartibda ishlash esa shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Darsni aniq bosqichlar asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Tashkiliy qismda o'quvchilar darsga tayyorlanadi. Yangi mavzu tushuntiriladigan bosqichda material xususiyatlari va ish usullari bayon qilinadi. Amaliy ish bosqichida o'quvchilar mustaqil ravishda buyumlar yasaydilar.

Mustahkamlash bosqichida esa natijalar tahlil qilinadi. O'quvchilarning ishlari ijodkorlik, aniqlik, tozalik va mavzuga moslik asosida baholanadi. Rag'batlantirish usullari o'quvchilarni yanada faollashtiradi. Dars samaradorligini oshirish uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanish, innovatsion usullarni joriy etish va qiziqarli topshiriqlar berish zarur.

Ijodiy topshiriq bergan vaqtda o'quvchilarga hayvonlar, o'simliklar va turli buyumlar yasash kabi topshiriqlar berish mumkin. Bu ularning qiziqishini oshiradi.

O'qituvchining roli dars jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatadi, yordam beradi va o'quvchilarni rag'batlantiradi. Uning mahorati dars samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlash darslari

o‘quvchilarni hayotga tayyorlaydi, ularda mehnatsevarlik va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlash darslari boshlang‘ich ta’limda muhim ahamiyatga ega. Ushbu darslar orqali o‘quvchilarning ijodkorligi, mayda motorikasi va tafakkuri rivojlanadi. Darslarni to‘g‘ri tashkil etish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu esa kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda o‘quvchilarning xavfsizligi va samarali faoliyatini ta’minlash uchun maxsus texnika va qoidalarga rioya qilish zarur. Bu qoidalar o‘quvchilarning salomatligini muhofaza qiladi, materialdan to‘liq foydalanish imkonini beradi va dars jarayonini tizimli tashkil etadi.

Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda turli asboblardan foydalaniladi.

1. **Plastmassa pichoqlar va kalyaklar** – shakl berish, kesish, burish uchun.
2. **Yomalovchi kaltaklar, relief asboblari** – bezash va detallar uchun.
3. **Tasma va qog‘ozlar** – modelni ko‘rgazmali bezashda.
4. **Sabzavot-qatlamlash asboblari (shpatel, qaychi)** – cho‘zish va qismlarni biriktirish

Qoidalar: Asboblarni faqat belgilangan maqsadda qo‘llash, Har doim tartibli va tozaligini saqlash, O‘quvchi tomonidan asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish. Asboblarni noto‘g‘ri ishlatish o‘quvchilar uchun xavfli bo‘lishi mumkin, shuning uchun ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish muhim. Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda o‘quvchilarning salomatligini saqlash uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- a) **Materialni og‘izga solmaslik** – plastilin va loy nafaqat qo‘lda, balki og‘izda ham xavfli bo‘lishi mumkin.
- b) **Qo‘llarni juda qattiq bosmaslik** – ortiqcha zo‘riqtirish mayda motorika uchun zararli.
- v) **Asboblarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash** – pichoq va qaychini noto‘g‘ri ishlatishdan saqlanish.
- g) **Ish o‘rinlarini tartibda saqlash** – tushib ketadigan asboblari va materiallar jarohat keltirishi mumkin.

d) **Dars davomida nazorat** – o‘qituvchi bolalarning harakatini kuzatib, xatolarni to‘g‘rilaydi. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bolalarning darsga qiziqishini saqlaydi va to‘liq ijodiy faoliyat olib borish imkonini beradi.

Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda gigiena qoidalari ham muhim ahamiyatga ega. Ular orqali kasalliklar va infeksiya tarqalishi oldi olinadi.

Asosiy talablar:

- darsdan so‘ng qo‘llarni sovun va suv bilan yaxshilab yuvish;
- ish o‘rinlarini toza saqlash;
- qo‘llarda qattiq qilib, tirnaklarni tekshirish va tozalash;
- ashyo va materiallardan foydalanishdan oldin qo‘llarni yuvish

Shuningdek, bolalar o‘z kiyimlarini chirkin va qo‘llanishga tayyor holda saqlashlari kerak.

Qo‘llanma tavsiyalar Material va asboblarning har doim tartibda bo‘lishi lozim, Darsda har bir bola o‘z ish joyini tozaligi bilan ta‘minlashi kerak, Plastilin va loydan foydalanganda qo‘llarni yuvish va suvdan foydalanish odatini rivojlantirish, Xar bir jarayonda o‘qituvchi nazoratini ta‘minlash. Bu qoidalarining barchasi dars samaradorligini oshiradi va bolalarning ijodiy faoliyatini xavfsiz muhitda tashkil etish imkonini beradi. Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda ishlash texnikasi va qoidalari — darsning muhim qismi. Asbob-uskunalaridan to‘g‘ri foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va gigiena talablarini bajarish orqali o‘quvchilar nafaqat o‘z salomatligini saqlaydilar, balki darsdan maksimal foyda oladilar.

Shu tarzda metodik jihatdan asoslangan ishlash jarayoni bolalarning ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Dars jarayonida o‘quvchilarning faoliyati va natijalariga asosli baho berish uchun aniq mezonlar qo‘llanilishi zarur. Bu mezonlar nafaqat ularning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini baholashga yordam beradi, balki samarali rag‘batlantirish uchun asos ham hisoblanadi. Ijodiy yondashuv mohiyatida o‘quvchilarning ishlari qanchalik original, fantaziyaga boy va mustaqil qila olganini baholash.

Ko'rsatkichlar:

- yangi va g'ayrioddiy g'oyalar qo'llanilgani;
- turli shakl va materiallarni birlashtirish imkoniyati;
- muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyati

Misol:

1. Yengil havodor plastilindan standart meva yasash o'rniga turli ko'rinishdagi yoki fantastik obraz yaratish.



3-rasm

2. Loydan oddiy idish o'rniga dekoratsiyalangan miniatyura kompozitsiya qilish.



4-rasm.

Aniqlik va tozalik *mohiyati* ishning amaliy va estetik jihatdan tozaligi va barqarorligini baholash.

Ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ladi Buyumlarning shakllari aniq va bir xil bo‘lishi, Qismlar bir-biriga mustahkam va to‘g‘ri biriktirilgani, Yasalgan buyumning toza va salohiyatli ko‘rinishi. Ishning dars mavzusiga qanchalik mos kelishi va belgilangan topshiriq talablariga amal qilinishi.

Ko‘rsatkichlar:

- belgilangan topshiriqni to‘liq bajarish;
- mavzu asosida shakl va dizayn yaratish; dars davomida ko‘rsatilgan texnikalardan samarali foydalanish

Misol. Agar topshiriq “Bog‘ manzarasi” bo‘lsa, o‘quvchi loy va plastilindan daraxt, gul va hayvonlarni yasab, topshiriq talablariga to‘liq javob berishi.



5-rasm

O‘quvchilarning ishlarini baholash uchun shkala qo‘llanilishi mumkin:

№	Mezon	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
1	Ijodiy yondoshuv	Juda original va mustaqil	Biroz original	Oddiy	Ijodiy yondoshuv yo‘q
2	Aniqlik va tozalik	Juda tozaligi va aniqligi bilan ajralib turadi	Biroz xato va nozik kamchiliklar	Ko‘p xatolar	To‘liq noto‘g‘ri va qoralashgan

3	Mavzuga mosligi	Mavzuga to'liq mos	Aksariyat bilan mos	Ko'p jihatlari mos emas	Mavzuga to'liq mos emas
---	------------------------	--------------------	---------------------	-------------------------	-------------------------

Bu shkala orqali o'quvchilarning har bir sohadagi ko'nikmalari aniq baholanadi va ularning ijodiy faoliyati rag'batlantiriladi.

Qo'shimcha tavsiyalar. Birinchidan baxolash jarayonida ijobiy fikr va rag'batlantirishdan foydalanish. Ikkinchidan topshiriqni baholashda har bir o'quvchining individual salohiyatiga e'tibor berish. Uchinchidan kichik xatolarni tuzatish va qayta ishlash imkonini berib, amaliyotdagi ko'nikmalarni kuchaytirish

O'quvchilar ishlarini baholash mezonlari — dars samaradorligini oshirishda asosiy vosita. Ijodiy yondashuv, aniqlik va tozalik, mavzuga moslik kabi ko'rsatkichlar orqali pedagog bolalarning bilim va ko'nikmalarini ob'ektiv baholay oladi va ularni rag'batlantirish imkonini yaratadi. Bu sistema, ayniqsa, yengil havodor plastilin va loy bilan ishlashda o'quvchilarning amaliy va estetik ko'nikmalarini rivojlantirishda samaralidir

Nazorot va muhokama savollar:

1. Yengil havodor plastilin bilan ishlash mashg'ulotining asosiy maqsadi nima?
2. Loy bilan ishlash darslarida bo'quvchil odatda nima yasaydi?
3. Yengil havodor plastilin qaysi xususiyatlari tufayli boshlang'ich ta'limda keng qo'llaniladi?
4. Loy bilan ishlash darslarida asosan qanday vositalardan foydalaniladi?
5. Yengil havodor plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar nimalarni o'rganadi?
6. Yengil havodor plastilin bilan ishlash darslarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?
7. Loy bilan ishlash darslarida xavfsizlik qoidalari nimalarni o'z ichiga oladi?
8. Yengil havodor plastilin bilan ishlash mashg'ulotlari qaysi pedagogik prinsipka asoslanadi?

9. Loydan buyum yasash jarayonida o'quvchilarda qanday fazilatlar rivojlanadi?

10. Yengil havodor plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarida qaysi topshiriq eng ko'p qo'llaniladi?

11. Loy bilan ishlashda ishlatiladigan "angob" nima?

12. Yengil havodor plastilin bilan ishlash darsida ranglarning uyg'unligini tanlashning pedagogik ahamiyati nimada?

13. Yengil havodor plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib ishlatishning maqsadi nima?

14. Yengil havodor plastilin va loy bilan ishlash mashg'ulotlari bo'quvchilda qaysi tarbiyaviy fazilatlarni shakllantiradi?

15. Loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlari yakunida o'quvchilar qanday natijaga erishadi?

16-mavzu. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Gazlama bilan ishlashning ahamiyatini tushuntirish.
2. Gazlama turlari (tabiiy, sun'iy, sintetik)
3. Gazlamaning xususiyatlari (mustahkamlik, elastiklik, havo o'tkazuvchanlik).
4. Oddiy tikish usullarini o'rgatish .
5. Andaza (shablon) asosida ishlash .
6. Kichik buyum (masalan: salfetka, qopcha) tayyorlash
7. Individual va guruhli ishlarni tashkil qilish
8. Amaliy ish natijalarini tahlil qilish
9. Xatolarni ko'rsatish va tuzatish.
10. Darsni xulosalash
11. O'quvchilarni baholash va Uyga vazifa berish (yangi namuna tayyorlash yoki nazariy savollar

Mavzuga oid tayanch tushunchalar; *gazlama, tola (tabiiy va sun'iy), to'qima (mato tuzilishi), andaza, tikuvchilik asboblari, qo'l choklari, mashina choklari, dizayn, texnologik jarayon, viskoza, modal, asetat, mehnat xavfsizligi, estetik tarbiya, amaliy ko'nikma, kreativlik, modellashtirish*

Gazlama — inson hayotida muhim o‘rin tutadigan materiallardan biri hisoblanadi. U kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari, sanoat mahsulotlari tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Gazlama bilan ishlash nafaqat kasbiy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham zarur ko‘nikma hisoblanadi.

Gazlamalar tabiiy, sun‘iy va sintetik turlarga bo‘linadi:

- **tabiiy gazlamalar** (*paxta, ipak, jun*) — havo o‘tkazuvchanligi va qulayligi bilan ajralib turadi;
- **sun‘iy gazlamalar** — tabiiy xomashyodan qayta ishlanib olinadi;
- **sintetik gazlamalar** — mustahkamligi va arzonligi bilan ahamiyatli.

Gazlama turlarini bilish ularni to‘g‘ri tanlash va ishlatishda muhim ahamiyatga ega.

Gazlama bilan ishlash quyidagi jihatlar bilan ahamiyatli:

- **kasbiy ahamiyati** - tikuvchilik, dizayn va to‘qimachilik sohalarida ishlash uchun asosiy ko‘nikma hisoblanadi;
- **iqtisodiy foyda** - kiyimlarni o‘z qo‘li bilan tayyorlash yoki ta‘mirlash orqali mablag‘ni tejash mumkin.
- **ijodiy rivojlanish** - gazlama bilan ishlash insonning fantaziyasi va estetik didi rivojlantiradi;
- **mustaqillikni oshirish** - oddiy ta‘mir ishlarini mustaqil bajarish imkonini beradi.

Hozirgi kunda moda va dizayn sohasining rivojlanishi gazlama bilan ishlash ahamiyatini yanada oshirdi. Milliy liboslar, zamonaviy kiyimlar va interer buyumlari yaratishda bu ko‘nikmalar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Gazlama bilan ishlash — bu faqatgina kasb emas, balki hayot uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmadir. U insonning ijodiy, iqtisodiy va mustaqillik jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bu sohani o‘rganish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Gazlama bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar qo‘l mehnati ko‘nikmalarini egallaydi, tikuvchilik asoslarini o‘rganadi, asbob-uskunalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilib oladi.

O‘quvchilar gazlama bilan ishlashda turli rang va shakllar bilan ishlash orqali ijodiy fikrlash kuchayadi, dizayn va bezak berish ko‘nikmalari shakllanadi, go‘zallikni his qilish qobiliyati rivojlanadi, o‘quvchilar

mehnat qadrini anglaydi, sabr-toqat va aniqlikka o‘rganadi va boshlagan ishni oxiriga yetkazish odati paydo bo‘ladi. Gazlama bilan ishlash nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki ijodkorlik, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi muhim sifatlarni ham shakllantiradi. Shuning uchun bu yo‘nalish ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda gazlama inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari, sanoat mahsulotlari tayyorlashda gazlama keng qo‘llaniladi. Shuning uchun o‘quvchilarni erta yoshdan boshlab gazlama turlari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda bu mavzunu o‘qitish orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar. Ular turli matolarni ajratish, ularning xususiyatlarini anglash va to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadilar.

Gazlama sifatini belgilaydigan omillar mustahkamlik, yumshoqlik, elastiklik, havo o‘tkazuvchanlik, namni singdirish xususiyati ega.

Tabiiy gazlamalar tabiatdan olinadigan tolalardan tayyorlanadi. Ular o‘simlik tolalaridan olinadigan paxta,zig‘ir. Hayvon tolalaridan jun va ipak manbaiga ega. Quyidagi xususiyatga ega birinchidan ekologik toza,.ikkinchidan tanani nafas oldiradi, to‘rtinchidan allergiya kam chiqaradi, beshinchidan yumshoq va qulay. Afzaliklari sog‘lik uchun xavfsiz va qulaylik yaratadi. Shu bilan kamchiliklari ham bor oson g‘ijimlanadi, ayrimlari qimmat.

Sun‘iy gazlamalar tabiiy tolalarga kimyoviy ishlov berish orqali tayyorlanadi.

Turlari



Viskoza- *sellyulozadan maxsusyo‘l bilan ishlab olinadigan yopishqoq modda va undan tayyorlangan sun‘iy ipak*



Modal – *mato olxa daraxti yog‘och pullasidan tayyorlangan rayonning bir turi. Bu ko‘pincha kiyim-kechak,choyshablar va to‘qimachilikda ishlatiladi.*

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida texnologiya fanining o'rni beqiyosdir. Mazkur fan o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Oddiy tikish usullarini o'rgatish ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u bolalarda mayda motorika, diqqat, sabr-toqat va estetik didni shakllantiradi. Shu sababli mazkur mavzuda ilmiy-metodik tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya fani o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan bo'lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Pedagogik nuqtai nazardan texnologiya ta'limi faoliyat orqali o'qitish tamoyiliga asoslanadi. Bu yerda o'quvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi.

Tikish ishlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

1. ***Psixologik jihatdan*** - diqqat, sabr-toqat, iroda tarbiyalanadi.
2. ***Fiziologik jihatdan*** - qo'l barmoqlari harakati rivojlanadi.
3. ***Estetik jihatdan*** - go'zallikni his qilish qobiliyati oshadi. Shuningdek, tikish orqali o'quvchilar milliy hunarmandchilik an'analari bilan tanishadilar.

Boshlang'ich sinflarda quyidagi tikish turlari o'rgatiladi:

To'g'ri tikish - eng sodda usul bo'lib, o'quvchilar uchun boshlang'ich bosqich hisoblanadi.

Qaytarma tikish - mustahkamligi bilan ajralib turadi, amaliy ahamiyatga ega.

Ilmoqli tikish - bezak berish va mato chetini mustahkamlashda ishlatiladi.

Yopiq tikish - matolarni biriktirishda qo'llaniladi. Har bir usul bosqichma-bosqich, osondan qiyinga qarab o'rgatiladi.

Samarali ta'lim uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Birinchi ko'rgazmali metod — namoyish qilish.

Ikkinchi amaliy metod — mustaqil ishlash.

Uchinchi interaktiv metod— guruhli ish, o'yinlar.

To'rtinchi axborot texnologiyalari — video va prezentatsiyalar. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya darslarida o'quvchilarning qo'l mehnatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda ijodkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Andaza (shablon) asosida ishlash — bu texnologiya darslarida keng qo'llaniladigan samarali usullardan biri bo'lib, u o'quvchilarga aniq, to'g'ri va sifatli buyumlar tayyorlashni o'rgatadi. Mazkur usul orqali o'quvchilarda tartibli ishlash, aniqlik va tejamkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

Texnologiya ta'limi o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan fan bo'lib, unda turli ish usullari qo'llaniladi.

Shulardan biri — andaza asosida ishlashdir. Andaza quyidagi imkoniyatlarni beradi buyumlarni bir xil o'lchamda tayyorlash, vaqtni tejash, ish sifatini oshirish va xatolarni kamaytirish. Shuningdek, andaza orqali o'quvchilar chizma va modellashtirish elementlari bilan tanishadilar.

Andaza — bu buyumni tayyorlashda qo'llaniladigan oldindan belgilangan shakl va o'lchamga ega namuna hisoblanadi. Andazaning turlari, qog'oz andaza, karton andaza, plastik andaza va matodan tayyorlangan andazalar. Andazaning qo'llanilishiga ko'ra, oddiy andazalar, murakkab andazalar. Har bir turi darsning maqsadiga qarab tanlanadi. Andaza asosida ishlashning pedagogik ahamiyati. Andaza

bilan ishlash o'quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi aniqlik va diqqat, mehnat madaniyati, tejamkorlik va ijodiy fikrlashni. Psixologik jihatdan, andaza bilan ishlash bolalarda ishga bo'lgan ishonchni oshiradi, chunki ular aniq natijaga erishadilar

Andaza tayyorlash quyidagi besh bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich buyumni tanlash.

Ikkinchi bosqich o'lchamlarni belgilash

Uchinchi bosqich chizma tayyorlash.

To'rtinchi bosqich qog'ozga tushirish.


Beshinchi bosqich qirqib olish. Bu jarayonda o'quvchilar geometrik tushunchalarni ham o'zlashtiradilar.

Texnologiya darslarida andaza bilan ishlash metodikasida o'qituvchi darsni samarali tashkil etish uchun quyidagi metodlardan foydalanadi:

1. **Ko'rgazmali metod** — tayyor andazani ko'rsatish
2. **Amaliy metod** — o'quvchilar mustaqil ishlaydi
3. **Tushuntirish metodi** — bosqichlarni izohlash
4. **Interaktiv metodlar** — guruhlarda ishlash. Darsda bosqichma-bosqich o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilar andazani matoga joylashtiradi, belgilash ishlarini bajaradi, kesish va tikish ishlarini amalga oshiradi

Misol uchun:



1- rasm .Oddiy sumkacha

Bu ishlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Texnologiya darslarida andaza asosida ishlash o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali o'quvchilar aniq, tartibli va samarali ishlashni o'rganadilar.

Andaza bilan ishlash nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shu sababli bu usulni ta'lim jarayonida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Andaza asosida ishlash o'quvchilarga tartibli va aniq ishlashni o'rgatadi. Bu usul orqali ular chiroyli va sifatli buyumlar tayyorlashni o'rganadilar. Kichik buyum tayyorlash jarayoni o'quvchilar uchun juda qiziqarli va foydali hisoblanadi. Bu orqali ular o'z qo'llari bilan buyum yaratishni o'rganadilar va mehnatdan zavq oladilar.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnologiya darslarida bu jarayon yanada muhim bo'lib, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashi aynan shu darslarda shakllanadi.

Individual va guruhli ishlarni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, ularni hamkorlikda ishlashga o'rgatish mumkin. Shu sababli mazkur mavzu dolzarb hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi amaliy faoliyatga asoslangan bo'lib, u o'quvchilarni mehnat jarayoniga tayyorlaydi. Bu jarayonda o'qitishning turli shakllari qo'llaniladi individual ish, guruhli ish va frontal (jamoaviy) ish.

Bu shakllar bir-birini to'ldiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Individual ish — bu har bir o'quvchining mustaqil ravishda topshiriqni bajarishidagi ahamiyati mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, shaxsiy mas'uliyatni oshiradi va o'quvchining qobiliyatini namoyon etadi. Individual ish texnologiya darslarida ayniqsa muhim, chunki har bir o'quvchi o'z qo'li bilan buyum tayyorlaydi. Guruhli ish tushunchasi va uning xususiyatlari bu bir necha o'quvchidan hamkorlikda ishlash, vazifalarni taqsimlash, iborat jamoaning birgalikda ish olib borishidir. Bu usul o'quvchilarda muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Individual ishni tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarga topshiriqlarni o'quvchi darajasiga moslash, aniq ko'rsatmalar berish va nazorat va yordam ko'rsatish e'tibor qaratishi lozim.

Texnologiya darslarida individual va guruhli ishlarni samarali tashkil etish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Individual ish o'quvchining mustaqilligini oshirsa, guruhli ish hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida har ikki usuldan maqsadli va o'rinli foydalanishi lozim.

Amaliy ish natijalarini tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z xatolarini anglaydilar, ish sifatiga baho berishni o'rganadilar va kelgusida ishni yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Amaliy ish natijalarini tahlil qilish — bu o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishni har tomonlama ko'rib chiqish, uning sifati va kamchiliklarini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi, ish natijasini ko'zdan kechirish, xatolarni aniqlash, sabablarini tushuntirish, xulosa chiqarish. Tahlil jarayoni ta'limning muhim bosqichi bo'lib, u bilimlarni mustahkamlaydi.

Amaliy ish natijalarini tahlil qilish — bu o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishni har tomonlama o'rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash jarayonidir. Tahlil jarayonida, ish sifati baholanadi, xatolar aniqlanadi, ularning sabablari tushuntiriladi, kelgusi ishlar uchun xulosa chiqariladi, Bu jarayon o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tahlil qilishning pedagogik ahamiyati quyidagi bilimlarni mustahkamlaydi, bilimlarni mustahkamlaydi, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradigan jihatlar bilan ahamiyatlidir. Tarbiyaviy ahamiyati mas'uliyat hissini oshiradi, intizomni shakllantiradi mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi

Texnologiya darslarida gazlama (mato) bilan ishlash o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda o'quvchilar kesish, tikish, andaza bilan ishlash kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Ammo bu jarayonda turli xatolar yuzaga kelishi tabiiy holdir. Shuning uchun o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri ushbu

xatolarni o'z vaqtida aniqlash, tushuntirish va to'g'rilashdir. Gazlama bilan ishlash darslarining ahamiyati amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, qo'l mehnatini takomillashtiradi, estetik didni shakllantiradi, mustaqillikni oshiradi. Bu darslar o'quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlaydi.

Gazlama bilan ishlash darslari quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Tashkiliy qism o'quvchilarni tayyorlash, asboblarni tekshirish.
2. Yangi mavzu bayoni mato turlari, ish usullari tushuntiriladi.
3. Ko'rgazmali namoyish o'qituvchi amaliy ko'rsatib beradi.
4. Amaliy ish o'quvchilar mustaqil ishlaydi.
5. Tahlil va baholash ishlar ko'rib chiqiladi.

Gazlama bilan ishlashda o'quvchilar quyidagi xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin:

- kesishda xatolar andazani noto'g'ri joylashtirish, chiziqdan chetga chiqib kesish, matoni isrof qilish;
 - tikishda xatolar tikishning qiya bo'lishi, ipni noto'g'ri tortish, tikish masofasini saqlamaslik;
 - o'lchamda xatolar noto'g'ri o'lchash, andazani noto'g'ri chizish;
 - tozalikka oid xatolar ishning notoza bajarilishi, ortiqcha iplarni qoldirish.
- O'qituvchi quyidagi usullar orqali xatolarni aniqlaydi kuzatish, savol-javob, ishlarni taqqoslash, namuna bilan solishtirish. Bu jarayonda o'quvchilar ham faol ishtirok etishi muhim.

Xatolarni tuzatishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- individual yondashuv har bir o'quvchining xatosi alohida tushuntiriladi;
- ko'rgazmali tushuntirish xato amalda ko'rsatib beriladi;
- qayta bajarish o'quvchi ishni qayta to'g'ri bajaradi;
- ijobiy yondashuv tanqid emas, rag'batlantirish asos bo'lishi kerak.

Quyidagi usullar orqali xatolar kamaytiriladi:

- ishni bosqichma-bosqich tushuntirish;
- namunalar ko'rsatish;
- aniq ko'rsatmalar berish;
- doimiy nazorat.

Texnologiya darslarida gazlama bilan ishlash jarayonida xatolar tabiiy holdir. Muhimi ularni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘rilashdir. Samarali metodika orqali o‘quvchilar o‘z xatolarini anglaydilar va kelgusida ularni takrorlamaslikka harakat qiladilar. Bu esa ta’lim sifatini oshiradi.

Xatolarni ko‘rsatish va tuzatish — darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon orqali o‘quvchilarda o‘z ishlarini tahlil qiladi, xatolarini tuzatadi, va kelgusida sifatli va estetik mahsulot tayyorlashni o‘rganadilar.

Amaliy darsni xulosalash uchun qadamma-qadam sxema

Qadam 1: Mahsulotlarni ko‘rsatish.

Har bir o‘quvchi yoki guruh o‘z tayyorlagan sumkacha yoki boshqa buyumini taqdim qiladi.

Qadam 2: Muhokama va savol-javob

1. O‘qituvchi quyidagi savollarni beradi:
 - 2 “Qaysi usuldan foydalanding?”
 3. “Qaysi qirralarda xatolar yuz berdi?”
 4. “Nima yaxshi chiqdi va nima yaxshilashi mumkin?”

Qadam 3: O‘qituvchi bayonoti.

1. Yaxshi qo‘llangan usullar va muvaffaqiyatlarni ta’kidlaydi.
2. Kamchiliklarni ko‘rsatib, tuzatish yo‘llarini tushuntiradi

Qadam 4: Baxolash

1. Har bir o‘quvchi yoki guruhning ishlari baholanadi.
2. Faol va mehnatsevar o‘quvchilar rag‘batlantiriladi



Qadam 5: Xulosa chiqarish.

Darsdan o'rgandiklari yodga tushiriladi

Kelgusida qanday usullar samarali ekani muhokama qilinadi

O'quvchilarni baholashda quyidagi bilim, ko'nikma va amaliy faolligini aniqlash, mustaqil va guruhli ishlardagi natijalarini baholash, o'quvchilarda mehnatsevarlik, intizom va mas'uliyat hissini rivojlantirishdan iborat.

Amaliy ko'nikmalarni baholashda tikish, kesish va mato bilan ishlash ko'nikmalari, andoza (shablon) asosida ishlash va kichik buyum (sumkacha, qopcha) tayyorlash.

Faollikni baholash darsda ishtirok etish, savollarga javob berish, guruhda hamkorlik o'quvchilarni mahsulot sifatini baholashda tikishning mustahkamligi, estetika (chiroyli va to'g'ri shakl) va xatolarni aniqlash va tuzatish

O'quvchilarni baholash darsning ajralmas qismi hisoblanadi. To'g'ri va odilona baholash orqali o'quvchilar o'z ko'nikma va bilimlarini baholashni o'rganadi, xatolarini aniqlaydi va tuzatadi, kelgusidagi mashg'ulotlarda samaraliroq ishlashni o'rganadilar. Uyga vazifa berish orqali o'quvchilar darsda o'rgandiklarini mustaqil ravishda qo'llay oladi, amaliy va nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, ijodiy faollik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi

Nazorot va muhokama savollar:

1. Gazlama bilan ishlash darslari deganda nima tushuniladi?
2. Gazlama bilan ishlashda қандай asbob-uskunalardan foydalaniladi?
3. Gazlama bilan ishlash darslarining ta'limiy аҳамияти nimada?
4. Dars jarayonida igna, qaychi va boshqa asboblardan foydalanishda қандай xavfsizlik qoidalariga amal qilinadi?
5. Gazlama bilan ishlash o'quvchilarda қандай amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi?
6. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etishda o'qituvchining vazifalari nimalardan iborat?

7. Gazlama bilan ishlash mashg'ulotlari qaysi pedagogik prinsipka asoslanadi?
8. Gazlama bilan ishlash mashg'ulotlari qaysi fanlar bilan integratsiyalashishi mumkin?
9. Gazlamadan buyum yasashda qaysi ko'nikmalar rivojlanadi?
10. Gazlama bilan ishlash darslarida guruh bo'lib ishlashning maqsadi nima?
bo'quvchilning qaysi fazilatlari rivojlanadi?
11. Gazlama bilan ishlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar qaysi sifatlari bilan tanlanadi?
12. Gazlama bilan ishlash mashg'ulotlarining samaradorligi qachon yuqori bo'ladi?
13. Gazlama bilan ishlash mashg'ulotlarining yakuniy natijasi nimada namoyon bo'ladi?
14. Matolar turlari nimadan iborat? (tabiiy, sun'iy, sintetik).
15. Andaza (shablon) asosida ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
16. Tikish usullari orasida to'g'ri chok va orqa chok qanday farq qiladi?

17-mavzu. Rabototexnika nazariyasi va amaliyoti

Reja:


1. Rabototexnika тушунчаси (robot nima?, robototexnika nima bilan shug'ullanadi?)
2. Robotlarning paydo bo'lish tarixi (ilk robotlar haqida ma'lumot, zamonaviy robotlar rivoji).
3. Robotlarning turlari (sanoat robotlari, maishiy robotlar, tibbiyot va ta'limdagi robotlar)
4. Robotning asosiy qismlari (sensorlar, boshqaruv tizimi, ijro etuvchi mexanizmlar).
5. Rabototexnikaning ahamiyati (kundalik hayotda qo'llanilishi, ishlab chiqarishdagi o'rni).
6. Amaliy qism (oddiy robot modelini yaratish, robot harakatini kuzatish)

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: robot, robototexnika, sensor, datchik, boshqaruv tizimi, mikrokontroller, dvigatel (motor), ijro mexanizmi, algoritmi, dasturlash, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, manipulyator, mobil robot.

Robot nima? Robot — bu inson tomonidan yaratilgan maxsus mashina bo'lib, u turli ishlarni avtomatik ravishda bajara oladi. Robotlar odamlar kabi o'ylamaydi, lekin ularga berilgan dastur asosida harakat qiladi.

Masalan changyutgich robot (uyni tozalaydi), zavodlarda ishlaydigan robot qo'llar, o'yinchoq robotlar. Demak, robot - bu insonga yordam beruvchi aqlli mashinadir.

Robototexnika - bu robotlarni yaratish, ularni dasturlash va boshqarish bilan shug'ullanadigan fan sohasidir. Hozirgi vaqtga kelib fan bo'lib bir nechta sohalarni o'z ichiga oladi mexanika (mexanika robotning tanasi va harakati), elektronika (robotning ichki qurilmalari) va dasturlash (robotga nima qilishni o'rgatish)dan iborat.



Robotlar hayotimizning turli sohalarida ishlatiladi sanoatda (*zavod va fabrikalarda*), tibbiyotda (*operatsiyalarda yordam beradi*), qishloq xo‘jaligida (*ekin ekish va yig‘ishda*), kosmosda (*sayyoralarni o‘rganishda*) va kundalik hayotda (*uy ishlarida*) insonga yordam beruvchi aqlli mashinalardir. Robototexnika esa ularni yaratish va boshqarishni o‘rgatadigan qiziqarli fan hisoblanadi. Kelajakda robotlar yana ham ko‘p sohalarida ishlatilishi mumkin.

Robotlar hozirgi zamonda paydo bo‘lgan emas. Ular haqidagi g‘oyalar juda qadim zamonlardan boshlangan. Qadimda odamlar o‘zi harakatlanadigan mexanizmlar yaratishga harakat qilishgan. Bunday qurilmalar “avtomatlar” deb atalgan.

Qadimgi davrlarda insonlar turli mexanik qurilmalar yaratishga katta qiziqish bildirganlar. Jumladan, Arximed kabi buyuk olimlar mexanika sohasida muhim ixtirolar qilgan. Arximed turli qurilmalar yordamida og‘ir yuklarni ko‘tarish, suvni bir joydan ikkinchi joyga o‘tkazish kabi ishlarni yengillashtirish ustida ishlagan. Masalan, u yaratgan vint (Arximed vinti) suvni yuqoriga chiqarish uchun ishlatilgan. Shuningdek, qadimgi boshqa olimlar ham “o‘z-o‘zidan harakatlanadigan” mexanizmlar yaratishga harakat qilganlar. Bu qurilmalar to‘liq robot bo‘lmasa-da, ular robototexnika rivojiga asos bo‘lgan. Demak, qadimgi olimlarning mexanik qurilmalar ustidagi ishlari bugungi zamonaviy robotlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

O‘rta asrlarda mashhur muhandis Al-Jazariy turli xil avtomatik qurilmalar yaratish bilan shug‘ullangan. U robototexnika tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Al-Jazariy asosan suv kuchi bilan ishlaydigan mexanizmlar yaratgan. Uning qurilmalari avtomatik ravishda harakat qilib, inson ishtirokisiz ishlay olgan.

Uning ixtirolari suv soatlari (vaqtni ko‘rsatadigan qurilmalar), avtomatik suv chiqarish moslamalari musiqa chaluvchi avtomatik figuralar Bu qurilmalar maxsus mexanizmlar va suv bosimi yordamida ishlagan. Al-Jazariyning ishlari hozirgi robototexnika rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U yaratgan avtomatik qurilmalar zamonaviy robotlarning ilk

ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bu qurilmalar haqiqiy robot emas edi, lekin robotlarga o‘xshash mexanizmlar bo‘lgan .

“Robot” so‘zi ilk bor 1920 yilda paydo bo‘lgan. Bu atamani chex yozuvchisi Karel Chapek o‘zining R.U.R. nomli asarida birinchi marta ishlatgan.

Ushbu asarda robotlar insonlar tomonidan yaratilgan sun‘iy ishchilar sifatida tasvirlangan. Ular odamlar o‘rniga ishlab, og‘ir va qiyin vazifalarni bajargan.

Qiziq joyi shundaki, “robot” so‘zi chex tilidagi “mehnat” yoki “majburiy ish” ma’nosini anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan. Shundan so‘ng “robot” atamasi butun dunyoda keng tarqalib, hozirgi zamonaviy texnologiyalarda ham qo‘llanila boshladi. Bu asarda robotlar odamlar o‘rniga ishlaydigan sun‘iy ishchilar sifatida tasvirlangan.

XX asrda texnologiyalar rivojlanib, haqiqiy robotlar yaratila boshlandi.

1950–1960 yillarda zamonaviy sanoat robotlari birinchi marta ishlab chiqildi. Ushbu robotlar asosan zavod va fabrikalarda og‘ir va takroriy ishlarni inson o‘rniga bajarish uchun yaratilgan. Unimate 1950–1960-yillarda ishlab chiqilgan va sanoatda avtomatlashtirishni boshlagan ilk robot hisoblanadi. U AQShda General Motors zavodlarida avtomobil ishlab chiqarishda qo‘llangan. Unimate robotini Djordj Devol ixtiro qilgan va uning texnologik loyihasi asosida sanoat robotlari rivojlangan. Unimate birinchi sanoat roboti sifatida robototexnika rivojida yangi davrni boshlagan. U zavodlarda inson o‘rniga takroriy va og‘ir ishlarini bajarish bilan avtomatlashtirishni joriy qilgan va kelajakdagi robotlarning yaratilishi uchun asos bo‘lgan.

Demak, Unimate nafaqat ilk sanoat roboti, balki zamonaviy robototexnika rivojining pioneri sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Bu robotlar inson mehnatini yengillashtirib, ish samaradorligini oshirgan va sanoatda avtomatlashtirish davrining boshlanishiga zamin yaratgan.

Bugungi kunda zamonaviy robotlar juda tez rivojlanmoqda va yanada “aqlli” bo‘lib bormoqda.

Gumanoid robotlar — inson qiyofasiga o‘xshash, qo‘llari, oyoqlari va boshi bo‘lgan robotlardir. Ularning asosiy maqsadi — inson bilan tabiiy

muloqot qilish va inson harakatlarini takrorlay olishdir. Gumanoid robotlar ikki qo'l va ikki oyoqqa ega bo'lishi, yuz hisobi va mimikalarni takrorlay olishi, inson tilida gaplashish qobiliyati, inson harakatlarini avtomatik bajarish.

Masalan Sophia - insonga o'xshash robot bo'lib, muloqot qila oladi va his-tuyg'ularini namoyish qila oladi, ASIMO - inson harakatlarini takrorlaydi, yuradi, niyatlangan joyga borishi mumkin.

Gumanoid robotlar hozirgi vaqtda ta'lim va tadqiqotlarda, kundalik hayotda yordamchi sifatida, tadbirlarda va ko'rgazmalarda qo'llanilmoqda. Gumanoid robotlar inson bilan yaqin hamkorlik qilishga qodir bo'lganligi uchun kelajakda uyda, ish joyida va ta'limda keng qo'llanilishi kutilmoqda.

Sun'iy intellekt (SI) bilan ishlaydigan robotlar — bu o'zlashtirish, o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega robotlardir. Ular faqat dasturga ko'ra harakat qilmaydi, balki atrof-muhitni tahlil qilib, murakkab vazifalarni hal qila oladi.

Xususiyatlari:

- ma'lumotlarni to'play olish va tahlil qilish;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- inson bilan muloqot qilish (so'z va harakat orqali);
- muammolarni yechish va turli ssenariylarga moslashish. SI bilan robotlar kelajakning asosiy texnologiyasi hisoblanadi, chunki ular insonning fikrlash qobiliyatini taqlid qiladi va mustaqil ravishda ishlay oladi.

Sophia — bu Sophia, inson qiyofasiga ega bo'lgan gumanoid robot.

Uning asosiy 4 ta xususiyatlari shunday:

1. **Insonga o'xshash yuz va mimikalar** — his-tuyg'ularni namoyish qila oladi.
2. **Gaplasha olish qobiliyati** — inson tilida so'zlaydi, savollarga javob beradi va muloqot qila oladi.
3. **Sun'iy intellekt** — atrof-muhitni tushunib, qarashlari va javoblari bilan interaktiv muloqot qiladi.
4. **Ijro etuvchi mexanizmlar** — qo'l harakatlari va boshni qimillatishi orqali tabiiy harakatlarni taqlid qiladi. Sophia roboti ta'lim, tadqiqot va ko'rgazmalarda qo'llaniladi va inson-robot hamkorligini rivojlantirishda

muhim ahamiyatga ega. U nafaqat insonga o'xshash ko'rinishda, balki muloqot qilish qobiliyati bilan ham diqqatni tortmoqda.

Bugungi kunda maktab ta'limida robototexnika va robotlardan foydalanish orqali o'quv jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'lib bormoqda. Robotlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda ko'rishlari, texnik qobiliyatlarini rivojlantirishlari va innovatsion fikrlashlarini oshirishlari uchun keng qo'llaniladi.

Ta'lim robotlari — bu maktablarda va o'quv markazlarida ishlatiladigan robotlar bo'lib, o'quvchilarni dasturlashga o'rgatish, muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish va mexanika va robototexnika asoslarini tushunishga yordam beradi ular asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktablarda qo'llanish imkoniyatlari quyidagicha:

a) Dasturlash va STEM fanlari - robotlar orqali bolalar algoritm tuzish va texnik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

b) Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish - robotlar bilan mashq qilish orqali bolalar muammolarni tahlil qilib, yechim topishni o'rganadi;

v) Ta'lim jarayonini qiziqarli qilish - robotlar interaktiv mashg'ulotlarda ishtirok etishi bolalarning diqqatini jalb qiladi;

g) Jamoaviy ishlash ko'nikmalari - robotlar bilan loyiha ishlab chiqish guruhda hamkorlik qilishni o'rgatadi.

Maktablarda robotlardan foydalanish bolalarning texnik va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, STEM fanlariga qiziqish uyg'otish va ta'lim jarayonini interaktiv qilishda katta ahamiyatga ega. Robotlar orqali o'quvchilar faqat nazariy bilimni emas, balki amaliyotda ham ko'rish imkoniga ega bo'ladi va kelajakda texnologiyalar bilan ishlash uchun tayyorlanadi. Robotlar tarixi qadimdan boshlangan bo'lsada, haqiqiy robotlar zamonaviy texnologiyalar bilan yaratildi. Bugungi kunda robotlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

1-amaliy mashg'ulot mavzu :Oddiy robot modelini yaratish, robot harakatini kuzatish.

Darsning maqsadi.

O'quvchilarga:

1. Oddiy robot modelini yaratadi.
2. Robot qanday harakat qilishini tushunadi.
3. Robot qismlari qanday ishlashini kuzatadi.

Kerakli jihozlar (oddiy robot yasash uchun quyidagi jihozlar kerak bo'ladi):

- a) Kichik elektr motor.
- b) Batareyka (1.5V yoki 3V).
- v) Simlar .
- g) Tugma (o'chirib-yoqish uchun).
- d) Plastik yoki karton asos.
- ye) G'ildiraklar (yoki disklar).
- j) Skotch yoki kley

Xavfsizlik qoidalari:

- elektr jihozlarini ehtiyotkorlik bilan ishlating;
- o'qituvchi ruxsatisiz ulash ishlarini qilmang;
- kichik qismlarni og'izga solmang

Robot modelini yasash.

1. Asos tayyorlash - karton yoki plastikdan robot uchun kichik platforma tayyorlanadi.
2. Motorni joylash - elektr motor platformaning ustiga mahkamlanadi.
3. G'ildiraklarni o'rnatish - motorga g'ildiraklar ulanadi.
4. Elektr ulash - batareyka → tugma → motor simlar orqali barchasi ulanadi.
5. Sinov - tugmani bosib, robot harakatga keltiriladi.

Robot qanday harakat qiladi?

- birinchidan batareyka energiya beradi;
- ikkinchidan motor aylanadi;
- uchinchidan g'ildiraklar harakatga keladi;
- to'rtinchidan robot oldinga yuradi.

O'quvchilar quyidagilarni kuzatish qismi.:

1. Robot qanday tezlikda harakat qiladi
2. To'g'ri yoki qiyshiq yuradimi
3. Qanday o'zgarishlar qilish mumkin

Taʼxriba (eksperiment).

Quyidagi tajribalarni oʻtkazish mumkin batareykani almashtirib koʻrish, gʻildiraklarni katta-kichik qilish, robotga yuk qoʻshib koʻrish

Savollar.

Oʻquvchilarga savollar:

- robot nima yordamida harakat qildi?
- qaysi qism eng muhim?
- robotni qanday yaxshilash mumkin?

Bu amaliy mashgʻulot orqali oʻquvchilar robot qanday ishlashini amalda koʻradi, qismlar birgalikda ishlashini tushunadi, texnikaga qiziqishi ortadi. Qoʻshimcha gʻoyalarda robotga bezak berish, unga sensor qoʻshish (keyingi darslarda), guruh boʻlib ishlash.

Robototexnika - bu zamonaviy texnologiyalarning eng muhim va tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. U robotlarni yaratish, ularni boshqarish va turli sohalarda samarali qoʻllashni oʻrganadi. Robototexnika nafaqat texnik fan, balki mexanika, elektronika va dasturlash kabi bir nechta yoʻnalishlarni birlashtiruvchi kompleks sohadir. Robot tushunchasi, uning tarixi, turlari va asosiy qismlari haqida maʼlumot berildi. Robotlar inson tomonidan yaratilgan boʻlib, ular berilgan dastur asosida harakat qiladi va turli vazifalarni bajaradi. Ilk robotlarga oʻxshash qurilmalar qadim zamonlarda paydo boʻlgan boʻlsa-da, haqiqiy robotlar zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida yaratildi. Bugungi kunda robotlar juda keng imkoniyatlarga ega boʻlib, hatto insonga oʻxshash harakat va muloqot qilish darajasigacha yetib kelmoqda.

Robotlarning turlari ham juda xilma-xildir. Sanoat robotlari ishlab chiqarish jarayonlarida katta ahamiyatga ega boʻlib, ogʻir va xavfli ishlarni bajaradi. Maishiy robotlar insonning kundalik hayotini yengillashtiradi, uy ishlarida yordam beradi. Tibbiyot robotlari shifokorlarga yordam berib, aniq va murakkab operatsiyalarni bajarish imkonini yaratadi. Taʼlim robotlari esa oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ularni zamonaviy texnologiyalarga yaqinlashtiradi.

Robotning asosiy qismlari — sensorlar, boshqaruv tizimi va ijro etuvchi mexanizmlar — birgalikda ishlab, robotning to‘liq faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Sensorlar atrof-muhit haqida ma’lumot to‘playdi, boshqaruv tizimi bu ma’lumotlarni qayta ishlaydi va qaror qabul qiladi, ijro etuvchi mexanizmlar esa harakatni amalga oshiradi. Bu jarayon robotning “sezish — o‘ylash — harakat qilish” tizimi sifatida tushuniladi. Robototexnikaning ahamiyati juda katta. U inson mehnatini yengillashtiradi, vaqtni tejaydi va ish samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, xavfli va og‘ir mehnat talab qiladigan sohalarida robotlar inson o‘rnini bosib, uning salomatligini himoya qiladi. Shu bilan birga, robototexnika ta’lim sohasida ham muhim o‘rin tutib, yosh avlodni innovatsion fikrlashga o‘rgatadi.

Amaliy mashg‘ulotlar esa o‘quvchilarga nazariy bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Oddiy robot modelini yaratish orqali o‘quvchilar robot qanday ishlashini amalda ko‘radi, qismlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadi va texnik ijodkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, robototexnika bugungi va kelajak hayotning ajralmas qismi hisoblanadi. U inson hayotini yengillashtiruvchi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi va yangi imkoniyatlar yaratuvchi muhim sohadir. Kelajakda robotlar yanada rivojlanib, hayotimizning barcha sohalarida keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Shu sababli robototexnikani o‘rganish va uning asoslarini bilish har bir inson uchun muhim ahamiyatga egadir.

Nazorot va muhokama savollar:

1. Robototexnika nima?
2. Robototexnika qaysi fanlarga asoslanadi?
3. Robotlarning eng oddiy turi qaysi?
4. Robototexnika darslarining boshlang‘ich sinflarda asosiy maqsadi nima?
5. Robototexnika to‘plamlarida asosan nimalar bo‘ladi?

- 6. Robototexnika darslarida o‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlatishning maqsadi nima?**
- 7. Sensorlar robotlarda qanday vazifani bajaradi?**
- 8. Robototexnika amaliyotida dasturlash nima uchun kerak?**
- 9. Robototexnika qaysi ta’lim yondashuviga yaqin?**
- 10. Robototexnika darslari qaysi fanlar bilan integratsiyalashadi?**
- 11. Robotlarni boshqarishda qaysi energiya manbasi eng ko‘p ishlatiladi?**
- 12. Boshlang‘ich sinflarda robototexnika darslari qanday metod asosida o‘tiladi?**
- 13. Robotlarning ta’limiy ahamiyati nimada?**
- 14. Oddiy robot yasashda qanday materiallardan foydalaniladi?**
- 15. Robototexnika amaliy mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun nima qilinadi?**
- 16. Robototexnika darslarining asosiy pedagogik prinsipi qaysi?**
- 17. Robototexnika mashg‘ulotlari bo‘quvchilda qanday ko‘nikmalarni shakllantiradi?**
- 18. Robototexnika ta’limining zamonaviy ahamiyati nimada?**
- 19. Robototexnika amaliyotida “algoritm” tushunchasi nimani anglatadi?**
- 20. Robototexnika darslarining samaradorligi qanday ta’minlanadi?**

XULOSA

Mazkur “Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi” darslik zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni mehnatga, ijodkorlikka va kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur darslik texnologiya ta’limining ilmiy-nazariy asoslarini, uning maqsad va vazifalarini, mazmuni, shakllari, metodlari hamda o‘qitish vositalarini chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Darslikda texnologiya ta’limini tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlarini, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirish, loyiha faoliyatini tashkil etish, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llari bayon etilgan.

Fanni o‘zlashtirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalar, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, innovatsion yondashuv va ijodiy qobiliyatlar shakllanadi. Bu esa o‘quvchilarni hayotga, mehnat bozori talablariga va kelajak kasb tanloviga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi

I-modul “Texnologiya ta’limi nazariyasi” mavzular 1–4 sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda nazariy asos va metodik yo‘nalishlarni ta’minlaydi. Ushbu modul orqali o‘qituvchi:

- O‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish,
- Darslarni samarali tashkil etish,
- O‘quvchilarni mehnatga va hayotga tayyorlashda ilmiy-metodik asosga ega bo‘ladi.

Shu bilan, modul boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limi jarayonini zamonaviy talablar va pedagogik standartlar asosida olib borish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchi shaxsining shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, 1–4-sinflarda texnologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarda mehnatsevarlik, amaliy ko‘nikmalar, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu fan o‘quvchilarni atrof-muhit, oddiy texnologik jarayonlar va mehnat

faoliyatining asosiy elementlari bilan tanishtirish orqali ularning bilish va amaliy tafakkurini boyitadi.

Zamonaviy ta'lim talablari boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, darslarni o'quvchilar yoshi va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu bois II-modul "Texnologiya ta'limi metodikasi" mavzular doirasida 1–4-sinflarda texnologiya ta'limini samarali tashkil etish masalalari chuqur tahlil qilingan.

II-modul tahlillari shuni ko'rsatdiki, 1–4-sinflarda texnologiya fanini o'qitishda maqsad o'quvchilarda oddiy mehnat ko'nikmalari, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Darslarni rejalashtirishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish samaradorlikni oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari ko'rgazmalilik, o'yin usullari va amaliy mashg'ulotlar orqali tashkil etiladi. Qog'oz, karton, mato va tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarda qo'l mehnati ko'nikmalari, diqqat va aniqlikni rivojlantiradi. Shuningdek, oddiy loyiha ishlarini bajarish orqali ularning ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashlari rivojlanadi.

Mehnat xavfsizligi va sanitariya-gigiena qoidalari boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. O'quvchilarga xavfsiz ishlash qoidalarini tushunarli tarzda o'rgatish ularning salomatligini muhofaza qilish bilan bir qatorda mas'uliyat hissini ham shakllantiradi.

Baxolash jarayoni ham modulning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Kompetensiyaga asoslangan va rag'batlantiruvchi baholash usullari o'quvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini aniq baholashga hamda ta'lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

II-modul "Texnologiya ta'limi metodikasi" mavzular 1–4-sinflarda texnologiya fanini samarali o'qitish uchun muhim ilmiy-metodik asosni ta'minlaydi. II-modul doirasida o'rganilgan mavzular texnologiya fanini o'qitishning mazmuni, usullari, vositalari va tashkil etish shakllarini

chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu modul bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Avvalo, texnologiya ta'limining maqsad va vazifalari o'rganilib, uning asosiy yo'nalishi o'quvchilarda mehnat madaniyati, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ekanligi ta'kidlanadi. Texnologiya fani faqatgina amaliy ishlar bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, dars jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat uyg'un holda olib borilishi zarur.

Modul davomida texnologiya ta'limini tashkil etish shakllari, xususan, dars, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar va loyihaviy faoliyat haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu shakllar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil izlanishga undash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, loyihaviy ta'lim bugungi kunda juda dolzarb bo'lib, u o'quvchilarning real hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar ham muhim o'rin tutadi. Modulda an'anaviy va zamonaviy o'qitish metodlari, jumladan, tushuntirish, suhbat, ko'rsatib berish, amaliy mashq, muammoli ta'lim, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritiladi. Zamonaviy yondashuvlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va kreativ yondashuvga undaydi.

Texnologiya ta'limida didaktik tamoyillar ham katta ahamiyatga ega. Ilmiylik, tizimlilik, ko'rgazmalilik, ongli va faollik tamoyillari dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu tamoyillarga amal qilish orqali o'quvchilarning bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishiga erishiladi. Ayniqsa, ko'rgazmali vositalardan foydalanish texnologiya fanida juda muhim bo'lib, u amaliy jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi.

Modulda yana bir muhim jihat — o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash tizimi ham ko'rib chiqiladi. Baholashning an'anaviy va zamonaviy shakllari, jumladan, testlar, amaliy topshiriqlar, portfolio, loyiha ishlari orqali baholash usullari o'quvchilarning real

bilim darajasini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, texnologiya ta'limida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish ham asosiy talab hisoblanadi. O'quvchilar bilan ishlash jarayonida mehnat xavfsizligi qoidalarini tushuntirish va ularga qat'iy amal qilishni ta'minlash o'qituvchining muhim vazifalaridan biridir. Bu esa amaliy mashg'ulotlarning xavfsiz va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, II-modulda o'rganilgan mavzular texnologiya ta'limi metodikasining nazariy va amaliy asoslarini chuqur egallashga yordam beradi. Bu bilimlar kelajakda o'qituvchining pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak pedagog zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalangan holda, o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantira oladi.

Xulosa qilib aytganda, "Texnologiya ta'limi metodikasi" fani zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu modulni o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy pedagogik ko'nikmalarga ham ega bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va jamiyat uchun malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

•

**“TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI” FANI
BO‘YICHA 1–4-SINFLAR UCHUN GLOSSARIY (TO‘PLAM)**

№	O‘ZBEKCHA	RUSCHA	INGLIZCHA
	1-sinf (9 ta atama, eng sodda)		
1	Mehnat - biror foydali ishni bajarish.	Rabota - выполнение чего-то полезного	Work -is doing something useful
2	Texnologiya -buyum yasashni o‘rganish fani.	Texnologiya — eto nauka o sozdanii veyey	Technology -is the science of making things
3	Qaychi — qog‘ozni kesish asbob	Nojnisi — instrument dlya rezki bumagi.	Scissors -are a tool for cutting paper
4	Yelim — narsalarni yopishtiradi	Kley -skleivaet veyi.	Glue - sticks things together
5	Qog‘oz -buyum yasash materiali	Material - dlya podelok iz bumagi	Material - for paper crafts
6	Rasm -chizilgan tasvir.	Risunok — eto kartina.	Drawing -is a painting
7	O‘yinchoq -o‘ynash uchun buyum.	Igrushka — eto predmet, s kotoym mojno igrat.	A toy is an-object that can be played with
8	Tozalik - ish joyini ozoda saqlash	Chistota — podderjanie poryadka na rabochem meste.	Cleanliness - maintaining order in the workplace
9	Xavfsizlik - o‘zingni ehtiyot qilish.	Bezopasnost – eto zabota o sebe	Safety -is taking care of yourself
	2-sinf (10 ta atama, eng sodda)		
10	Mehnat quroli – ish bajarish uchun ishlatiladigan asbob	Rabochiy instrument – instrument, ispolzuemy dlya vopolneniya raboty	A working tool is a tool used to perform a job

11	Material – buyum tayyorlash uchun kerakli narsa	Material – to, chto neobxodimo dlya izgotovleniya predmeta	Material is what is needed to make an item
12	Qog‘oz mahsuloti – qog‘oz buyum	Bumajnaya produksiya - bumajnyy predmet	Paper products - paper items
13	Kesish – qaychi yordamida ajratish	Razdelenie – raskroy nojnisami	Separation - cutting with scissors
14	Buklash – qog‘ozni egib shakl berish	Skladывanie – sgibanie bumagi v opredelennuyu formu	Folding is the act of bending paper into a specific shape
15	Yelimlash – buyumlarni birlashtirish.	Skleivanie — eto soedinenie predmetov	Gluing is the joining of objects together
16	Applikatsiya – qog‘ozdan rasm	Applikasiya – risunok na bumage	Applique is a drawing on paper
17	Tartib – ish joyini toza saqlash.	Poryadok – podderjanie chistoty na rabochem meste	Order – maintaining cleanliness in the workplace
18	Oddiy loyiha – reja asosida bajariladigan ishh	Prostoy proekt — eto rabota, kotoraya vypolnyaetsya v sootvetstvii s planom	A simple project is a job that is completed according to plan
19	Mehnat madaniyati -ishni to‘g‘ri va tartibli bajarish	Kultura truda — vypolnenie raboty pravilno i organizovanno	Work culture - doing work correctly and in an organized manne
3-sinf (10 ta atama, eng sodda)			

20	Texnologiya darsi – buyum yasashga o‘rgatuvchi dars	Urok texniki — urok, kotoꝑыy učit, kak čto-to sozdavat.	A technique- lesson is a lesson that teaches how to create something
21	Chizma – buyumning qog‘ozdagi tasviri.	Risunok — eto izobrajenie ob’ekta na bumage	A drawing- is an image of an object on paper
22	O‘lchash – chizg‘ich bilan o‘lchash	Izmerenie – izmerenie s pomosh’yu lineyki	Measurement– measuring with a ruler
24	Andoza – buyum shaklining namunasi	Shablon – primer formy ob’ekta	Template - an example of an object's shape
25	Tabiiy material – tabiatdan olingan material.	Naturalnyy material – material, poluchennyy iz prirody	Natural material- is a material obtained from nature
26	Sun’iy material – inson tomonidan yaratilgan material.	Iskusstvennyy material — material, sozdannyy chelovekom	Artificial- material is a material created by man
27	Bezash – buyumni chiroyli qilish.	Ukrashat — znachit sozdavat čto-to prekrasnoe	To decorate- means to create something beautiful
28	Ko‘nikma – mashq orqali hosil bo‘lgan qobiliyat	Navyk — eto umenie, razvivaemoe posredstvom praktiki	A skill- is an ability that is developed through practice
29	Xavfsizlik qoidasi – ehtiyot choralariga amal qilish.	Pravilo texniki bezopasnosti – soblyudayte merы predostorojnosti	Safety rule - take precautions

30	Loyiha – reja va natija	Proekt – plan i rezultat	Project - plan and result
4-sinf (29 ta atama, eng soda)			
31	Texnologiya – mahsulot yaratish jarayonlari majmui.	Texnologiya – sovokupnost prosessov sozdaniya produkta	Technology -is a set of processes for creating a product
32	Loyiha ishi – mustaqil bajariladigan ish	Proektnaya rabota – samostoyatel'naya rabota	Project work -is independent work
33	Dizayn – buyumning tashqi ko‘rinishi.	Dizayn – vneshniy vid izdeliya	Design – the appearance of the product
34	Kompozitsiya – buyum qismlarini to‘g‘ri joylashtirish	Kompozitsiya — pravilnoe raspolozhenie chastey ob’ekta	Composition -is the correct arrangement of parts of an object
35	Texnika xavfsizligi – ish vaqtida xavfsiz ishlash qoidalari.	Texnicheskaya bezopasnost – pravila bezopasnoy ekspluatatsii vo vremya raboty	Technical safety – rules for safe operation during work
36	Mehnat ko‘nikmasi – ishni bilib bajarish.	Professionalnye navyki — umenie vypolnyat rabotu	Professional skills - the ability to perform a job
37	Malaka – yuqori darajada shakllangan ko‘nikma	Kompetentnost — eto vysokorazvityy navyk	Competence is a highly developed skill
38	Asbob-uskunalar – ish bajarishda foydalaniladigan vositalar	Instrumenty i oborudovanie – instrumenty,	Tools and equipment – tools used to perform work

		используемые для выполнения работы	
39	Baholash – bajarilgan ish natijasini aniqlash.	Osenka – opredelenie rezultata выполненной работы	Evaluation -is the determination of the results of the work performed
40	Kasb – insonning doimiy mehnat faoliyati.	Professiya — eto postoyannaya trudovaya deyatelnost cheloveka	A profession -is a person's constant work activity
41	Plastilin – qo'l bilan yasaladigan yumshoq material.	Plastilin – myagkiy material dlya ruchnogo izgotovleniya izdeliy	Plasticine -is a soft material for handcrafting
42	Vozdushniy plastilin – havoda turib o'z-o'zidan qotadigan, yumshoq va yengil material. Undan yasalgan buyumlar bir muddatdan so'ng qotib, shaklini saqlab qoladi.	Vozdushniy plastilin —eto myagkiy i lyogkiy material, kotoryy zatverdevaet na vozduxe. Izdeliya iz nego so vremenem zatverdevayut i soxranyayut svoyu formu	Air-blown plasticine -is a soft, lightweight material that hardens in air. Products made from it harden over time and retain their shape.
43	Robot – odam buyruqlariga bo'ysunadigan yoki o'z-o'zidan ishlay oladigan qurilma.	Robot — eto ustroystvo, sposobnoe vypolnyat komandy cheloveka ili rabotat avtonomno	A robot -is a device that can carry out human commands or operate autonomously
44	Rabototexnika – robotlarni yaratish va ulardan foydalanish	Robototexnika — eto nauka, izuchayushaya sozдание i ispolzovanie robotov	Robotics -is the science that studies the

	bilan shug'ullanuvchi fan.		creation and use of robots
45	Algoritm – vazifani bajarish tartibi, qadam-baqadam ko'rsatmalar.	Алгоритм — процедура выполнения задачи, пошаговые инструкции	An algorithm -is a procedure for completing a task, step-by-step instructions
46	Avtomat – o'z-o'zidan ishlay oladigan qurilma yoki robot.	Автомат — устройство или robot, способный работать самостоятельно	An automaton - is a device or robot that can operate independently
47	Batareya – robot yoki qurilmani ishlatadigan energiya manbai.	Батарея — источник энергии, питающий робота или другое устройство	A battery -is a source of energy that powers a robot or other device.
48	Datchik (Sensor) – robot atrof-muhitni sezadigan qurilma.	Датчик – устройство, позволяющее роботу воспринимать окружающую среду	A sensor -is a device that allows a robot to perceive its environment
49	Kompetensiya — shaxsning bilim, ko'nikmalar, qobiliyatlarni birgalikda qo'llash qobiliyati.	Компетентность -то способность человека применять знания, навыки и умения в комплексе.	Competence is a person's ability to apply knowledge, skills and abilities in a complex manner.
50	Amaliyotga yo'naltirilganlik — bilimlarni amaliy jarayonda qo'llash.	Практическая направленность - применение знаний в	Practical focus -application of knowledge in the practical process.

		практическом процессе.	
51	Lichnostga yo'naltirilganlik — o'quvchini markazga qo'ygan ta'lim usuli.	Личностно-ориентированное обучение — это метод образования, в котором в центре внимания находится ученик.	Student-centered learning is an educational method that puts the student at the center of attention.
52	Muammoga yo'naltirilganlik — o'quvchining ijodiy fikrlashini va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirish.	Проблемно-ориентированный подход – развитие у учащихся творческого мышления и навыков решения проблем.	Problem-oriented approach – developing students' creative thinking and problem-solving skills.
53	Loyiha usuli — o'quvchilarga mustaqil ishlashga imkon beruvchi metod, ularni amaliy loyihalar orqali o'rganish.	Proyektnyy metod — eto metod, pozvolyayushchiy studentam rabotat' samostoyatel'no, obuchayas' posredstvom prakticheskikh proyektov.	The project method is a method that allows students to work independently, learning through hands-on projects.
54	Tajriba usuli — o'quvchilarga mustaqil amaliyot orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish.	Экспериментальный метод позволяет студентам углублять свои знания посредством самостоятельной практики.	Experimental method - allows students to deepen their knowledge through independent practice

55	Qo'llanma — o'quvchiga yordam beradigan usuliy yoki nazariy material.	Учебное пособие — это методический или теоретический материал, помогающий студенту.	A textbook is a methodological or theoretical material that helps a student.
56	Asetat tola – asetat ipak asetelsellozadan olinadigan sun'iy tola.	Ацетатное волокно — это искусственное волокно, получаемое из ацетатного шелка и ацетилцеллюлозы.	Acetate fiber is a man-made fiber obtained from acetate silk and acetate cellulose.
57	Modal –mato olxa daraxti yog'och pullasidan tayyorlangan rayonning bir turi. Bu ko'pincha kiyim-kechak,choyshablar va to'qimachilikda ishlatiladi	Модал — это разновидность вискозной ткани, изготавливаемой из древесных волокон бука. Он часто используется в одежде, постельном белье и текстиле.	Modal is a type of viscose fabric made from beech wood fibers. It is often used in clothing, bedding, and textiles.
59	Viskoza - sellyulozadan maxsusyo'l bilan ishlab olinadigan yopishqoq modda va undan tayyorlangan sun'iy ipak.	Вискоза — это особое клейкое вещество, изготавливаемое из целлюлозы и искусственного шелка, получаемого из нее.	Viscose is a special adhesive substance made from cellulose and the artificial silk obtained from it.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Ismailov. R.R. Texnologiya Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik Toshkent: "Novda E dutainment" nashriyoti, 2023, - 84 b.
3. Aliboev T. Ch. " Innovatsion ta'lim muhitida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish" ("Texnologiya" fani misolida) 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Jizzax – 2021.
4. Ashurov N.R. O'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik sharoitlari (xalq hunarmandchiligi misolida) AVTOREFERAT-Toshkent-2007
5. Ashurov N.R, Umbarova N.X.Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qog'oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. "Monografiya" Denov -2022, 160 b.
6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, elektron (Kindle) nashri: 2012-yil.
7. Rasulova Z. D. " Talabalarning kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish" (texnologik ta'lim yo'nalishi misolida) AVTOREFERAT-Buxoro – 2021.
8. Qurbonova, Sh.N. Texnologiya o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish : o,,quv qo,,llanma Buxoro: Fan va ta'lim, 2022.-200 b.
9. Tilavova M. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b.
10. Mannopova I., Sayfurov D. Texnologiya 4-sinf: darslik O'qituvchi NMIM, 2020.

11. Mannopova, R. Mavlonova, N. Ibragimova. – Tashkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Mámleketlik ilimiy baspası, 2017. –112 bet.
12. Nazarov X.N. Robototexnika asoslari. Toshkent “Iqtisod-moliya” 2016, 63 b.
13. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P. Satbayeva “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi”. Darslik. – T.: TDPU.2015-yil.
14. Hiromi Hayashi. “Origami Flowers”. Izdanie: illyustrirovannoe. Izdatel Joie, 2003. ISBN 488996116X, 9784889961164. Kolichestvo stranis Vs str: 114.
15. Muranov B.I. Ishlabch chiqarish praktikasi sharoitida qishloq o‘quvchilarining unumli mehnatini tashkil etish. Samarqand. Sam SXI. 1989. - 77 b.
16. Internet saytlari
17. www.ziyonet.uz www.tvchpi.uz.
18. www.pedagog.uz www.edu.uz Uz

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I-MODUL.TEXNALOGIYA TA'LIM NAZARIYASI

1-mavzu. Texnologiya o'qitish metodikasi faning nazariy va amaliy asoslari.....	4-17
2-mavzu. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limning mazmuni.....	17-26
3-mavzu. Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga kompetension yondoshuv.....	26-39
4-mavzu. Texnologiya ta'limning shakli va metodlari.....	39-49
5-mavzu. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi va kasb hunar turlari.....	49-62
6-mavzu. Texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimidan foydalanish xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi.....	62-70
7-mavzu. Texnologiya darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish.....	70-83
8-mavzu. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limidan amaliy ishlar.....	83-98
9-mavzu. Texnologiya darslarida innovasion texnologiyalardan foydalanish.....	98-103
10-mavzu. Texnologiya darslarida STEAM ta'limi.....	103-110

II-MODUL.TEXNALOGIYA TA'LIMI METODIKASI

11-mavzu. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	111-122
12-mavzu. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining mazmunini tashkil etish metodikasi.....	122-132
13-mavzu. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarni tashkil etish metodikasi.....	132-140
14-mavzu. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarni tashkil etish metodikasi.....	140-163
15-mavzu. Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	163-175
16-mavzu. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	175-186
17-mavzu. Rabototexnika nazariyasi va amaliyoti.....	186-195

XULOSA.....	196-199
“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha 1–4-sinflar uchun glossariy (to‘plam).....	200-207
FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	208-211